

“UzGasTrade” AJ
yagona aksiyadorining
2024 yil “3”apreldagi
2-son qaroriga
2-ilova

**“UZGASTRADE” AJ BOSHQARUV RAISI VA UNING O‘RINBOSARLAR
LAVOZIMIGA TANLOV O‘TKAZISH VA NOMZODLARNI SARALASH TARTIBI
TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

Toshkent sh. - 2024 yil

1-bob. Umumiy qoidalar

Ushbu nizom “UzGasTrade” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlar lavozimiga tanlov o‘tkazish va nomzodlarni saralash va tanlab olish tartibini belgilaydi.

1. Ushbu nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

vakolatli davlat organi – davlat ishtirokidagi korxonalarda davlat nomidan mulkdor (muassis, aksiyador, ishtirokchi) huquqlari va funksiyalarini amalga oshiruvchi Davaktiv agentligi, maxsus vakolatli davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari;

nomzodlarni saralash va tanlab olish – ommaviy axborot vositalarida (kamida 1 ta mahalliy, kamida 1 ta Respublika miqyosidagi, korporativ axborot yagona portali (openinfo.uz), Davaktiv agentligi veb-saytida (tanlovni o‘tkazish Davaktiv agentligi tomonidan e‘lon qilingan bo‘lsa) va “UzGasTrade” AJ veb-saytida (tanlovni o‘tkazish “UzGasTrade” AJning kuzatuv kengashi tomonidan e‘lon qilingan bo‘lsa) tegishli e‘lon berish orqali yoki nomzodlarni qidirib topishga ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb etgan holda hamda “UzGasTrade” AJ yoki vakolatli davlat organida shakllantirilgan nomzodlar zaxirasidan belgilangan mezonlar asosida eng maqbul nomzodlarni tanlab olish tizimi;

nomzodlarni saralash va tanlab olish komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – komissiya) – “UzGasTrade” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlar lavozimiga nomzodlarni saralab olish uchun kuzatuv kengashi a‘zolaridan, kuzatuv kengashi tashkil qilinmagan hollarda aksiyadorning kamida 3 nafar va ko‘pi bilan 7 nafardan oshmagan toq tarkibdagi malakali xodimlaridan iborat tanlov komissiyasi;

“xedxanter” tashkilotlari – ish beruvchi nomidan ish beruvchining talablariga to‘liq javob beradigan yuqori malakali va tajribali xodimlarni topish xizmatlarini ko‘rsatadigan tashkilot (firma, korxona va boshqa huquqiy-tashkiliy shakldagi subyekt).

2. Mazkur nizomning maqsadi “UzGasTrade” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlar lavozimiga ushbu nizom bilan belgilanadigan mezonlarga asosan eng maqbul nomzodlarni tanlov asosida saralab olishga yo‘naltirilgan bo‘lib, “UzGasTrade” AJ uchun alohida tasdiqlanadi va “UzGasTrade” AJ faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqib, uning normalariga amaldagi qonunchilik talablariga zid bo‘lmagan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

3. “UzGasTrade” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlar lavozimlari tarkibiga nomzodlarni saralash va tanlab olish “UzGasTrade” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlar lavozimlarining vakolatlarini muddatidan avval tugatilishi natijasida yuzaga keladigan bo‘sh (vakant) “UzGasTrade” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlar lavozimlari yoki mavjud bo‘sh (vakant) lavozimlari uchun amalga oshiriladi.

4. Saralash quyidagi tamoyillar bo‘yicha amalga oshiriladi:

shaffoflik – veb-saytda va (yoki) ommaviy axborot vositalarida, shuningdek qonun bilan ta‘qiqlanmagan boshqa manbalarda tegishli e‘lonlar, bo‘sh o‘rinlar, saralash siyosati, tartiblari, mezonlari va saralash jarayonining natijalari haqida ma‘lumotlarni chop etish;

tenglik – saralashda ishtirok etadigan barcha nomzodlarga bir xil shart-sharoitlar yaratish;

raqobat – saralash jarayoni ochiq va to‘g‘ri raqobatga asoslangan bo‘lishi;

mustaqillik – saralash jarayoni har qanday siyosiy va ma'muriy aralashuv yoki boshqa tashqi ta'sirlardan holi va mustaqil amalga oshirish.

2-bob. Nomzodlarni saralash va tanlab olish tartibi va bosqichlari

5. Komissiya tarkibi "UzGasTrade" AJ kuzatuv kengashi qarori tasdiqlanadi. Bunda, komissiya tarkibiga xalqaro moliya institutlari ekspertlari, konsalting kompaniyalar ilmiy xodimlari va ekspertlari, shuningdek "UzGasTrade" AJ faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib soha mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

6. Komissiya qarori o'rnatilgan tartibda majlisda ishtirok etgan a'zolari tomonidan imzolanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunda, komissiya majlisini o'tkazish uchun kvorum uning jami a'zolarining yetmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Komissiyaning barcha hujjatlari davlat "UzGasTrade" AJning kadrlar bilan ishlash bo'linmasida, agarda tanlov vakolatli davlat organi tomonidan o'tkazilsa, belgilangan tartibda vakolatli davlat organining tegishli bo'linmasida saqlanadi.

7. Nomzodlarni saralash va tanlab olish jarayoni "UzGasTrade" AJ boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlar lavozimlarida faoliyat olib borish istagida bo'lgan har qanday shaxslar uchun ochiqdir.

8. Jinsi, tili, millati, fuqaroligi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar har qanday shaxs saralashda belgilangan tartibda ishtirok etish uchun ariza topshirish huquqiga ega, sud qarorlari bilan mansab lavozimlarni egallashi cheklangan shaxslar bundan mustasno.

9. Saralash nomzodlar tomonidan taqdim etiladigan, shuningdek qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

10. "UzGasTrade" AJ boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlar lavozimiga tanlov o'tkazish va nomzodlarni saralash tartibi ushbu nizomga **1-ildovada** keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

11. "UzGasTrade" AJ boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlar lavozimlari tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar to'g'risidagi hamda mavjud bo'sh rahbarlik lavozimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Davaktiv agentligini xabardor qilishi shart.

O'zgarishlar sodir bo'lgan sana sifatida ijro organining tarkibini tasdiqlash to'g'risida va/yoki ularning tarkibiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida kuzatuv kengashi majlisi, aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi qarori qabul qilingan sana hisoblanadi.

12. Komissiya nomzodlarga malaka talablarini va lavozim tavsifini belgilagan holda mavjud bo'sh rahbarlik lavozimlarini yoki amaldagi rahbarlik lavozimlarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish natijasida bo'shaydigan rahbarlik lavozimlari ro'yxatini tasdiqlaydi.

13. "UzGasTrade" AJ kuzatuv kengashi yoki aksiyador tomonidan belgilanadigan bo'sh rahbarlik lavozimlar yoki amaldagi rahbarlik lavozimlarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish natijasida bo'shaydigan rahbarlik lavozimlari ro'yxatini korxona veb-saytiga joylashtiradi.

14. Komissiya nomzodlarni izlash choralarini ko'radi, bunda nomzodlarni izlash quyidagi usullardan birini qo'llagan holda amalga oshiriladi:

vab-saytlar va ommaviy axborot vositalari orqali e'lonlar berish;

nomzodlarni izlab topishga ixtisoslashgan konsalting va (yoki) yuqori malakali mutaxassislarni va rahbar kadrlarni qidirish va yollash bilan shug'ullanuvchi maxsus "xedxanter" tashkilotlarini jalb etish orqali.

15. Nomzodlar komissiyaga tanlov e'lon qilingan sanadan boshlab e'londa belgilangan talablar doirasida o'zi haqidagi barcha hujjat va ma'lumotlarni yopiq (maxsus) konvertlarda taqdim etadi. Tanlov shartlari, nomzodlarga qo'yilgan talablar, nomzodlar tomonidan taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjat va ma'lumotlar ro'yxati e'londa ko'rsatilishi lozim.

16. Komissiya tomonidan nomzodlarni qidirish yakunlanganidan so'ng, nomzodlar tomonidan taqdim etilgan o'zlariga tegishli bo'lgan hujjat va ma'lumotlar ushbu nizomning **2-ilovasiga** muvofiq baholash mezonlari asosida baholanadi.

"UzGasTrade" AJ faoliyatidan kelib chiqib, komissiya tomonidan baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritilishi yoki qo'shimcha mezonlar belgilanishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish uchun 1 nafar nomzoddan arizalar kelib tushgan taqdirda, komissiya qaytadan nomzodlarni izlash choralarini ko'radi. Ketma-ket 3-marta nomzodlarni izlash bo'yicha tanlov e'lon qilingandan so'ng, 1 nafardan ortiq nomzoddan arizalar kelib tushmasa, komissiya ariza bergan nomzodni vaqtinchalik saylab turish bo'yicha tavsiya berishga haqli.

17. Komissiya tanlov jarayonlarini ikki bosqichda amalga oshirishi mumkin.

Birinchi bosqichda komissiya nomzodlarni ular tomonidan taqdim etilgan hujjat va ma'lumotlar, shuningdek qo'shimcha manbaa va o'rganishlardan olingan ma'lumotlar asosida baholaydi, baholash natijalari va nomzodning arizalari (yopiq konvert) ni ochish jarayonidagi ishtiroki paytidagi qisqa fikrlari, takliflari va rejalaridan kelib chiqib, nomzodlar ichidan suhbat bosqichiga nomzodlar saralab olinadi.

Ikkinchi bosqichda komissiya saralab olingan nomzodlar ichidan bitta nomzodni tanlash uchun suhbat o'tkaziladi.

18. Baholash natijalariga ko'ra, komissiya bo'sh rahbarlik lavozimlari uchun eng yuqori ball to'plagan nomzodlar ichidan saralash asosida qisqa ro'yxatni (short list) tuzadi. Saralash jarayonida nomzodlarning eng yuqori ball to'plaganligi, salbiy xulosalar yo'qligi, tanlov shartlari va nomzodlarga quyilgan talablarga mos kelishi inobatga olinadi.

Tuzilgan qisqa ro'yxat (short list)da har bir bo'sh rahbarlik lavozimlariga nomzodlar soni 3 kishidan oshmasligi kerak.

19. Tuzilgan qisqa ro'yxat (short list) asosida komissiya tomonidan nomzodlar bilan suhbat o'tkaziladi.

Komissiya tomonidan nomzodlar suhbatga suhbat bo'lib o'tishi belgilangan kundan kamida bir ish kuni oldin nomzodlarning aloqa raqamlariga qo'ng'iroq qilish yoki elektron pochta xabariga xabarnoma (xat) yuborish orqali xabardor qilinadi.

Komissiya tomonidan suhbat davomida nizomning **3-ilovasiga** nomzodning kasbiy bilim va ko'nikmalari baholanadi.

Suhbat tomonlar kelishuviga ko'ra axborot texnologiyalaridan foydalangan holda videokonferensiya aloqasi orqali o'tkazilishi ham mumkin. Nomzod suhbatdan o'tishdan bosh tortsa yoki suhbatga kelmasa, u tanlovning keyingi bosqichlarida ishtirok eta olmaydi.

Suhbat natijalaridan kelib chiqib, eng yuqori ball to'plagan nomzodlar ro'yxati (short list)ga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

20. Komissiya eng yuqori ball to'plagan nomzodlar qisqa ro'yxati (short list)dan har bir bo'sh rahbarlik lavozimlariga eng munosib bitta nomzodni tanlash to'g'risida qaror qabul qiladi va tasdiqlash uchun aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga (tasdiqlash vakolati kuzatuv kengashida bo'lsa kuzatuv kengashiga) kiritadi.

Komissiya tomonidan baholash natijalari va suhbat yakunlari bo'yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi. Zaruratga ko'ra, baholash natijalari va suhbat yakunlari bo'yicha alohida bayonnoma rasmiylashtirilishi ham mumkin.

21. Tanlangan munosib nomzodni tasdiqlash uchun aksiyador (ta'sischi)lar umumiy yig'ilishiga (tasdiqlash vakolati kuzatuv kengashida bo'lsa kuzatuv kengashiga) kiritilganda vakolatli davlat organini (mavjud bo'lgan taqdirda) xabardor qilinishi va tegishli ko'rsatma olinishi shart.

22. "UzGasTrade" AJ vakolatli davlat organidan nomzodlar bo'yicha ko'rsatma olgandan so'ng, qonunchilikda belgilangan muddatda ushbu nomzodlarni ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga saylash (tayinlash) bo'yicha korporativ qarorlar qabul qilinishini tashkillashtiradi.

23. Mazkur nizomda belgilangan muddatda nomzodlardan yoki nomzodlarni izlash bilan shug'ullanadigan tashkilotlardan yetarlicha takliflar kelib tushmasa, komissiya bu to'g'risida ikki ish kuni ichida vakolatli organini xabardor qilishi shart.

Ushbu holatda vakolatli davlat organi komissiya tomonidan nomzodlar mazkur nizom talablariga asosan saralab olinguniga qadar mavjud nomzodlar zaxirasidan ma'qul keladigan nomzodlarni mustaqil ravishda tanlab olishi mumkin.

3-bob. Nomzodlarga qo'yiladigan talablar

24. Quyidagi shaxslar nomzod bo'la olmaydi:

oliy ma'lumoti bo'lmagan shaxslar;

rahbarlik lavozimida kamida ikki yil ish tajribasiga ega bo'lmagan shaxslar (ushbu muddat komissiya tomonidan "UzGasTrade" AJ xususiyati va ahamiyatidan kelib chiqib ko'proq yoki kamroq etib belgilanishi mumkin);

ushbu shaxslar aybi bilan litsenziya talablari va shartlari buzilganligi sababli, ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyani bekor qilish paytida bunday shaxslar yakka ijroiya organi vazifasini bajarayotgan bo'lsa yoki kollegial ijroiya organi tarkibiga kirsa yoki yuridik shaxs ta'sischilari hisoblansa va bunday litsenziyani bekor qilgandan uch yildan kam vaqt o'tgan bo'lsa;

iqtisodiyot sohasida yoki boshqaruv tartibiga qarshi jinoyat sodir etganligi sababli sudlanganlik holati tugallanmagan bo'lsa, shuningdek korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestriga kiritilgan bo'lsa;

sud hukmiga binoan muayyan lavozimda ishlash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilingan shaxs;

bunday shaxs bankrot etib topilgan paytda yuridik shaxsning yakka ijroiya organ vazifasini bajargan yoki kollegial ijroiya organi tarkibiga kirgan bo'lsa va uni bankrot deb topgan paytdan xali ikki yil o'tmagan bo'lsa.

25. Vakolatli davlat organi va/yoki komissiya tomonidan korxona faoliyatidan kelib chiqib, qo'shimcha talablar belgilanishi mumkin.

4. Saralash jarayonida nomzodlarni baholash

26. Komissiya nomzodlarning quyidagi xususiyatlarini baholaydi:
kasbiy bilim-ko'nikmalarini;
ish tajribasini;
manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini;
nomzodning yoki "UzGasTrade" AJ manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday holatlarni.
27. Baholash nomzodlar tomonidan taqdim etilgan, shuningdek qo'shimcha manbalardan olingan ma'lumotlar hamda suhbat natijalari asosida amalga oshiriladi.
28. Nomzodlarni tanlashda horijiy korxonalar va xalqaro tashkilotlarda ish tajribasiga ega bo'lgan nomzodlarga ustunlik beriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

29. Nomzodlar taqdim etgan ma'lumotlarining to'liqligi va to'g'riligi uchun mas'ul hisoblanadi.
30. Mazkur nizom talablari bajarilishi ustidan nazorat kuzatuv kengashi tomonidan, kuzatuv kengashi tashkil etilmagan bo'lsa aksiyador tomonidan amalga oshiriladi.
31. Mazkur nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

**“UZGASTRADE” AJ BOSHQARUV RAISI VA UNING O‘RINBOSARLAR
LAVOZIMIGA TANLOV O‘TKAZISH VA NOMZODLARNI SARALASH TARTIBI
TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

Toshkent sh. - 2024 yil

1-bob. Umumiy qoidalar

Ushbu nizom “UzGasTrade” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlar lavozimiga tanlov o‘tkazish va nomzodlarni saralash va tanlab olish tartibini belgilaydi.

1. Ushbu nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

vakolatli davlat organi – davlat ishtirokidagi korxonalarda davlat nomidan mulkdor (muassis, aksiyador, ishtirokchi) huquqlari va funksiyalarini amalga oshiruvchi Davaktiv agentligi, maxsus vakolatli davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari;

nomzodlarni saralash va tanlab olish – ommaviy axborot vositalarida (kamida 1 ta mahalliy, kamida 1 ta Respublika miqyosidagi, korporativ axborot yagona portali (openinfo.uz), Davaktiv agentligi veb-saytida (tanlovni o‘tkazish Davaktiv agentligi tomonidan e‘lon qilingan bo‘lsa) va “UzGasTrade” AJ veb-saytida (tanlovni o‘tkazish “UzGasTrade” AJning kuzatuv kengashi tomonidan e‘lon qilingan bo‘lsa) tegishli e‘lon berish orqali yoki nomzodlarni qidirib topishga ixtisoslashgan tashkilotlarni jalb etgan holda hamda “UzGasTrade” AJ yoki vakolatli davlat organida shakllantirilgan nomzodlar zaxirasidan belgilangan mezonlar asosida eng maqbul nomzodlarni tanlab olish tizimi;

nomzodlarni saralash va tanlab olish komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – komissiya) – “UzGasTrade” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlar lavozimiga nomzodlarni saralab olish uchun kuzatuv kengashi a‘zolaridan, kuzatuv kengashi tashkil qilinmagan hollarda aksiyadorning kamida 3 nafar va ko‘pi bilan 7 nafardan oshmagan toq tarkibdagi malakali xodimlaridan iborat tanlov komissiyasi;

“xedxanter” tashkilotlari – ish beruvchi nomidan ish beruvchining talablariga to‘liq javob beradigan yuqori malakali va tajribali xodimlarni topish xizmatlarini ko‘rsatadigan tashkilot (firma, korxona va boshqa huquqiy-tashkiliy shakldagi subyekt).

2. Mazkur nizomning maqsadi “UzGasTrade” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlar lavozimiga ushbu nizom bilan belgilanadigan mezonlarga asosan eng maqbul nomzodlarni tanlov asosida saralab olishga yo‘naltirilgan bo‘lib, “UzGasTrade” AJ uchun alohida tasdiqlanadi va “UzGasTrade” AJ faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqib, uning normalariga amaldagi qonunchilik talablariga zid bo‘lmagan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

3. “UzGasTrade” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlar lavozimlari tarkibiga nomzodlarni saralash va tanlab olish “UzGasTrade” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlar lavozimlarining vakolatlarini muddatidan avval tugatilishi natijasida yuzaga keladigan bo‘sh (vakant) “UzGasTrade” AJ boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlar lavozimlari yoki mavjud bo‘sh (vakant) lavozimlari uchun amalga oshiriladi.

4. Saralash quyidagi tamoyillar bo‘yicha amalga oshiriladi:

shaffoflik – veb-saytda va (yoki) ommaviy axborot vositalarida, shuningdek qonun bilan ta‘qiqlanmagan boshqa manbalarda tegishli e‘lonlar, bo‘sh o‘rinlar, saralash siyosati, tartiblari, mezonlari va saralash jarayonining natijalari haqida ma‘lumotlarni chop etish;

tenglik – saralashda ishtirok etadigan barcha nomzodlarga bir xil shart-sharoitlar yaratish;

raqobat – saralash jarayoni ochiq va to‘g‘ri raqobatga asoslangan bo‘lishi;

mustaqillik – saralash jarayoni har qanday siyosiy va ma'muriy aralashuv yoki boshqa tashqi ta'sirlardan holi va mustaqil amalga oshirish.

2-bob. Nomzodlarni saralash va tanlab olish tartibi va bosqichlari

5. Komissiya tarkibi "UzGasTrade" AJ kuzatuv kengashi qarori tasdiqlanadi. Bunda, komissiya tarkibiga xalqaro moliya institutlari ekspertlari, konsalting kompaniyalar ilmiy xodimlari va ekspertlari, shuningdek "UzGasTrade" AJ faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib soha mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

6. Komissiya qarori o'rnatilgan tartibda majlisda ishtirok etgan a'zolari tomonidan imzolanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bunda, komissiya majlisini o'tkazish uchun kvorum uning jami a'zolarining yetmish besh foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Komissiya barcha hujjatlari davlat "UzGasTrade" AJning kadrlar bilan ishlash bo'linmasida, agarda tanlov vakolatli davlat organi tomonidan o'tkazilsa, belgilangan tartibda vakolatli davlat organining tegishli bo'linmasida saqlanadi.

7. Nomzodlarni saralash va tanlab olish jarayoni "UzGasTrade" AJ boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlar lavozimlarida faoliyat olib borish istagida bo'lgan har qanday shaxslar uchun ochiqdir.

8. Jinsi, tili, millati, fuqaroligi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar har qanday shaxs saralashda belgilangan tartibda ishtirok etish uchun ariza topshirish huquqiga ega, sud qarorlari bilan mansab lavozimlarni egallashi cheklangan shaxslar bundan mustasno.

9. Saralash nomzodlar tomonidan taqdim etiladigan, shuningdek qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

10. "UzGasTrade" AJ boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlar lavozimiga tanlov o'tkazish va nomzodlarni saralash tartibi ushbu nizomga **1-ildovada** keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

11. "UzGasTrade" AJ boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlar lavozimlari tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar to'g'risidagi hamda mavjud bo'sh rahbarlik lavozimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni ichida Davaktiv agentligini xabardor qilishi shart.

O'zgarishlar sodir bo'lgan sana sifatida ijro organining tarkibini tasdiqlash to'g'risida va/yoki ularning tarkibiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida kuzatuv kengashi majlisi, aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig'ilishi qarori qabul qilingan sana hisoblanadi.

12. Komissiya nomzodlarga malaka talablarini va lavozim tavsifini belgilagan holda mavjud bo'sh rahbarlik lavozimlarini yoki amaldagi rahbarlik lavozimlarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish natijasida bo'shaydigan rahbarlik lavozimlari ro'yxatini tasdiqlaydi.

13. "UzGasTrade" AJ kuzatuv kengashi yoki aksiyador tomonidan belgilanadigan bo'sh rahbarlik lavozimlar yoki amaldagi rahbarlik lavozimlarining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish natijasida bo'shaydigan rahbarlik lavozimlari ro'yxatini korxona veb-saytiga joylashtiradi.

14. Komissiya nomzodlarni izlash choralarini ko'radi, bunda nomzodlarni izlash quyidagi usullardan birini qo'llagan holda amalga oshiriladi:

vab-saytlar va ommaviy axborot vositalari orqali e'lonlar berish;

nomzodlarni izlab topishga ixtisoslashgan konsalting va (yoki) yuqori malakali mutaxassislarni va rahbar kadrlarni qidirish va yollash bilan shug'ullanuvchi maxsus "xedxanter" tashkilotlarini jalb etish orqali.

15. Nomzodlar komissiyaga tanlov e'lon qilingan sanadan boshlab e'londa belgilangan talablar doirasida o'zi haqidagi barcha hujjat va ma'lumotlarni yopiq (maxsus) konvertlarda taqdim etadi. Tanlov shartlari, nomzodlarga qo'yilgan talablar, nomzodlar tomonidan taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjat va ma'lumotlar ro'yxati e'londa ko'rsatilishi lozim.

16. Komissiya tomonidan nomzodlarni qidirish yakunlanganidan so'ng, nomzodlar tomonidan taqdim etilgan o'zlariga tegishli bo'lgan hujjat va ma'lumotlar ushbu nizomning **2-ilovasiga** muvofiq baholash mezonlari asosida baholanadi.

"UzGasTrade" AJ faoliyatidan kelib chiqib, komissiya tomonidan baholash mezonlariga o'zgartirishlar kiritilishi yoki qo'shimcha mezonlar belgilanishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish uchun 1 nafar nomzoddan arizalar kelib tushgan taqdirda, komissiya qaytadan nomzodlarni izlash choralarini ko'radi. Ketma-ket 3-marta nomzodlarni izlash bo'yicha tanlov e'lon qilingandan so'ng, 1 nafardan ortiq nomzoddan arizalar kelib tushmasa, komissiya ariza bergan nomzodni vaqtinchalik saylab turish bo'yicha tavsiya berishga haqli.

17. Komissiya tanlov jarayonlarini ikki bosqichda amalga oshirishi mumkin.

Birinchi bosqichda komissiya nomzodlarni ular tomonidan taqdim etilgan hujjat va ma'lumotlar, shuningdek qo'shimcha manbaa va o'rganishlardan olingan ma'lumotlar asosida baholaydi, baholash natijalari va nomzodning arizalari (yopiq konvert) ni ochish jarayonidagi ishtiroki paytidagi qisqa fikrlari, takliflari va rejalaridan kelib chiqib, nomzodlar ichidan suhbat bosqichiga nomzodlar saralab olinadi.

Ikkinchi bosqichda komissiya saralab olingan nomzodlar ichidan bitta nomzodni tanlash uchun suhbat o'tkaziladi.

18. Baholash natijalariga ko'ra, komissiya bo'sh rahbarlik lavozimlari uchun eng yuqori ball to'plagan nomzodlar ichidan saralash asosida qisqa ro'yxatni (short list) tuzadi. Saralash jarayonida nomzodlarning eng yuqori ball to'plaganligi, salbiy xulosalar yo'qligi, tanlov shartlari va nomzodlarga quyilgan talablarga mos kelishi inobatga olinadi.

Tuzilgan qisqa ro'yxat (short list)da har bir bo'sh rahbarlik lavozimlariga nomzodlar soni 3 kishidan oshmasligi kerak.

19. Tuzilgan qisqa ro'yxat (short list) asosida komissiya tomonidan nomzodlar bilan suhbat o'tkaziladi.

Komissiya tomonidan nomzodlar suhbatga suhbat bo'lib o'tishi belgilangan kundan kamida bir ish kuni oldin nomzodlarning aloqa raqamlariga qo'ng'iroq qilish yoki elektron pochta xabariga xabarnoma (xat) yuborish orqali xabardor qilinadi.

Komissiya tomonidan suhbat davomida nizomning **3-ilovasiga** nomzodning kasbiy bilim va ko'nikmalari baholanadi.

Suhbat tomonlar kelishuviga ko'ra axborot texnologiyalaridan foydalangan holda videokonferensiya aloqasi orqali o'tkazilishi ham mumkin. Nomzod suhbatdan o'tishdan bosh tortsa yoki suhbatga kelmasa, u tanlovning keyingi bosqichlarida ishtirok eta olmaydi.

Suhbat natijalaridan kelib chiqib, eng yuqori ball to'plagan nomzodlar ro'yxati (short list)ga tegishli o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

20. Komissiya eng yuqori ball to'plagan nomzodlar qisqa ro'yxati (short list)dan har bir bo'sh rahbarlik lavozimlariga eng munosib bitta nomzodni tanlash to'g'risida qaror qabul qiladi va tasdiqlash uchun aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga (tasdiqlash vakolati kuzatuv kengashida bo'lsa kuzatuv kengashiga) kiritadi.

Komissiya tomonidan baholash natijalari va suhbat yakunlari bo'yicha bayonnoma rasmiylashtiriladi. Zaruratga ko'ra, baholash natijalari va suhbat yakunlari bo'yicha alohida bayonnoma rasmiylashtirilishi ham mumkin.

21. Tanlangan munosib nomzodni tasdiqlash uchun aksiyador (ta'sischi)lar umumiy yig'ilishiga (tasdiqlash vakolati kuzatuv kengashida bo'lsa kuzatuv kengashiga) kiritilganda vakolatli davlat organini (mavjud bo'lgan taqdirda) xabardor qilinishi va tegishli ko'rsatma olinishi shart.

22. "UzGasTrade" AJ vakolatli davlat organidan nomzodlar bo'yicha ko'rsatma olgandan so'ng, qonunchilikda belgilangan muddatda ushbu nomzodlarni ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga saylash (tayinlash) bo'yicha korporativ qarorlar qabul qilinishini tashkillashtiradi.

23. Mazkur nizomda belgilangan muddatda nomzodlardan yoki nomzodlarni izlash bilan shug'ullanadigan tashkilotlardan yetarlicha takliflar kelib tushmasa, komissiya bu to'g'risida ikki ish kuni ichida vakolatli organini xabardor qilishi shart.

Ushbu holatda vakolatli davlat organi komissiya tomonidan nomzodlar mazkur nizom talablariga asosan saralab olinguniga qadar mavjud nomzodlar zaxirasidan ma'qul keladigan nomzodlarni mustaqil ravishda tanlab olishi mumkin.

3-bob. Nomzodlarga qo'yiladigan talablar

24. Quyidagi shaxslar nomzod bo'la olmaydi:

oliy ma'lumoti bo'lmagan shaxslar;

rahbarlik lavozimida kamida ikki yil ish tajribasiga ega bo'lmagan shaxslar (ushbu muddat komissiya tomonidan "UzGasTrade" AJ xususiyati va ahamiyatidan kelib chiqib ko'proq yoki kamroq etib belgilanishi mumkin);

ushbu shaxslar aybi bilan litsenziya talablari va shartlari buzilganligi sababli, ko'rsatilgan faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyani bekor qilish paytida bunday shaxslar yakka ijroiya organi vazifasini bajarayotgan bo'lsa yoki kollegial ijroiya organi tarkibiga kirsa yoki yuridik shaxs ta'sischilari hisoblansa va bunday litsenziyani bekor qilgandan uch yildan kam vaqt o'tgan bo'lsa;

iqtisodiyot sohasida yoki boshqaruv tartibiga qarshi jinoyat sodir etganligi sababli sudlanganlik holati tugallanmagan bo'lsa, shuningdek korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestriga kiritilgan bo'lsa;

sud hukmiga binoan muayyan lavozimda ishlash yoki muayyan faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum qilingan shaxs;

bunday shaxs bankrot etib topilgan paytda yuridik shaxsning yakka ijroiya organ vazifasini bajargan yoki kollegial ijroiya organi tarkibiga kirgan bo'lsa va uni bankrot deb topgan paytdan xali ikki yil o'tmagan bo'lsa.

25. Vakolatli davlat organi va/yoki komissiya tomonidan korxona faoliyatidan kelib chiqib, qo'shimcha talablar belgilanishi mumkin.

4. Saralash jarayonida nomzodlarni baholash

26. Komissiya nomzodlarning quyidagi xususiyatlarini baholaydi:
kasbiy bilim-ko'nikmalarini;
ish tajribasini;
manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini;
nomzodning yoki "UzGasTrade" AJ manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday holatlarni.
27. Baholash nomzodlar tomonidan taqdim etilgan, shuningdek qo'shimcha manbalardan olingan ma'lumotlar hamda suhbat natijalari asosida amalga oshiriladi.
28. Nomzodlarni tanlashda horijiy korxonalar va xalqaro tashkilotlarda ish tajribasiga ega bo'lgan nomzodlarga ustunlik beriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

29. Nomzodlar taqdim etgan ma'lumotlarining to'liqligi va to'g'riligi uchun mas'ul hisoblanadi.
30. Mazkur nizom talablari bajarilishi ustidan nazorat kuzatuv kengashi tomonidan, kuzatuv kengashi tashkil etilmagan bo'lsa aksiyador tomonidan amalga oshiriladi.
31. Mazkur nizom talablari buzilishida aybdor shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

“UZGASTRADE” AKSIYADORLIK JAMIYATI
AXBOROT SIYOSATI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOMI

Toshkent – 2022 yil

MUNDARIJA:

1.	UMUMIY QOIDALAR.....	3
2.	AXBOROT SIYOSATINING ASOSIY TAMOYILLARI.....	3
3.	QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQ MAJBURIY RAVISHDA OSHKOR QILINISHI KERAK BO'LGAN AXBOROTLAR RO'YXATI, ULARNI OSHKOR QILISH SHARTLARI VA TARTIBI.....	4
4.	QO'SHIMCHA AXBOROTLARNING RO'YXATI VA OSHKOR QILISH TARTIBI.....	5
5.	BOSHQARUV ORGANLARI A'ZOLARI, MANSABDOR SHAXSLAR, JAMIYAT XODIMLARI O'RTASIDA MANFAATDOR SHAXSLAR BILAN AXBOROT ALMASHISH TARTIBI.....	6
6.	JAMIYATNING AXBOROT SIYOSATIGA RIOYA ETILISHI USTIDAN NAZORATNI TA'MINLASH CHORALARI.....	7
7.	YAKUNIY QOIDALAR.....	7

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Axborot siyosati to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 2 iyuldagi 176-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2013 yil 31 dekabrda 355-sonli "O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish holatini baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidolari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2012 yil 31 iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 2383) va 2015 yil 31 dekabrda Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha komissiya 9-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksiga (2016 yil 11 fevralda 02-02/1-187 raqam bilan ro'yxatga olingan) muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur Nizom majburiy ravishda oshkor qilinishi kerak bo'lgan axborotlar va hujjatlar ro'yxatini belgilaydi, shuningdek ularni "UzGasTrade" AJga (keyingi o'rinlarda – Jamiyat) taqdim etish tartibi va muddatlarini tartibga soladi.

2. Axborot siyosatining maqsadi aksiyadorlar, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va boshqa manfaatdor shaxslarning (keyingi o'rinlarda – manfaatdor shaxslar) Jamiyat va uning faoliyati to'g'risidagi ishonchli axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish orqali Jamiyat faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashdir.

3. Axborot siyosati manfaatdor shaxslarning huquqlarini to'liq amalga oshirishga, ularning investitsion va boshqaruv qarorlari uchun muhim bo'lgan Jamiyat va uning faoliyati to'g'risida ishonchli axborotlarni olishga, shuningdek Jamiyat to'g'risidagi maxfiy axborotlarni muhofaza qilishga yo'naltirilgan.

4. Axborotni maxfiy va tijorat siriga kiritish tartibi, shuningdek ushbu axborotlardan foydalanish shartlari Jamiyat tomonidan uning tarmoq xususiyatlari va faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Jamiyatning ichki hujjatlariga muvofiq belgilanadi..

II. AXBOROT SIYOSATINING ASOSIY TAMOIYILLARI

5. Axborot siyosatining asosiy tamoyillari muntazamlik, tezkorlik, ochiqlik, to'liqlik, teng huquqlilik, muvozanatlik, axborot resurslarining himoyalanganligi sanaladi.

6. Muntazamlik tamoyili Jamiyatning manfaatdor shaxslarni doimiy ravishda Jamiyat to'g'risida axborot bilan ta'minlashiga yo'naltirilgan.

7. Tezkorlik tamoyili Jamiyat manfaatdor shaxslarni Jamiyatning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek ularning manfaatlariga aloqador muhim voqealar va faktlar to'g'risida qisqa vaqt ichida xabardor qilishini anglatadi.

8. Axborotning ochiqlik tamoyili Jamiyat o'z faoliyati to'g'risidagi axborotlarni tarqatish kanallari va usullaridan foydalanishini, bu esa manfaatdor shaxslarning oshkor qilingan axborotlardan erkin, to'siqsiz va tanlovsiz foydalanishi ta'minlanishini anglatadi.

9. To'liqlik tamoyili Jamiyat barcha manfaatdor shaxslarga Jamiyat va uning faoliyati natijalari to'g'risida to'liq tasavvur hosil qilishga imkon beradigan hajmda asl voqelikka mos keluvchi axborotlarni taqdim etishini anglatadi.

10. Teng huquqlilik tamoyili Jamiyat tomonidan barcha manfaatdor shaxslarga Jamiyat faoliyatiga oid axborot olish va ulardan foydalanish bo'yicha teng huquqlar berilishini anglatadi.

11. Muvozanatlilik tamoyili Jamiyat faoliyatining ochiqligi va shaffofligi hamda uning tijorat manfaatlarini ta'minlash o'rtasidagi oqilona muvozanatga rioya qilishni ta'minlaydi. Buning majburiy shartlari esa quyidagilar sanaladi:

- maxfiy axborotlarni muhofaza qilish;
- qonunchilikda belgilangan insayder axborotlarini tarqatish va ulardan foydalanish qoidalariga rioya qilish.

12. Himoyalanganlik tamoyili tijorat yoki boshqa sir yoxud maxfiy axborot bo'lgan axborotlarni muhofaza qilishning qonuniy usullari va vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi.

III. QONUNCHILIKKA MUVOFIQ MAJBURIY RAVISHDA OSHKOR QILINISHI KERAK BO'LGAN AXBOROTLAR RO'YXATI, ULARNI OSHKOR QILISH MUDDATLARI VA TARTIBI

13. Jamiyat majburiy ravishda oshkor qilinishi kerak bo'lgan axborotlarni O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini muhofaza qilish to'g'risida"gi va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 2 iyuldagi 176-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidolari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2012 yil 31 iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 2383) va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan hajmlarda, muddatlarda va usullarda oshkor qiladi.

14. Axborotni majburiy ravishda oshkor qilish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

Korporativ axborot yagona portalida (qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining rasmiy veb-sayti);

Jamiyatning korporativ veb-saytida (www.uztransgaz.uz);

"Toshkent" respublika fond birjasining rasmiy veb-saytida (agar Jamiyat aksiyalari fond birjasining listingiga kiritilgan bo'lsa) (www.uzse.uz);

ommaviy axborot vositalarida.

15. Jamiyatning rasmiy veb-saytida, respublika fond birjasida (agar Jamiyat aksiyalari fond birjasining listingiga kiritilgan bo'lsa) va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida majburiy ravishda oshkor qilinishi kerak bo'lgan axborotlarni o'z ichiga olgan hujjatlar quyidagilardan iborat:

- qimmatli qog'ozlar emissiyasi prospekti (qimmatli qog'ozlar ommaviy joylashtirilgan taqdirda);
- Jamiyatning yillik hisoboti;
- birinchi chorak, birinchi yarim yillik va to'qqiz oy yakunlari bo'yicha Jamiyatning hisoboti;
- Jamiyat faoliyatidagi muhim fakt to'g'risida xabarnoma.

Jamiyat yuqoridagi axborotlarni Qimmatli qog'ozlar bozorida axborot taqdim etish va e'lon qilish qoidalarida belgilangan muddatlarda, tartibda va shaklda oshkor qiladi (Adliya vazirligi tomonidan 2012 yil 31 iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 2383).

16. Jamiyatning rasmiy veb-sayti (www.uzgastrade.uz) mavjud bo'lib, unda ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 2 iyuldagi 176-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan belgilab berilgan axborotlar oshkor qilinishini ta'minlaydi.

17. Ommaviy axborot vositalarida majburiy ravishda oshkor qilinishi kerak bo'lgan axborotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Jamiyatning joylashgan joyi (pochta manzili) va elektron pochta manzilidagi o'zgarishlar to'g'risida xabarlar;
- aksiyalarni yoki aksiyalarga konvertatsiya qilinadigan emission qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha ustuvor huquqga ega bo'lgan Jamiyat aksiyadorlariga takliflar;
- Jamiyat tomonidan aksiyalarni qayta sotib olish to'g'risidagi axborotlar;
- Jamiyatni tugatish, shuningdek uning kreditorlari tomonidan talablar e'lon qilinishi tartibi va muddati to'g'risidagi axborotlar.

IV. QO'SHIMCHA AXBOROTLARNING RO'YXATI VA OSHKOR QILISH TARTIBI

18. Jamiyat o'z veb-saytining manfaatdor shaxslar uchun qulay bo'lgan ingliz, rus va boshqa tillardagi versiyasini yaratib, ularga davlat tilida mavjud bo'lgan barcha axborotlarni tegishli tilga tarjima bilan joylashtirgan holda takomillashtirilishini ta'minlaydi.

19. Jamiyat o'zining rasmiy veb-saytida quyidagi qo'shimcha axborotlarni oshkor qiladi:

- Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini bajarish va unga rioya qilish majburiyatini qabul qilish to'g'risida;

– ijroiya organi, shu jumladan Jamiyatda ishlash davri va ushbu davr uchun faoliyat samaradorligini baholash to‘g‘risida;

– Jamiyat ustav kapitalining tuzilishi (ulushi 20 foizdan ortiq bo‘lgan aksiyadorlar);

– taklif qilinayotgan sof foydani taqsimlash asoslari, dividendlar miqdori, ularning Jamiyat tomonidan qabul qilingan dividend siyosatiga muvofiqligini baholash, shuningdek, zaruratga ko‘ra, sof foydaning muayyan qismini Jamiyatni rivojlantirish ehtiyojlari uchun yo‘naltirish hajmi bo‘yicha tushuntirishlar va iqtisodiy asoslar;

– xayriya (homiylilik) yoki beg‘araz yordamni taqdim etish (olish) va qarorlarni qabul qilish tartibi va shartlari to‘g‘risida, shuningdek haqiqatda ko‘rsatilgan (olingan) xayriya (homiylilik) yoki beg‘araz yordam to‘g‘risida;

– korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalari to‘g‘risida.

20. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan ikki haftadan kechiktirmay yillik moliyaviy hisobot Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi audit o‘tkazilgandan so‘ng, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan holda e‘lon qilinadi.

21. Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi kuzatuv kengashi va ijroiya organini mukofotlash va ularga kompensatsiya to‘lash miqdori to‘g‘risidagi axborotlarni oshkor qiladi.

V. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI A‘ZOLARI, MANSABDOR SHAXSLARI, XODIMLARINING MANFAATDOR SHAXSLAR BILAN AXBOROT ALMASHISH TARTIBI

22. Jamiyatning boshqaruv organlari a‘zolari, mansabdor shaxslari, xodimlarining manfaatdor shaxslar bilan axborot almashishi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

23. Manfaaddor shaxslarning axborot taqdim etish to‘g‘risida yozma (elektron) talabiga ko‘ra mas‘ul ijrochi etib tayinlangan Jamiyat Boshqaruvi a‘zolaridan biri yoki Jamiyat Kuzatuv kengashi raisi nomidan erkin yozma shaklda tuzilgan zarur axborotlar 10 kun ichida elektron shaklda taqdim etiladi, maxfiy va tijorat sirlariga kiritilgan axborotlar bundan mustasno. U yoki bu axborot taqdim etilmagan holatda tegishli sabablar ko‘rsatiladi.

24. Hujjatlar nusxalarini taqdim etish zarur bo‘lgan hollarda, manfaatdor shaxs to‘lovni amalga oshiradi, uning miqdori hujjatlar nusxalarini tayyorlash va hujjatlarni pochta orqali jo‘natish bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash qiymatidan oshmasligi lozim.

25. Manfaaddor shaxslarning yozma yoki elektron so‘rovlari, shu jumladan aksiyadorlarning bog‘lanish ma‘lumotlari va bank rekvizitlarining o‘zgarishi to‘g‘risidagi axborotlar Jamiyatning rasmiy veb-saytida ko‘rsatilgan pochta yoki elektron pochta manzillariga yuborilishi mumkin.

VI. JAMIYATNING AXBOROT SIYOSATIGA RIOYA ETILISHI USTIDAN NAZORATNI TA'MINLASH CHORALARI

26. Ijro organi qonunchilik va ushbu Nizomga muvofiq Jamiyat to'g'risida majburiy ravishda oshkor qilinadigan axborotlarni o'z vaqtida e'lon etish uchun javobgar sanaladi.

27. Jamiyatning ijroiya organi rahbari axborotlarning tashkil etilishi, to'liqligi, ishonarliligi va o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgardir.

28. Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan qaror qabul qilinishi natijasi o'laroq ushbu Nizomda ko'rsatilgan axborotlarni oshkor qilish zarurati yuzaga keladigan bo'lsa, ushbu organ qarorni belgilangan tartibda rasmiylashtirgandan so'ng darhol Jamiyat ijroiya organiga taqdim etishga va qonunchilik hamda mazkur Nizom talablariga muvofiq qaror to'g'risidagi axborotlar oshkor qilinishini ta'minlashga majbur hisoblanadi.

29. Jamiyatning axborot siyosatiga rioya etilishi ustidan nazorat Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

30. Jamiyatning Ijroiya organi ushbu Nizom talablarini bajarish jarayoni to'g'risida muntazam ravishda Jamiyat Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

31. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

32. Axborot siyosati to'g'risidagi nizom Jamiyatning boshqaruv, nazorat organlari va uning xodimlari uchun majburiy sanaladi.

33. Axborotni o'z vaqtida, sifatli va ishonchli ravishda oshkor etish ijroiya organining faoliyat samaradorligini baholash mezonlaridan biri hisoblanadi.

34. Ushbu Nizomga o'zgartish va qo'shimchalar Jamiyat Kuzatuv kengashining yig'ilishda qatnashgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qaror asosida kiritiladi.

35. Ushbu Nizom, shuningdek unga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalar Jamiyat tomonidan internet tarmog'idagi korporativ veb-saytida Jamiyat boshqaruv organining tegishli qaror qabul qilingan yig'ilishi bayonnomasi imzolanganidan keyin o'n kun ichida e'lon qilinadi.

36. Ushbu Nizom Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

37. Ushbu Nizomning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid bo'lgan taqdirda, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi hamda mazkur Nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar, ushbu bandlar orqali tartibga solinadigan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va/yoki Jamiyat Ustavi me'yorlari qo'llaniladi.



**“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining
Komplaens nazorat bo‘limi nizomi**

**“UZGASTRADE” AKSIYADORLIK JAMIYATINING
KOMPLAENS NAZORAT BO‘LIMI
NIZOMI**



“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining Komplaens nazorat bo‘limi nizomi

Ushbu Nizom “O‘zbekiston Respublikasida “Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2025-yil 30-dekabrda **PF-270-son**, 2025-yil 26-dekabrda “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhitini va shaffofligi ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlari to‘g‘risida” **PF-259-son**, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevralda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida” gi **PF-22-son**, hamda “Byudjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”gi **PF-100-son**, Farmonlari, “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta‘minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 21-aprelda **PQ-147-son**, “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 6-iyulda **PQ-5177-son** qarori va 2025-yil 21-aprelda **PF- 71-son** Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning 2025-yil 5-martda o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar dasturi, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2026-yil 28-martda 84-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan (*Adliya Vazirligidan 2026-yil 6-mayda 3829-son bilan ro‘yxatga olingan*) “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limlari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizomi”ga asosan ishlab chiqildi.

1-bo‘lim. Umumiy qoidalar

1. Komplaens nazorat bo‘limi “UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda Jamiyat) tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi. Ushbu Nizom normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqlikni ta‘minlash va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi bo‘lgan Komplaens nazorat bo‘limini (keyingi o‘rinlarda – Bo‘lim) maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo‘lim - Jamiyat faoliyatida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralari ko‘rishga mas‘ul mustaqil tarkibiy tuzilma hisoblanadi.

2- bo‘lim. Komplaens nazorati bo‘limi faoliyatini tashkil etish

3. Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 28-mayda buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari faoliyati to‘g‘risidagi



“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining Komplaens nazorat bo‘limi nizomi

namunaviy nizomi”ga amal qiladi. Bo‘lim o‘z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida mustaqil ravishda amalga oshiradi, Jamiyat ustavi, jamiyat rahbarining buyruqlari, ko‘rsatmalari, qoidalar, yo‘riqnomalar va boshqa me‘yoriy hujjatlar, tasdiqlangan ish rejalar, ichki mehnat tartibi qoidalari, xavfsizlik qoidalari, mehnatni muhofaza qilish qoidalariga bo‘ysunadi.

4. Bo‘lim Jamiyat Kuzatuv kengashiga bo‘ysunadi va uning oldida hisobdor.

5. “E-anticor.uz” elektron platformasida komplaens-nazorati bo‘limi rahbarlari va xodimlarining elektron reyestri yuritiladi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qilingan ishlar haqidagi hisobot elektron shaklda taqdim etiladi, anonim so‘rovnomalar o‘tkazilib boriladi.

3- bo‘lim. Bo‘lim xodimlarini mas‘ul lavozimlariga nisbatan qo‘yiladigan talablar

6. Bo‘lim xodimlarini ma’sul lavozimlariga nisbatan ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir quyidagi minimal talablar belgilanadi:

- yurisprudensiya, iqtisodiyot, moliya, soliq, audit, tizimli tahlil, menejment yoki axborot texnologiyalari mutaxassisliklari bo‘yicha oliy ma‘lumot;

- komplaens-nazorati bo‘limi boshlig‘i lavozimi uchun mutaxassisligi bo‘yicha kamida 4 yillik, bo‘lim xodimlari uchun 3 yillik ish staji. Bunda komplaens va korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ish stajiga ustuvorlik beriladi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o‘quv kurslaridan o‘tganlik to‘g‘risida sertifikatga ega bo‘lish. Sertifikatga ega bo‘lgan mutaxassislar Agentlikda yuritiladigan ichki nazorat bo‘linmalariga nomzodlar zahirasisiga kiritiladi.

4-bo‘lim. Bo‘lim rahbarlari va xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilish hamda ularni intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini kelishish

7. Komplaens-nazorati bo‘lim rahbari va xodimi lavozimga tayinlashni Agentlik bilan kelishish bo‘sh lavozimlarga muqobillik asosida, ochiq va shaffof tanlovlar orqali yuqori malaka va ish tajribasi hamda kasbiy professional kompetensiyalarga ega bo‘lgan, eng munosib nomzodlarni tanlash va tayinlash maqsadida amalga oshiriladi.

8. Komplaens nazorati bo‘lim rahbari va xodimi lavozimdan ozod etishni Agentlik bilan kelishish ushbu bo‘limini mustaqilligini va xolislikni ta‘minlash maqsadida amalga oshiriladi.

9. Jamiyat Komplayens-nazorat bo‘lim boshlig‘i va bo‘lim bosh mutaxassisiga, malakaviy talablarga bajaradigan ishlari tarkibi bilan bog‘liq bo‘lgan, jamiyat kompalayens-nazorat bo‘lim boshlig‘i va bo‘lim bosh mutaxassisi



“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining Komplaens nazorat bo‘limi nizomi

uchun quyidagi miqdorlarda, qat’iy belgilangan lavozim maoshi belgilanadi:

- Komplayens-nazorati bo‘lim boshlig‘i – Jamiyatning Departament boshlig‘i lavozmi maoshiga teng miqdorda ;

- Komplayens-nazorati bo‘lim bosh mutaxassisi- Jamiyatning Bo‘lim boshlig‘i lavozmi maoshiga teng miqdorda;

- Komplayens-nazorati bo‘lim xodimlariga ustama haqi, mukofat pullari, ish stajiga qarab uzoq muddat xizmat qilganlik uchun to‘lanadigan haq miqdori (lavozim maoshiga nisbatan) va ish haqiga tenglashtirilgan boshqa to‘lovlar jamiyat xodimlariga ish haqi va boshqa to‘lovlarni to‘lashni tartibga soluvchi jamiyatning ichki me’yoriy hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

10. Bo‘lim xodimlari egallab turgan lavozimidan ozod etish va u bilan mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risidagi qaror Boshqaruv raisi tomonidan qabul qilinadi.

11. Komplaens-nazorati bo‘lim rahbari va xodimi lavozimidan ozod qilish masalasi Agentlik bilan kelishiladi:

Bunda Jamiyat rahbarlari tomonidan Agentlikka komplaens-nazorati bo‘limi rahbari va xodimini lavozimidan ozod qilish haqida taqdimnoma yuboriladi. Taqdimnomada xodimni lavozimidan ozod qilish sabablari, motivlari ko‘rsatiladi va ularni tasdiqlovchi hujjatlar (xodimning arizasi, ichki mehnat tartibi qoidalarini buzganligiga oid ma‘lumotlar va boshqalar) ilova qilinadi.

12. Agentlik tomonidan Komplaens-nazorati bo‘limi rahbari va xodimini lavozimidan ozod etish sabablari, motivlari yetarli emas deb hisoblangan taqdirda, shu jumladan ularning ta‘qib qilinayotganligi haqida ma‘lumotlar mavjud bo‘lsa, ushbu masalada ichki nazorat bo‘linmasi rahbari va xodimi bilan suhbat o‘tkaziladi.

13. Quyidagilar komplaens-nazorati bo‘limi rahbari va xodimini lavozimidan ozod qilish masalasini Agentlik tomonidan kelishishni rad etish uchun asos bo‘ladi: lavozimidan ozod etish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o‘ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta‘qib qilinganligi holati aniqlanganda.

14. Komplaens nazorati bo‘limi xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish masalasi Agentlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Bunda Jamiyat rahbari tomonidan komplaens-nazorati bo‘limi xodimlarini intizomiy javobgarlikka tortish bo‘yicha Agentlikka taqdimnoma kiritiladi.

15. Taqdimnomada quyidagilar ko‘rsatiladi:

intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lgan holatlar va ularning tavsifi;

aniqlangan qoidabuzarlik yoki kamchiliklar bo‘yicha xizmat tekshiruvi materiallari;



“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining Komplaens nazorat bo‘limi nizomi

xodimning tushuntirish xati yoki uni taqdim etishdan bosh tortganligi to‘g‘risidagi dalolatnoma;

qo‘llash taklif etilayotgan intizomiy jazo turi.

16. Quyidagilar komplaens-nazorati bo‘lim rahbari va xodimini intizomiy javobgarlikka tortish masalasini Agentlik tomonidan kelishishni rad etish uchun asos bo‘ladi:

intizomiy javobgarlikka tortish uchun sabablar yetarli emas deb topilganda;

o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifa va majburiyatlar doirasidan tashqari vazifalarni bajarmaganligi yoki o‘ziga yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarganligi uchun ta‘qib qilinganligi holati aniqlanganda;

intizomiy jazo turi amaldagi qonunchilikka zid bo‘lsa.

5. bo‘lim. Bo‘limning maqsadi, vazifa va funksiyalari

17. Bo‘limning asosiy maqsadi Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ISO37001:2025 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish, korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, jamiyat tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan muvofiqlik munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta‘minlashdan iborat.

Jamiyatning strategik maqsadlarini amalga oshirish, jamiyat boshqaruvida tezkorlikni oshirish, jamiyat faoliyati ochiqligi hamda shaffofligini ta‘minlash hamda Jamiyat kuzatuv kengashi va boshqaruv raisini aniq axborot bilan ta‘minlash bo‘limning maqsadi hisoblanadi.

Bo‘lim tomonidan har chorakda va yillik ishlar to‘g‘risidagi hisobotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Jamiyat Kuzatuv kengashiga taqdim etish.

18. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Jamiyatda korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

Jamiyatda korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, maishiy korrupsiyaning oldini olish, shu jumladan, raqamlashtirish, byurokratiyani qisqartirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rish, davlat xaridlari bo‘yicha preventiv o‘rganishlarni amalga oshirish;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan muntazam ravishda Agentlikka elektron hisobot taqdim etib borish;



“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining Komplaens nazorat bo‘limi nizomi

korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni olib borish;

jamiyatda korruptsiyaviy xavf-xatarlar ro‘yxatini shakllantirish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta‘minlash;

jamiyatda korruptsiyaga qarshi komplaens-nazoratini amalga oshirish va korruptsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beruvchi situatsion markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar kiritish;

mehnat jamoasida korruptsiyaga nisbatan muvosiis munosabatni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik va odob-axloq qoidalariga rioya qilish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ijobiy tajribalarni ommalashtirish va joriy etish yuzasidan takliflar kiritish.

19. Bo‘lim o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

Jamiyat tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

Jamiyatning korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun tashkilot rahbariga kiritadi;

Jamiyatning faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarda aniqlangan korruptsiyaviy normalarni bartaraf qilish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

Jamiyat tomonidan ishlab chiqiladigan korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar loyihalarini tashkilot tizimida korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi, maqbulligi va dolzarbligini nuqtayi nazaridan baholaydi va xulosalar beradi;

Jamiyatda korruptsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni Agentlikka kiritib boradi;

Jamiyatda korruptsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo‘yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va korruptsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxatini yaratadi;

Jamiyat tomonidan o‘xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida davlat hokimiyatining boshqa organlarida korruptsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo‘nalishlari haqida ma‘lumot to‘playdi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali jamiyat xodimlari tomonidan korruptsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni tahlil qiladi va ularni belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishini ta‘minlaydi;



“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining Komplaens nazorat bo‘limi nizomi

Jamiyatda yuritiladigan xizmat tekshiruvlari reyestri yoki o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlarini ro‘yxatga oladigan boshqa tegishli hujjatda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo‘yicha ma’lumotlarning to‘g‘ri va to‘liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

Jamiyatda manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilishda va jamiyat bilan tuzilgan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

Jamiyat xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo‘ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining faoliyat natijalarini tahlil qiladi va tahliliy materiallarni jamiyat xodimlariga yetkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarida jamiyatga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

Jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO 37001:2025 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta’minlaydi;

Jamiyat xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Jamiyat xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha o‘quv materiallarini ishlab chiqadi;

o‘quv rejaga muvofiq jamiyatning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha treninglarning o‘tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;

Jamiyat tizimi xodimlari va fuqarolar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha targ‘ibot tadbirlarida ishtirok etadi;

Jamiyatning rasmiy veb-saytidagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘limi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirilgan ma’lumotlarning yangilanib borilishini ta’minlaydi;

Jamiyat xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va tashkilotning korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

jamiyatdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo‘yicha xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi;



“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining Komplaens nazorat bo‘limi nizomi

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

Jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul tuzilma (shaxs)lar bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi;

Jamiyat faoliyati uning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlariga hamda xalqaro standartlarga muvofiqligi yuzasidan tekshiruvlar o‘tkazadi;

Jamiyat faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf xatarlarni aniqlash maqsadida xodimlar orasida so‘rovlar o‘tkazadi;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo‘yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligi va yetarliligini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida jamiyatda korrupsiya faktlari yuzasidan o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qiladi;

har oyda, keyingi oyning birinchi o‘n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to‘g‘risidagi oylik hisobotni Agentlikka hamda Jamiyatning birinchi rahbariga taqdim etadi;

Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

qonunchilik hujjatlari bilan Jamiyat zimmasiga yuklatilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha vazifalarga muvofiq xorijiy davlatlarning vakolatli organlariga zarur axborotni taqdim etish to‘g‘risida so‘rovlar yuboradi va ularning so‘rovlariga javob berishda ishtirok etadi;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish chora tadbirlarini takomillashtirish yuzasidan xorijiy mutaxassislarni jalb etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

korrupsiyaviy xatti-harakatlarni bartaraf qilish yoki korrupsiyaviy jinoyatlarni tergov qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qiladi;

o‘z vakolati doirasidagi yirik investitsiya loyihalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekspertiza qiladi va baholaydi;

ichki audit xizmati bilan birgalikda asosiy vositalar bo‘yicha davlat xaridining qonuniyligini o‘rganadi va tegishli yozma xulosalarini xarid komissiyasiga taqdim etadi;

Jamiyatda mavjud byurokratik to‘siqlar va korrupsiyaviy omillar bo‘yicha axborot-tahliliy ma’lumotlar tayyorlaydi, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish, shu jumladan sohada raqamlashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va taqdim etadi;



“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining Komplaens nazorat bo‘limi nizomi

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi komplaens-nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beruvchi situatsion markazlar faoliyatini tashkil etadi va takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish hamda ekspertiza yakunlari bo‘yicha aniqlangan korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omilni bartaraf etish choralarini ko‘radi yoki bekor qilish bo‘yicha jamiyat rahbariga taklif kiritadi.

- Jamiyatining “Masofaviy audit” AATda aniqlangan xavflarni o‘z vaqtida bartaraf etish choralarini ko‘radi;

- Hisob palatasi tomonidan o‘tkazilayotgan masofaviy nazorat tadbirlari davomida davlat xaridlariga hamda budget mablag‘laridan samarali va maqsadli foydalanishga oid qonun buzilish holatlari aniqlangan taqdirda, Hisob palatasining “Masofaviy audit” AATdagi “To‘lovlarni to‘xtatish” moduli orqali G‘aznachilik xizmati qo‘mitasiga ma‘lumot yuborilib, kamchiliklarni oldini olish va bartaraf etish choralarini ko‘radi;

Jamiyatining “Yagona g‘aznachilik” va ERP axborot tizimlaridagi davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq barcha axborotlarni davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portaliga real vaqt rejimida uzatib borilishini ta‘minlash.

Jamiyatda xarid jarayonlarining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlari samaradorligini har 2 yilda bir marta baholashdan (forenzik) o‘tkazish va uning natijasini “Davlat auditi” dasturiy kompleksiga kiritib borilishini ta‘minlash.

Bo‘limga va uning xodimiga ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan funksiyalarning yuklanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bo‘lim qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

6- bo‘lim. Bo‘limning huquq va majburiyatlari

20. Komplaens-nazorati bo‘limi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o‘zi faoliyat yuritayotgan jamiyatda xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma‘lumotlarni so‘rab olish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida jamiyat xodimlaridan zarur yordam so‘rash va olish;

jamiyat xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish;

jamiyat rahbariyatiga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;

o‘z faoliyati va vakolati doirasida jamiyat xodimlariga yozma ko‘rsatmalar va tavsiyalar berish;

jamiyatning korrupsiyaga oid majlislarida ishtirok etish, tekshiruvlar



“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining Komplaens nazorat bo‘limi nizomi

o‘tkazish, hujjatlarni talab qilish va xodimlardan yozma tushuntirishlar olish.

21. Komplaens-nazorati bo‘limi quyidagi majburiyatlarga ega:

ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan zimmasiga yuklatilgan vazifalarni zarur darajada va samarali bajarish;

qonunchilik hujjatlari talablariga qat‘iy rioya qilish va o‘z vakolat doirasidan chetga chiqmaslik;

jamiyatda jinoyat alomatlari, xususan korrupsiya holatlari aniqlanganligi to‘g‘risida zudlik bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuqori turuvchi organ, Agentlik va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, odob axloq qoidalarining korrupsiyaga oid qismining buzilganligi fakti yuzasidan jamiyat rahbariyatiga ma‘lumotnomalar kiritish;

har oy yakuni bo‘yicha keyingi oyning birinchi o‘n kunligida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to‘g‘risidagi oylik hisobotni Agentlikka hamda davlat organlari va tashkilotlarining birinchi rahbariga taqdim etish.

22. Komplaens-nazorat bo‘lim xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo‘ljallangan o‘quv kurslari yoki maxsus seminar treninglarda ishtirok etadi.

O‘quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglar tashkilot yoxud Agentlik tomonidan tashkil etilishi mumkin.

7-bo‘lim. Bo‘lim javobgarligi

Nizomda yuklatilgan vazifalarni bo‘lim tomonidan o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi, mehnat intizomiga rioya qilinishi va mehnat vazifalarini talab darajasida bajarilishi, hujjatlarni o‘z vaqtida rasmiylashtirilishi, mehnat majburiyatlari buzilganligi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi me‘yoriy hujjatlariga asosan jamiyat rahbari tomonidan olib boradi.

Axborotlarni davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portaliga real vaqt rejimida uzatib borilishini ta‘minlash hamda forenzik audit natijalarini “Davlat auditi” dasturiy kompleksiga kiritib borilishini nazorat qilish Komplaens-nazorati bo‘limi tomonidan olib boradi.

Bo‘lim xodimlari ichki mehnat qoidalarini, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi hamda yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzganlik, lavozim vazifalari va majburiyatlarini, buyruq va farmoyishlarni belgilangan tartibda lozim darajada bajarmaganliklari uchun o‘rnatilgan tartibda javobgarlikka tortiladilar.



“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining Komplaens nazorat bo‘limi nizomi

8-bo‘lim. Yakuniy qoidalar

Mazkur Nizomga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonunchilik normalari va me‘yoriy hujjatlari qabul qilinganda o‘zgartirish kiritish mumkin.

Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor deb topilgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

“TASDIQLANGAN”
“UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining
yagona aksiyadorining
2024-yil “08” fevraldagi
1-son qarori bilan

**“UzGasTrade”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
USTAVI**

(yangi tahrirda)

MUNDARIJA

1	Umumiy qoidalar	3
2	Jamiyatning yuridik maqomi , joylashgan joyi, pochta manzili	3-4
3	Jamiyat faoliyatining maqsadi va asosiy yo‘nalishlari	4-5
4	Jamiyat ustav fondining miqdori, uni ko‘paytirish va kamaytirish tartibi	5-6
5	Jamiyat aksiyalarining turlari, nominal qiymati ularni joylashtirish tartibi va shartlari	6-8
6	Jamiyat aksiyadorlarining huquq va majburiyatlari	8-10
7	Jamiyat foydasini, dividendlarni taqsimlash va zararni qoplash tartibi	10-11
8	Jamiyatning fondlari va sof aktivlari	11-12
9	Jamiyatni boshqaruv organlari	12
10	Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi	12-15
11	Jamiyat Kuzatuv kengashi	15-19
12	Boshqaruv	19-22
13	Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish	22-23
14	Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish	23-24
15	Ustavga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish	

1. UMUMIY QOIDALAR

Bundan keyingi o‘rinlarda “Jamiyat» deb ataluvchi «UzGasTrade» aksiyadorlik jamiyati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-iyundagi “Tabiiy gaz bozorini isloh qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-280-sonli qarori asosida tashkil etilgan.

1.1. Jamiyat 202__-yil _____iyunda -son bilan ro‘yxatga olingan.

1.2. Jamiyatning rasmiy nomi:

a. davlat tilida (lotin alifbosida):

to‘liq nomi: **«UzGasTrade» aksiyadorlik jamiyati;**

qisqartirilgan nomi: **«UzGasTrade» AJ;**

b. davlat tilida (kirill alifbosida):

to‘liq nomi: **«UzGasTrade» Акциядорлик жамияти;**

qisqartirilgan nomi: **«UzGasTrade» АЖ;**

c. rus tilida:

to‘liq nomi: **Акционерное общество «UzGasTrade»;**

qisqartirilgan nomi: **АО «UzGasTrade».**

d. ingliz tilida:

to‘liq nomi: **«UzGasTrade» Join Stock Company;**

qisqartirilgan nomi: **«UzGasTrade» JSC**

2. JAMIYATNING YURIDIK MAQOMI, JOYLASHGAN JOYI, POCHTA MANZILI.

2.1. Jamiyat O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan yuridik shaxs hisoblanadi, o‘zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o‘zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

2.2. Jamiyat o‘z firma nomidan foydalanishda mutlaq huquqqa ega. Jamiyat o‘zining firma nomi davlat tilida to‘liq yozilgan va timsoli tasvirlangan yumaloq muhriga (muhorda qo‘shimcha ravishda firma nomi boshqa istalgan tilda ham ko‘rsatilishi mumkin) ega. Jamiyat o‘zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o‘z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘lishga haqli.

2.3. Jamiyat o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda mazkur Ustav talablariga amal qiladi.

2.4. Jamiyat aksiyadorning yoki har qanday manfaatdor shaxsning talabiga ko‘ra uch kun ichida ularga jamiyatning ustavi, shu jumladan, ustavga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan tanishib chiqish imkoniyatini berishi shart. Jamiyat aksiyadorning talabiga ko‘ra unga jamiyat ustavining ko‘chirma nusxasini berishi shart.

2.5. Aksiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi va uning faoliyati bilan bog‘liq zararlarning o‘rmini o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o‘z zimmasiga oladi.

2.6. Aksiyalar haqining hammasini to‘lamagan aksiyadorlar Jamiyat majburiyatlari yuzasidan o‘zlariga tegishli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

2.7. Jamiyat o‘z aksiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

2.8. Davlat va uning organlari Jamiyat o‘z zimmasiga olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo‘lmaydilar, xuddi shuningdek Jamiyat ham davlat va uning organlari olgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo‘lmaydi.

2.9. Jamiyatning mol-mulki unga mulk huquqi asosida tegishli bo‘lib, Jamiyataksiyalarini

joylashtirishdan tushgan mablag'lar, asosiy fondlar va aylanma mablag'lar, ko'char va ko'chmas mulklar, qimmatli qog'ozlar, olingan daromad, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa asoslarda olingan boshqa mol-mulklardan tashkil topadi.

2.10. Jamiyat Aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga yoxud qonun bilan taqiqlanmagan boshqa mulkchilik shaklidagi yuridik shaxsga ega bo'lishi mumkin.

2.11. Jamiyat o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida filiallar tashkil etishi hamda ularga qonun hujjatlari va Jamiyat Ustavida belgilangan doirada va tartibda vakolatlar berishi mumkin.

2.12. Jamiyat O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yangi shu'ba korxonalar, filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi hamda ularga qonun hujjatlari va Jamiyat Ustavida belgilangan doirada va tartibda vakolatlar berishi mumkin. Agar O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida shu'ba korxonalar, filiallar tashkil etilishi va vakolatxonalar ochilishi, ushbu shu'ba korxona, filial va vakolatxona joylashgan mamlakat qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

2.13. Jamiyat filial va vakolatxonalarini mol-mulk bilan ta'minlaydi.

2.14. Jamiyatning filiallari va vakolatxonalari yuridik shaxs hisoblanmaydi, Jamiyatning Kuzatuv kengashi tasdiqlagan nizomlar asosida ish ko'radi. Filialning yoki vakolatxonaning rahbari Jamiyat tomonidan tayinlanadi va Jamiyat tomonidan berilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

2.15. Jamiyat o'zining yuridik manzilidan tashqari O'zbekiston Respublikasi hududida asosiy faoliyatni amalga oshirmaydigan ma'muriy idoralarini tashkil etishga haqli.

2.16. Jamiyat korxonalar, tashkilotlar va boshqa tijorat tuzilmalarini tashkil etishda va ularning xo'jalik faoliyatida, shu jumladan xolding asosida ham o'z mablag'lari bilan, shujumladan ulush qo'shish asosida qatnashish huquqiga ega.

2.17. Jamiyat o'z faoliyatini muvofiqlashtirish, o'z manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish hamda birgalikdagi dasturlarni amalga oshirish maqsadida uyushmalar (ittifoqlar) va o'zga birlashmalarda qatnashishi mumkin.

2.18. Jamiyat, tijorat operatsiyalarini amalga oshirishga doir qarorlar qabul qilishda mustaqildir.

2.19. Jamiyat faoliyat ko'rsatish muddati cheklanmagan muddatga tuzilgan.

2.20. Jamiyatning pochta manzili va joylashgan joyi: 100007 (indeks), Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi 32a.

2.21. Jamiyatning elektron pochta: info@uzgastrade.uz;

2.22. Jamiyatning rasmiy korporativ veb-sayti: www.uzgastrade.uz.

3. JAMIYAT FAOLIYATINING MAQSADI VA ASOSIY YO'NALISHLARI

3.1. Jamiyat o'z faoliyatini tijorat asosida amalga oshiradi va Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishdir.

3.2. Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- Tabiiy gazni davlatning yagona operatori sifatida respublikadagi ishlab chiqaruvchilardan Idoralararo tarif komissiyasi tomonidan tasdiqlanadigan narxlarda va import orqali tashqi manbalardan markazlashgan tartibda xarid qilish;

- "Xududgazta'minot" AJga va magistral gaz uzatish tizimiga ulangan iste'molchilarga tabiiy gazni to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida sotish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida ko'zda tutilgan holatlardan tashqari yagona eksport qiluvchi funksiyalarini bajaradi.

3.3. Jamiyat qonunchilik bilan ta'qiqlanmagan va ushbu Ustavda ko'rsatilmagan har qanday faoliyat turi bilan qonun xujjatlarida belgilangan tartibda shug'ullanishi mumkin.

3.4. Maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishni talab qiladigan faoliyat turlari Jamiyat tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda shunday litsenziya olinganidan keyin amalga

oshiriladi.

4. JAMIYAT USTAV FONDINING MIQDORI, UNI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI

4.1. Jamiyatning ustav fondi aksiyadorlar olgan Jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

4.2. Jamiyatning ustav fondi jamiyat mol-mulkining jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

4.3. Jamiyat ustav fondining miqdori **10.000.000.000 (o'n milliard)** so'mni tashkil qiladi va nominal qiymati **1.000 (bir ming)** so'm bo'lgan **10.000.000 (o'n million)** dona egasining nomi yozilgan oddiy joylashtirilgan aksiyalardan iborat.

a) Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish

4.4. Jamiyatning ustav fondi qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

4.5. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyat tomonidan Jamiyat ustavida belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtirilishi mumkin.

4.6. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

4.7. Jamiyatning ustav fondini uning o'z kapitali hisobidan ko'paytirishda qo'shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Jamiyatning ustav fondi ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, Jamiyatning ustav fondini ko'paytirishga yo'l qo'yilmaydi.

4.8. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy aksiyalarning va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari va shartlari belgilangan bo'lishi kerak.

4.9. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda Jamiyat ustavida ko'rsatilgan e'lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga kamaytirilishi kerak.

4.10. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Jamiyatning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

4.11. Jamiyatning tegishli boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qarordir.

4.12. Jamiyatning ustav fondi (kapitali) qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin. Qo'shimcha aksiyalar faqat Ustavda belgilangan, e'lon qilingan aksiyalarning soni doirasida Jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.

4.13. Qo'shimcha aksiyalar chiqarilgan holatda aksiyadorlar ustav fondidagi ulushiga proporsional ravishda imtiyozli sotib olish huquqi nazarda tutiladi.

b) Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish

4.14. Jamiyatning ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Jamiyat tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

4.15. Jamiyatning ustav fondini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga yo'l qo'yiladi.

4.16. Ustav fondini kamaytirish va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

4.17. Ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilgan vaqtda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi ustav fondini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

4.18. Jamiyat o'zi joylashtirgan aksiyalarni aksiyadorlar umumiy yig'ilishining joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish yo'li bilan Jamiyat ustav fondini kamaytirish to'g'risidagi qaroriga ko'ra, shuningdek ularni keyinchalik belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra olishga haqli.

4.19. Aksiyalarni sotib olish to'g'risidagi qarorda sotib olinadigan aksiyalarning turlari, Jamiyat sotib oladigan har bir turdagi aksiyaning soni, sotib olish narxi, aksiyalar haqini to'lash shakli va muddati belgilab qo'yilishi lozim.

4.20. Jamiyat aksiyalarini sotib olish vaqtida ularga pul mablag'lari bilan haq to'lanadi.

4.21. Jamiyat tomonidan oddiy va imtiyozli aksiyalarni sotib olish narxi bozor bahosiga muvofiq belgilanadi.

4.22. Jamiyat tasarrufiga o'tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlarni sanab chiqishda hisobga olinmaydi, ular bo'yicha dividendlar hisoblab chiqarilmaydi.

4.23. Ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinganidan boshlab Jamiyat kechi bilan 30 kun ichida bu qaror xususida o'z kreditorlarini yozma ravishda xabardor qiladi. Kreditorlar Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish to'g'risida o'zlariga xabarnoma yuborilgan sanadan e'tiboran kechi bilan 30 kun ichida Jamiyatdan o'z majburiyatlarini muddatidan oldin ijro etishni va Ustav fondi kamaytirilishi bilan bog'liq zararni to'lashni talab qilishga haqli.

5. JAMIYAT AKSIYALARINING TURLARI, NOMINAL QIYMATI ULARNI JOYLASHTIRISH TARTIBI VA SHARTLARI

5.1. Jamiyatning aksiyalari - egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular turiga ko'ra oddiy va imtiyozli aksiyalarga bo'linadi.

5.2. Aksiya bo'linmasdir. Agar aksiya umumiy mulk huquqi asosida bir nechta shaxsga tegishli bo'lsa, bu shaxslarning barchasi bir aksiyador deb e'tirof etiladi va aksiya bilan tasdiqlangan huquqlardan o'zlarining umumiy vakili orqali foydalanadi.

5.3. Bir turdagi aksiya unga egalik qiluvchi har bir aksiyadorga shu turdagi aksiyalarning boshqa egalari bilan bir xil bo'lgan hajmdagi huquqlarni beradi.

5.4. Oddiy aksiyalarni imtiyozli aksiyalarga, korporativ obligatsiyalarga va boshqa qimmatli qog'ozlarga ayirboshlashga yo'l qo'yilmaydi.

5.5. Aksiyalar mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida qaysi yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, o'sha yuridik yoxud jismoniy shaxs aksiyaning egasi — aksiyador deb e'tirof etiladi.

5.6. Oddiy aksiyalar ovoz beruvchi aksiyalar bo'lib, ular o'z egasiga dividendlar olish, Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beradi.

5.7. O'z egalariга dividendlarni, shuningdek Jamiyat tugatilayotganda aksiyalarga qo'yilgan mablag'larni birinchi navbatda olish huquqini beradigan aksiyalar imtiyozli aksiyalardir. Imtiyozli aksiyalar o'z egalariга Jamiyat foyda ko'rish-ko'rmasligidan qat'i nazar muayyan dividendlar olish huquqini beradi.

5.8. Aksiyaning egasi bo'lgan aksiyadorga ovozga qo'yilgan masalani hal etishda ovoz berish huquqini beradigan oddiy yoki imtiyozli aksiya Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyasidir.

5.9. Jamiyat barcha turdagi aksiyalarining nominal qiymati 1.000 (bir ming) so'm.

5.10. Jamiyatning e'lon qilingan — Jamiyat Ustav fondini (kapitali) oshirish maqsadida joylashtirilgan aksiyalariga qo'shimcha ravishda joylashtirishga xaqli bo'lgan e'lon qilingan aksiyalarni eng ko'p miqdori nominal qiymati 1 000 (bir ming) so'm bo'lgan umumiy qiymati 100 000 000 000 (yuz milliard) so'm 100 000 000 (yuz million) dona egasining nomi yozilgan xujjatsiz shakldagi yozilgan oddiy aksiyalardan iborat.

5.11. Jamiyat aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ochiq va

yopiq obuna vositasida joylashtirishga haqli.

5.12. Jamiyat tomonidan qo'shimcha aksiyalarni va boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

5.13. Aksiyalarning ochiq obunasi faqat qimmatli qog'ozlarning birja bozorida va uyushgan birjadan tashqari bozorida o'tkaziladi.

5.14. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan aksiyadorlar o'rtasida joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxi jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan, qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilarining savdo maydonchalarida vujudga kelayotgan narxlar konyunkturasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

5.15. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash ularni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilanganidan kam bo'lmagan narx bo'yicha amalga oshiriladi.

5.16. Jamiyatning ustav fondi ko'paytirilayotganda Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga uning o'z kapitali hisobidan, shuningdek haqini qo'shimcha aksiyalar bilan to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan dividendlar hisobidan haq to'langan taqdirda, bunday aksiyalarni joylashtirish Jamiyat aksiyalarining nominal qiymati bo'yicha amalga oshiriladi.

5.17. Jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi. Qo'shimcha aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga haq to'lash shakli va tartibi, Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda belgilab qo'yiladi.

5.18. Jamiyatning qo'shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to'lanishi lozim.

5.19. Aksiyaning haqi to'liq to'langunga va uning yangi egasi aksiyadorlar reyestrda ro'yxatga olingunga qadar aksiya ovoz huquqini bermaydi.

5.20. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirishga haqli bo'lib, buning natijasida Jamiyatning ikki yoki undan ortiq aksiyasi xuddi shu turdagi bitta yangi aksiyaga ayirboshlanadi. Bunda Jamiyat ustaviga uning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

5.21. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni maydalashni amalga oshirishga haqli bo'lib, buning natijasida Jamiyatning bir aksiyasi xuddi shu turdagi ikki yoki undan ortiq aksiyaga ayirboshlanadi. Bunda Jamiyat ustaviga Jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

5.22. Jamiyat o'zi chiqargan aksiyalar bo'yicha ularni qaytarib sotib olish sharti bilan bitimlar tuzishga, shuningdek o'zi chiqargan aksiyalarni ishonchli boshqaruvga berishga haqli emas.

5.23. Aksiyalarni joylashtirish quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin:

a) Jamiyat va oluvchi o'rtasida tegishli shartnomasi tuzilganda obuna qilish. Bunda, aksiyadorlar o'zining hisoblangan, lekin olinmagan dividendlarini Jamiyatning qo'shimcha chiqarilgan aksiyalarini olishda foydalanishiga haqlidir;

b) Jamiyatning ustav fondi o'z kapitalini kapitallashtirish hisobidan to'lanadigan qo'shimcha aksiyalar chiqarilishi orqali oshirilganda aksiyalarni aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash. Bunda, aksiyalarni Jamiyatning aksiyadorlari o'rtasida joylashtirish Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishining o'z kapitalini kapitallashtirish to'g'risidagi qarori asosida hech qanday shartnomalar tuzilmagan holda amalga oshiriladi. Aksiyalarni aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan kundagi reyestr ma'lumotlari bo'yicha amalga oshiriladi;

c) birja bozorida va uyushgan birjadan tashqari bozorlarda tegishli fuqarolik xuquqiy

bitimlar tuzish;

d) ularga ayirboshlashda:

-qonun hujjatlari va mazkur Ustavga muvofiq avval chiqarilgan ayirboshlanayotgan qimmatli qog'ozlarni;

-past nominal qiymatiga ega avval chiqarilgan aksiyalarni yiriklashtirish;

-yuqori nominal qiymatiga ega avval chiqarilgan aksiyalarni (aksiyalar nominal qiymatini kamaytirish yo'li bilan aksiyalar maydalanganda yoki ustav kapitali kamaytirilganda);

-qo'shib yuborish, birlashtirish, bo'lish, ajratib chiqarish orqali qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlarini.

5.24. Aksiyalarni ayirboshlash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qimmatli qog'ozlarni ayirboshlash orqali joylashtirilganda biror-bir shartnoma tuzilishi talab etilmaydi.

5.25. Jamiyat aksiyadorlarining soni chegaralanmagan.

5.26. Jamiyat o'zi joylashtirgan qimmatli qog'ozlar erkin ayirboshlanishi mumkin bo'lgan aksiyalar beradigan huquqlarni cheklash haqida ushbu qimmatli qog'ozlar egalarining roziligisiz qaror qabul qilishga haqli emas.

6. JAMIYAT AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Jamiyatning oddiy aksiyalari egasi quyidagi huquqlarga ega:

Jamiyatning aksiyadorlari reyestriga kiritilish;

o'ziga taalluqli depozitariydagi depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;

Jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

Jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali Jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;

Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

olgan dividendini erkin tasarruf etish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;

o'ziga yetkazilgan zararining o'zni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish;

o'zga aksiyadorlarning roziligisiz o'ziga tegishli aksiyalarni boshqa shaxslarga begonalashtirish bilan bog'liq bitimlarni amalga oshirish.

Aksiyadorlar qonun hujjatlariga va jamiyat ustaviga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6.2. Jamiyatning imtiyozli aksiyalari egasi quyidagi huquqlarga ega:

Jamiyatning aksiyadorlari reyestriga kirish;

o'ziga taalluqli depozitariydagi depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;

Jamiyat foyda ko'rish-ko'rmasligidan qat'iy nazar, imtiyozli aksiyalar egalariga ushbu Ustavning 7.17-bandida belgilangan miqdordagi dividendlarni birinchi navbatda olish;

olgan dividendini erkin tasarruf etish;

Jamiyat tugatilgan taqdirda aksiyalarning tugatish qiymatini birinchi navbatda olish;

Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborot olish;

qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini ximoya qilish;

qimmatli qog'ozlarni xarid qilish chog'ida extimoli bor zararlar va (yoki) foydaning bir qismini yo'qotishi bilan bog'liq tavakkalchilikni sug'urtalash;

o'zga aksiyadorlarning rozilgisiz o'ziga tegishli aksiyalarni boshqa shaxslarga begonalashtirish bilan bog'liq bitimlarni amalga oshirish;

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Jamiyatni qayta tashkil etish va tugatish masalalari hal etilayotganda ovoz berish huquqi bilan ishtirok etish.

6.3. Jamiyat aksiyadorlari Jamiyat aksiyalari beradigan huquqlarni (huquqlarning bir qismini) qonunchilikda belgilangan tartibda ishonchnoma asosida o'z vakiliga (vakillariga) berish huquqiga ega.

6.4. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

6.5. Jamiyatning har bir oddiy aksiyasi uning egasi bo'lmish aksiyadorga bir xil xajmda huquqlar beradi.

6.6. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlar ushbu ustavga muvofiq aksiyadorlar umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin.

6.7. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda depozitariy tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

6.8. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularning oluvchisiga ushbu qimmatli qog'ozga bo'lgan huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

6.9. Ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar:

-Jamiyatni qayta tashkil etish to'g'risida;

-joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirish haqida;

-jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki boshqa shaxsga berish bilan bog'liq yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqilganda;

-Jamiyatning ustaviga ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning huquqlarini cheklovchi o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi ustavni tasdiqlash to'g'risida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qarorlar qabul qilishda, agar ular qarshi ovoz bergan bo'lsa yoxud ovoz berishda uzrli sabablarga ko'ra ishtirok etmagan bo'lsa, o'zlariga tegishli aksiyalarning hammasi yoki bir qismi Jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilishga haqlidir.

Jamiyat aksiyadorlarni o'zlariga tegishli aksiyalarning Jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilish huquqi mavjudligi, qaytarib sotib olish narxi va qaytarib sotib olishni amalga oshirish tartibi to'g'risida xabardor etishi shart.

6.10. Aksiyadorlar mazkur Ustavning 6.9.-bandida ko'zda tutilgandan tashqari hollarda Jamiyatdan unga tegishli aksiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilishga haqli emas.

6.11. Jamiyat aksiyadorlarining majburiyatlari:

-mazkur Ustavda ko'rsatilgan tartibda, miqdor va usullarda aksiyalarning narxini to'lash;

-mazkur Ustavda nazarda tutilgan chegaralarda, Jamiyat boshqaruv organlarining qarorlariga bo'ysunish;

Jamiyat yoki uning faoliyati to'g'risidagi xizmat, tijorat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi axborotni oshkor qilishga haqli emas.

6.12. Jamiyat minoritar aksiyador hujjatlarni asossiz ravishda talab qilish va maxfiy axborotlar, tijorat sirlarini qo'llash yo'li bilan Jamiyat boshqaruv organi faoliyatiga to'sqinlik qilmasligini nazarda tutadi.

6.13. Aksiyadorlar mazkur Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladilar.

7. JAMIYAT FOYDASINI, DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH VA ZARARNI QOPLASH TARTIBI

7.1. Amaldagi qonunchilikka asosan byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan so'ng, Jamiyat fondlariga ajratmalar bajariladi. Taqsimlanmagan foyda Jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan tartibda ishlatiladi.

7.2. Dividendlar Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Jamiyatning buning uchun maxsus mo'ljallangan fondlari hisobidan ham to'lanishi mumkin.

7.3. Dividend Jamiyat sof foydasining aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadigan qismidir.

7.4. Jamiyat aksiyalar bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

7.5. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'lanishi mumkin.

7.6. Dividend aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

7.7. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

7.8. Jamiyatning moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to'qqiz oyi natijalariga ko'ra dividendlar (oralik dividendlar) to'lash to'g'risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

7.9. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash, dividendning miqdori, uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo'lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Jamiyat kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo'yicha dividendlar to'lamaslik to'g'risida, shuningdek Jamiyat ustavida dividend miqdori belgilab qo'yilgan imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'liq bo'lmagan miqdorda dividendlar to'lash haqida qaror qabul qilishga haqli.

7.10. Dividendlar to'lash to'g'risidagi qarorda dividendlar to'lash boshlanadigan va tugaydigan sanalar ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

7.11. Dividendlarni to'lash muddati va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to'lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e'tiboran oltmish kundan kech bo'lmasligi lozim.

7.12. Dividendlarni to'lash chog'ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha, so'ngra oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha belgilangan dividendlarni to'lash uchun yetarli miqdorda foyda mavjud bo'lgan taqdirda Jamiyat mazkur aksiyalarning egalariga dividendlar to'lashni rad etishga haqli emas. Jamiyat rad etgan taqdirda aksiyadorlar dividendlar to'lanishini sud tartibida talab qilishi mumkin. Jamiyat yetarli miqdorda foydaga ega bo'lmagan yoki zarar ko'rib ishlayotgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Jamiyat tomonidan Jamiyatning ana shu maqsad uchun tashkil etilgan zaxira fondi hisobidan va ushbu fond doirasida to'lanishi mumkin. Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlarni olishga bo'lgan teng huquqlariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

7.13. Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo'ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra Jamiyat ixtiyorida qoladi.

7.14. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reyestrda qayd

etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

7.15. Jamiyat quyidagi hollarda dividendlarni to'lash haqida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas:

-Jamiyat ustav fondining hammasi uning ta'sis etilishi chog'ida to'liq to'lab bo'linguniga qadar;

-agar dividendlar to'lanadigan paytda Jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki Jamiyatda shunday belgilar dividendlarni to'lash natijasida paydo bo'lsa;

-agar Jamiyat sof aktivlarining qiymati uning ustav fondi va zaxira fondi summasidan kam bo'lsa.

Ushbu bandda ko'rsatilgan holatlar tugatilgach, Jamiyat hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to'lashi shart.

7.16. Jamiyat dividendlar miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e'lon qiladi.

7.17. Jamiyat imtiyozli aksiyalari bo'yicha ushbu aksiyalar nominal qiymatining 25 (yigirma besh) foizi miqdorida dividendlar to'lanadi.

7.18. Dividendlarni to'lash tartibi va me'yorlari ushbu Ustav, Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi tegishli qarori va (yoki) Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Dividend siyosati" bilan belgilanadi.

7.19. Jamiyatning zararlari qonunchilikda belgilangan tartibda zaxira fondi mablag'lari hisobiga qoplanadi.

8. JAMIYATNING FONDLARI VA SOF AKTIVLARI

8.1. Jamiyat sof foydasi hisobidan:

Zaxira Fondi;

Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan aniqlanadigan, Jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlar tuziladi.

8.2. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Jamiyatning zaxira fondi Jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Jamiyatning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

8.3. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

8.4. Jamiyat Ustav fondining 15 (o'n besh) foizi miqdorda Jamiyat zaxira fondi tuziladi.

8.5. Jamiyat zaxira Fondiga ushbu Ustavning 8.4. bandida belgilangan miqdorga yetguniga qadar har yili sof foydadan 5% miqdorida ajratmalar o'tkazadi.

8.6. Zaxira Fondi to'laligicha yoki qisman sarflanib bo'lgan hollarida, majburiy ajratmalardan tiklanadi.

8.7. Xayriya ishlari, homiylik va boshqa beg'araz yordamlarga Jamiyatning xar yilgi xarajatlari o'tgan yilning sof foydasining 3 foizidan oshmasligi lozim va Jamiyat biznes rejasining ko'rsatkichlari oldingi hisobot yilining sof foyda qismida bajarilgan bo'lsa amalga oshiriladi.

9. JAMIYATNI BOSHQARUV ORGANLARI

9.1. Jamiyatni boshqarish organlari quyidagilardan iborat:

Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi;

Kuzatuv kengashi;

Boshqaruv.

10. JAMIYAT AKSIYADORLARINING UMUMIY YIG'ILISHI

10.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

10.2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini Jamiyat kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib

boradi.

10.3. Jamiyat aksiyadorlarining yillik Umumiy yig'ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Qoida tariqasida, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi har yili iyun oyining ikkinchi yarmida o'tkaziladi.

Jamiyatning bir foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalari aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a'zolariga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqiga ega. Bunday takliflar moliya yili tugaganidan keyin 90 kundan kechiktirmay taqdim etilishi lozim.

10.4. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida Jamiyatning Kuzatuv kengashini saylash to'g'risidagi, Jamiyat Boshqaruv Raisi bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek Jamiyatning yillik hisoboti, ijroiya organi va Kuzatuv kengashining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.

10.5. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

10.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

10.7. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

1) Jamiyat ustaviga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash, Jamiyat ustaviga Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish bundan mustasno;

2) Jamiyatni qayta tashkil etish;

3) Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

4) Jamiyat Kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining soni va tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va a'zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

5) e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

6) Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan so'ng tasdiqlash va unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

7) Jamiyatning ustav fondini kamaytirish;

8) o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish;

9) Jamiyatning ijroiya organini tuzish. Bunda Jamiyat boshqaruv a'zolarini saylash (tayinlash), qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jamiyat ijroiya organining faoliyati tartibini belgilab beruvchi Nizomni tasdiqlash;

10) Jamiyatning yillik hisobotini tasdiqlash, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda Jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

11) Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;

12) Jamiyat Kuzatuv kengashining va Taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va Taftish komissiyasi xulosalarini eshitish;

13) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;

14) aksiyadorning Jamiyat aksiyalari yoki boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olishga doir

imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida qaror qabul qilish;

15) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

16) qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish xaqida qaror qabul qilish;

17) qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish xaqida qaror qabul qilish;

18) dividendlar to'lash to'g'risida qarorni qabul qilish, aksiyalarning har bir toifasi va turi bo'yicha dividend miqdori, to'lov shakli va tartibini belgilash;

19) homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam maksimal miqdorini aniqlash;

20) majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

21) Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdori kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullanganidan so'ng tasdiqlash;

22) qonunchilikda va mazkur Ustavda ko'zda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

10.8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.

10.9. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas, Jamiyatning ijroiya organini tuzish, Boshqaruv raisining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to'g'risidagi masalalarni hal etish bundan mustasno.

10.10. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori, agar Qonun hujjatlarida va ushbu Ustavda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, yig'ilishda ishtirok etayotgan Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalari egasi bo'lmish aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

10.11. Mazkur Ustavning 10.7. bandidagi 1), 2), 3), 5), 13), 17), 18) qismlarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qarorlar, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lmish aksiyadorlarning to'rtidan uch qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

10.12. Ushbu Ustavning 10.7. bandidagi 1) va 20) qismlarda ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan faqat kuzatuv kengashining taklifiga binoan qabul qilinadi.

10.13. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilishga, shuningdek kun tartibiga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

10.14. Agar aksiyador uzrli sababga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etmagan yoki bunday qaror qabul qilinishiga qarshi ovoz bergan bo'lsa, u aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qaror ustidan sudga shikoyat qilishga haqlidir.

10.15. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilingan qarorlar, shuningdek ovoz berish yakunlari amaldagi qonunchilikda va ushbu ustavda nazarda tutilgan tartibda, ushbu qarorlar qabul qilingan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay aksiyadorlar e'tiboriga yetkaziladi.

10.16. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan uch ish kuni oldin shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

10.17. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin, Jamiyatni qayta tashkil etish masalasi ko'rilgan holda yig'ilish o'tkazilishidan 30 kun oldin Jamiyat ning rasmiy veb-saytida, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

10.18. Jamiyat davlat vakilini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yetti kun oldin yozma shaklda xabardor qilishi shart.

10.19. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kundan kam va o'ttiz kundan ko'p etib belgilanishi mumkin emas.

10.20. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) 1 maydan kechiktirmay aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda Jamiyat kuzatuv kengashiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

10.21. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi va Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning yozma talabi asosida o'tkaziladi.

10.22. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishini talab qilayotgan aksiyadorlarga tegishli ovoz beruvchi aksiyalar ulushi bunday talabni ko'rsatish sanasida aniqlanadi.

10.23. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyador aksiyadorlarning umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir.

10.24. Agar Jamiyatning aksiyasi bir nechta shaxsning umumiy ulushli mulkida bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish vakolatlari ularning xohishiga ko'ra umumiy ulushli mulk ishtirokchilaridan biri yoki ularning umumiy vakili tomonidan amalga oshiriladi. Ko'rsatib o'tilgan har bir shaxsning vakolatlari tegishli tarzda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

10.25. Agar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami ellik foizidan ko'proq ovozigga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorumga ega) bo'ladi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami qirq foizidan ko'proq ovozigga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

10.26. Kvorum bo'lmaganligi sababli aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi yigirma kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reyestriga muvofiq aniqlanadi.

10.27. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi. Shuningdek, mazkur yig'ilish bayonnomasida saylangan kuzatuv kengashi a'zosi qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki kuzatuv kengashining qaysi a'zosi mustaqil a'zo ekanligi ko'rsatilishi kerak.

10.28. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishini tashkillashtirish va o'tkazish bilan bog'liq boshqa masalalar amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinadi va Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan «Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida»gi Nizom bilan belgilanadi.

11. JAMIYAT KUZATUV KENGASHI

11.1. Kuzatuv kengashi Qonunchilik va Ustavga muvofiq Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiruvchi masalalarni hal qilishdan tashqari, jamiyat faoliyati ustidan umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

11.2. Kuzatuv kengashi 7 (yetti) nafar a'zodan iborat bo'lib, ularning kamida 2 (ikki) nafari mustaqil a'zo bo'lishi shart. Shuningdek kuzatuv kengashi mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin

bo'lmagan shaxslar doirasi qonun hujjatlariga asosan belgilanadi.

11.3. Jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari Qonunchilik, Ustav va "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizomda ko'rsatilgan tartibda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan 3 (uch) yil muddatga saylanadi.

11.4. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishlari mumkin.

11.5. Kuzatuv kengashi tarkibini shakllantirish tartibi, shuningdek, Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga qo'yiladigan Qonunchilik talablariga qo'shimcha talablar "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizomda belgilanishi mumkin.

11.6. Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi. Bunda, Kuzatuv kengashi o'z raisini Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

11.7. Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi majlislarining kun tartibini tasdiqlaydi, uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

11.8. Kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

11.9. Kuzatuv kengashining majlislari tasdiqlangan yillik kun tartibiga muvofiq o'tkaziladi, shuningdek, qo'shimcha ravishda Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Kuzatuv kengashi a'zosi, ichki audit xizmati, Boshqaruv yoki korporativ maslahatchisining talabiga ko'ra chaqirilishi mumkin.

11.10. Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kquorum Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining 75% (yetmish besh foizi) dan kam bo'lmasligi lozim.

11.11. Kuzatuv kengashi raisining qaroriga binoan, Kuzatuv kengashining majlisi a'zolarining bevosita ishtiroki orqali (shu jumladan videokonferensiya orqali) yoki sirdan (byulletenlar orqali) o'tkazilishi mumkin.

11.12. Kuzatuv kengashi majlisini tegishli materiallar ilova qilingan holda chaqirish to'g'risidagi talab Kuzatuv kengashi raisiga Kuzatuv kengashi majlisining taklif etilayotgan kun tartibini o'z ichiga olgan tegishli yozma xabarnoma yuborish orqali taqdim etiladi. Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashi majlisini chaqirish to'g'risidagi talab kelib tushgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni mobaynida chaqirish (yoki chaqirishni rad etish to'g'risida) to'g'risida qaror qabul qilishi lozim.

11.13. Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan chaqiruv to'g'risida so'rov olingan kundan boshlab 20 (yigirma) ish kunidan kechiktirmay chaqirilishi kerak. Bunday majlisga belgilangan talabni taqdim etgan shaxs albatta taklif etiladi, agarda bunday shaxs Kuzatuv kengashining a'zosi bo'lmasa.

11.14. Kuzatuv kengashining raisi, quyidagi holatlardan tashqari, Kuzatuv kengashining majlisini chaqirishni rad etishga haqli emas:

majlis chaqirish to'g'risidagi talab qonunchilikka yoki ushbu Ustavga zid bo'lsa;

Kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilayotgan shaxsda bunday talab etish huquqi mavjud bo'lmasa;

agar Kuzatuv kengashi ko'rib chiqish uchun taklif qilingan barcha masalalarni hal qilish Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatiga kirmasa.

11.15. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va (yoki) Kuzatuv kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarining o'rni qoplanishi mumkin.

11.16. Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

1) Jamiyat rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilyotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat

faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

2) Jamiyat aksiyadorlarining yillik va navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunchilikda ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno;

3) Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

4) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

5) Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlari reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

6) Ushbu Ustavning 10.7. bandidagi 1) va 18) qismlarida ko'rsatilgan masalalarni hal etishni aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga kiritish;

7) Mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

8) Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish masalalarni va Jamiyat ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish, shuningdek tegishli xujjatlarni (aksiyalar chiqarish to'g'risidagi qaror va emissiya risolasi) tasdiqlash;

9) Avval ro'yhatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilish;

10) Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va jamiyatning kuzatuv kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun kuzatuv kengashi a'zolari orasidan qo'mitalar tashkil etilishi mumkin.

Aksiyalari fond birjasining birja kotirovkasi varag'iga kiritilgan jamiyat faqat mazkur jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan tarkib topgan audit qo'mitasini tashkil etishi shart. Jamiyatning ichki audit xizmati, agar bunday xizmat mavjud bo'lsa, o'z faoliyatida audit qo'mitasiga hisobdordir.

Qo'mitalarni shakllantirish va ularning ishlash tartibi, soni va tarkibi jamiyatning kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomda belgilanadi.

11) Aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;

12) Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay tasdiqlanishi lozim;

13) Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

14) Qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

15) Jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

16) Jamiyat boshqaruvi a'zolarini (boshqaruv raisidan tashqari) lavozimga tayinlash ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

17) Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorini ma'qullash;

18) Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

19) Jamiyatning ichki audit xizmatini tashkil etish, uning xodimlarini tayinlash va ichki audit xizmati to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

20) Jamiyatning ijroiya organi faoliyatiga daxldor har qanday hujjatdan erkin foydalanish va ijroiya organidan Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ularni olish. Olingan hujjatlardan Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari faqat xizmat maqsadlarida foydalanishlari mumkin;

21) Dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

22) Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish xaqida qaror qabul qilish (yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Jamiyat kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra

aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqilishi mumkin);

23) Jamiyatning zaxira fondi va boshqa fondlaridan foydalanish;

24) Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish xaqida qaror qabul qilish;

25) Jamiyatning filiallarini tashkil etish hamda vakolatxonalarini ochish va tugatish;

26) Jamiyatning sho'ba va tobe korxonalarini tashkil etish;

27) Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

28) Tashkiliy tuzilmani ishlab chiqish, joriy etish va muntazam baholanishi bo'yicha ishlarning qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq tarzda amalga oshirilishini muvofiqlashtirish hamda ma'qullash;

29) homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash hamda bu borada qaror qabul qilish huquqini faqat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, mazkur ustavda va qonun hujjatlarida belgilangan doirada, bu haqda barcha aksiyadorlar uchun ma'lumotlarni oshkor etgan tarzda beradi;

30) Korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlov asosida o'tkazish;

ushbu Ustav va amaldagi qonunchilikka muvofiq Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni ham hal etish.

11.17. Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z ishini amaldagi qonunchilik, ushbu Ustav va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlangan "Kuzatuv Kengashi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiradi.

11.18. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyat Ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

11.19. Jamiyat boshqaruvi a'zolari va boshqaruv Raisi Jamiyatning kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

11.20. Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari bo'lishi mumkin emas.

11.21. Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar aksiyadorlar Umumiy yig'ilishida tasdiqlangan "Jamiyat Kuzatuv kengashi tug'risida"gi Nizomida belgilab qo'yiladi.

11.22. Jamiyat Kuzatuv kengashida Davlatning ishonchli vakilining faoliyati amaldagi qonunchilikka asosan amalga oshiriladi.

11.23. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

11.24. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlari soni Jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ularni ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqlidir. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

11.25. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengash a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

11.26. Jamiyat Kuzatuv kengashi o'z raisini jami a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qayta saylashga haqlidir.

11.27. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishlarida raislik qiladi.

11.28. Jamiyat Kuzatuv kengashi Raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengash a'zolaridan biri bajarib turadi.

11.29. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislari uning Raisi tomonidan har chorakda kamida bir marta chaqiriladi. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining Raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, shuningdek talabiga ko'ra chaqiriladi:

- Kuzatuv kengash a'zolarining;

- Jamiyat ijroiya organi a'zosining;

- Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador);

- ichki audit xizmati boshlig'ining;

- Jamiyatning bir foizdan kam bo'lmagan oddiy aksiyalari egalarining (kun tartibi, foydani taqsimlash, boshqaruv va nazorat organi a'zoriga ularning nomzodini (umumiy yig'ilish o'tkazilgunga qadar almashtirish imkoniyati bilan) ko'rsatish yuzasidan taklif kiritish huquqi taqdim etiladi);

- qonunchilikda va mazkur Ustavda ko'rsatilgan boshqa hollarda.

11.30. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Mazkur Ustavning 4.7- bandida va 11.2-bandining 8), 13), 23), 25) qismlarida ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan (yakdillik bilan) qabul qilinadi.

11.31. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Ushbu Ustavning 11.2. bandida nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo'lgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

11.32. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashning boshqa a'zosiga berishga haqli emas.

11.33. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan holda, Jamiyat Kuzatuv kengashi Raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi.

11.34. Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlari bilan Jamiyat aksiyadorlari tanishtirilishi mumkin. Jamiyat aksiyadorlari Jamiyatning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlari bilan ham tanishishlari mumkin.

11.35. Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

11.36. Jamiyat kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng o'n kundan kechiktirmay tuziladi.

11.37. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanaadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

11.38. Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning ijroiya organiga kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

11.39. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra, Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davrda haq to'lanishi va kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlari qoplanishi mumkin. Bunday haq va to'lovlarning miqdori aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilab qo'yiladi.

11.40. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari, o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.

11.41. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyat va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo'ladilar.

11.42. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi, qonunchilikda ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.

12. BOSHQARUV

12.1. Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish kollegial ijroiya organi – Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi.

12.2. Boshqaruv 5 (besh) nafar a'zodan tashkil topadi.

12.3. Boshqaruvga aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan tayinlanadigan Boshqaruv raisi rahbarlik qiladi. Boshqaruv raisi Jamiyat nomidan ishonchnomasiz harakat qiladi.

12.4. Boshqaruv raisi hamda boshqaruv a'zolari bilan shartnoma (kontrakt) Jamiyat nomidan Kuzatuv kengashi raisi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan imzolaniadi.

12.5. Boshqaruv raisi vakolatlari muddatidan oldin tugatilganda Boshqaruv raisi tayinlanadigan navbatdagi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkazilgunga qadar bo'lgan davrda uning vazifalari Kuzatuv kengashi qarori bilan belgilangan shaxs tomonidan vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi.

12.6. Boshqaruv raisi vakolatlariga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi va Ustavning 12.30-bandida bilan Boshqaruv vakolatlariga kiritilgan masalalardan tashqari Jamiyatning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish bo'yicha barcha masalalar kiradi. Jamiyat Boshqaruvi tarkibiga Boshqaruv Raisi va uning o'rinbosarlari hamda yuridik bo'lim boshlig'i kiradi.

12.7. Jamiyat Boshqaruvi kollegial ijroiya organ asosidagi ijro etuvchi organ hisoblanib, uning kundalik faoliyatini boshqaradi va operativ rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyat Ustavi, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlariga muvofiq amalga oshiradi.

12.8. Jamiyat Boshqaruvi aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

12.9. Jamiyat Boshqaruv a'zolari tayinlash "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 79-moddalariga muvofiq qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida amalga oshiriladi. Jamiyat Boshqaruv a'zolari tayinlash aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan 3 yil muddatga tanlov asosida lavozimga tayinlanadi.

12.10. Jamiyat Boshqaruv a'zolari Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan qonunchilikda va mazkur Ustavda belgilangan tartibda 3 yillik muddatga saylanadilar (tayinlanadilar). Bunda surunkasiga ikki muddatdan ortiq ijro organi rahbari bo'lishi mumkin emas.

12.11. Jamiyat xodimlari mazkur Ustavga va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Jamiyat Boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomasini tuzadilar.

12.12. Jamiyat Boshqaruvinin vakolatlariga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining mutlaq vakolatlariga yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

12.13. Jamiyat Boshqaruvi aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etadi.

12.14. Jamiyat Boshqaruvi ushbu Ustav va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "Boshqaruv to'g'risida"gi Nizom asosida ish olib boradi

12.15. Jamiyat Boshqaruvinin majlisi zarur hollarda, biroq bir oyda kamida bir marta o'tkaziladi.

12.16. Jamiyat Boshqaruvi majlisi uning kun tartibiga kiritilgan masalalarni, agar majlisda

Boshqaruv a'zolarining 50 foizidan ortiq qismi qatnashsa, hal qilishga haqlidir.

12.17. Jamiyat Boshqaruvi majlisida qarorlar majlisida qatnashayotgan Boshqaruv a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Boshqaruv majlisida masalalar hal etilayotganda Boshqaruvning har bir a'zosi bitta ovozga ega. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda Jamiyat Boshqaruvi Raisining ovozi hal etuvchi hisoblanadi. Mazkur ustavning 12.20. bandining m) qismida ko'rsatilgan masala bo'yicha qaror majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Boshqaruvi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

12.18. Jamiyat Boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorga rozi bo'lmagan Boshqaruv a'zolari o'z fikrlarini Jamiyat Kuzatuv Kengashiga bildirishlari mumkin.

12.19. Boshqaruv majlisida bayonnoma yuritiladi. Bayonnoma majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Boshqaruv a'zolari tomonidan imzolalanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi. Boshqaruv majlisining bayonnomasi Kuzatuv Kengashi a'zolariga, shuningdek auditorga ularning talabiga ko'ra beriladi.

11.20. Jamiyat Boshqaruvining majburiyatlari va vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- a. O'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol –mulki va pul mablag'larini tassaruf etish;
- b. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash;
- c. Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining yoki Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;
- d. To'rt nafardan kam bo'lmagan Boshqaruv a'zolarining roziligi bo'lgan xollarda kuchga kiradigan Jamiyat va uning shu'ba korxonalari, vakolatxonalari va filiallari uchun majburiy bo'lgan qaror, buyruq va farmoyishlar chiqarish;
- e. Jamiyat filiallari va vakolatxonalari nizomlarini tasdiqlash va ularga o'zgaritirish va qo'shimchalar kiritish;
- f. Jamiyat ishtiroki ulushi bo'lgan korxonalar ta'sis hujjatlarini tasdiqlash bo'yicha qarorlar qabul qilish, shuningdek o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;
- g. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali harakatini ta'minlash;
- h. Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalari ishlab chiqish, ularni tashkil etish va bajarilishini nazorat qilish;
- i. Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash;
- j. Qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, zarur holati va ishonchliligini, yillik hisobotlar va boshqa moliyaviy hisobotlar tegishli organlarga o'z vaqtida taqdim etilishini, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash;
- k. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlar Jamiyatning Kuzatuv kengashi va Jamiyat auditori talabiga ko'ra taqdim etish;
- l. O'z vakolati doirasida mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim tuzish (bitim tuzish masalasida Jamiyat Boshqaruvi yakdilligiga erishilmagan hollarda bitim tuzish to'g'risidagi masala Jamiyat boshqaruvi qaroriga muvofiq Kuzatuv kengashi hukmiga havola etilishi mumkin);
- m. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxati Jamiyat Boshqaruvi tomonidan belgilanadi;
- n. O'z vakolatiga tegishli ishlarning holati to'g'risidagi axborotni aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga va Jamiyat Kuzatuv kengashiga belgilangan muddatda taqdim etish;
- o. Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishida va Kuzatuv kengashi majlislarida qatnashish, dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish;
- p. O'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash;
- q. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya

qilish;

r. Jamiyatning Boshqaruvi qonunchilik, ushbu ustav va Jamiyatning me'yoriy xujjatlariga muvofiq boshqa xuquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin

12.21. Jamiyatning Boshqaruv raisining majburiyatlari va vakolatlariga quyidagilar kiradi:

O'zining vakolatlari doirasida Jamiyatning ishiga rahbarlik qilish;

Jamiyat Kuzatuv kengashining roziligiga ko'ra uning ishida maslahat ovozi bilan ishtirok etadi;

Davlat statistika hisoboti va buxgalteriya xisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlaydi;

Jamiyatni malakali kadrlar bilan ta'minlaydi, Jamiyat xodimlarining bilimi, malakasi, tajribasi va qobiliyatlaridan eng yaxshi foydalanish choralari ko'radi;

Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ular mehnatini muhofaza qilishni ta'minlaydi;

Shtatlarni belgilaydi, xodimlarning shtat ro'yhatini tasdiqlaydi;

Jamiyatning filiallari va vakolatxonalari raxbarlarini lavozimga taynlandi va lavozimdan ozod etadi;

Jamiyat filiallari va vakolatxonalari shtat jadvallarini tasdiqlaydi;

Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, davlat muassasalari, barcha mulk shakllaridagi korxona va tashkilotlarda uning manfaatlarini himoya qiladi;

Banklarda hisob raqamlar shu jumladan valyuta hisob raqamlarini ochadi va Jamiyatning bank va boshqa moliya xujjatlarida birinchi imzo vakolatiga ega bo'ladi.

O'zining vakolatlari doirasida, Jamiyat mijozlari, korxona va tashkilotlar bilan shartnomalar va kontraktlarni imzolaydi va bitimlar tuzadi;

Jamiyat xodimlarini ishga qabul qiladi, ular bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi, ularga nisbatan intizomiy jazo va rag'batlantirish choralari qullaydi, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlaydi;

Jamiyat nomidan amaldagi qonunchilikka asosan ishonchnomalarni beradi;

Jamiyat va uning shu'ba korxonalari, vakolatxonalari va filiallari uchun majburiy bo'lgan buyruq va farmoyishlar chiqaradi, topshiriq va ko'rsatmalar beradi;

Jamiyat Boshqaruvi raisi, qonunchilik, ushbu Ustav va Jamiyatning me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa huquq (vakolat) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

12.22. Jamiyat Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z burchlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari lozim.

12.23. Jamiyat Boshqaruv raisi va a'zolari Jamiyat va uning aksiyadorlari oldidagi o'z majburiyatlarini zarur darajada bajarmaganliklari uchun qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga muvofiq javobgar bo'ladilar.

12.24. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

12.25. Boshqaruv Raisini lavozimidan bo'shatish (vakolatini tugatish) haqidagi qaror qonunchilikda belgilangan tartibda Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yigilish qarori bilan amalga oshiriladi.

12.26. Boshqaruv a'zolarini lavozimidan bo'shatish (vakolatini tugatish) haqidagi qaror Jamiyat Kuzatuv Kengashi tomonidan qabul qilinadi.

12.27. Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari tomonidan ushbu Ustav va mexnat shartnomasi shartlari qo'pol ravishda buzilsa, yoxud Jamiyat biznes-rejasining tasdiqlangan ko'rsatgichlarni bajarilishi buzilgan hollarda va ularning harakatlari (harakatsizligi) natijasida Jamiyatga keltirilgan zararlari sababli ular bilan tuzilgan mexnat shartnomasi qonunchilikda belgilangan tartibda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

12.28. Jamiyat Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zolari vakolatlari muddatidan ilgari

tugatilgan holda ularning vazifasini vaqtincha bajarishni Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq tayinlangan shaxs olib borishi mumkin.

12.29. Aksiyadorlarning vakili sifatida xarakat qilayotgan ijro organi a'zolari ijro organi a'zolarini saylash masalalari bo'yicha ovoz berishga haqli emas.

12.30. Boshqaruv qo'mitalarini shakllantirish tartibi, faoliyati va tarkibi shuningdek, ularning Boshqaruv va Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlik tartibi Boshqaruv tomonidan tasdiqlanadigan tegishli Nizomlar bilan belgilanadi.

13. JAMIYATNING MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

a) Ichki audit xizmati

13.1. Jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati Jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir. Ichki audit xizmati a'zolarining soni va shaxsiy tarkibi amaldagi qonunchilik bilan belgilangan tartibda tashkil etiladi.

13.2. Ichki audit xizmati Jamiyatning ijroiya organi, vakolatxonalari va filiallari tomonidan qonun hujjatlariga, ta'sis hujjatlari va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda to'g'ri aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib- taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish va bu borada monitoring olib borish orqali Jamiyatning ijroiya organi, vakolatxonalari va filiallari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi. Shuningdek Ichki audit xizmati jamiyatdagi ichki nazoratni, shu jumladan, 50 foizdan ziyod ulushi Jamiyatga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar bilan o'tkazilgan operatsiyalar ustidan nazoratni amalga oshiradi.

13.3. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

b) Auditorlik tashkiloti

13.4. Auditorlik tashkiloti Jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiradi va unga auditorlik xulosasi taqdim etadi.

13.5. Auditorlik tashkiloti jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborot haqidagi noto'g'ri xulosani o'z ichiga olgan auditorlik xulosasi tuzilganligi oqibatida yetkazilgan zarar uchun jamiyat oldida javobgar bo'ladi.

14. JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

14.1. Jamiyatni qayta tashkil etish (jumladan: qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish) va tugatish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori asosida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

14.2. Jamiyatni qayta tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 49-52 moddalari, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 92-97 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

14.3. Jamiyatning tugatilishi huquq va majburiyatlarni huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tkazmagan holda Jamiyat faoliyatini tugatishga sabab bo'ladi.

14.4. Jamiyat quyidagi hollarda tugatiladi:

- Ixtiyoriy ravishda, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sud qaroriga asosan;
- amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sabablarga asosan;

Jamiyatni tugatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 53 – 56 moddalari, shuningdek "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 98 – 101 moddalariga muvofiq amalga oshiriladi.

14.6. Jamiyatni tugatish to'g'risidagi qaror qabul qilinganidan so'ng Jamiyat

aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi Tugatuvchini tayinlaydi.

14.7. Jamiyat tugatilyotganda davlat Jamiyatning aksiyadori bo'lgan taqdirda, tugatish komissiyasi tarkibiga davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organning vakili kiritiladi.

14.8. Tugatuvchi tayinlangan vaqtdan boshlab unga Jamiyat ishlarini boshqarish vakolatlari o'tadi.

14.9. Tugatuvchi:

-Tugatuvchi Jamiyatning tugatilishi haqida, shuningdek uning kreditorlari tomonidan talablarni bayon etish tartibi va muddatlari to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi. Kreditorlar tomonidan talablar taqdim etish uchun muddat Jamiyatning tugatilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran ikki oydan kam bo'lmasligi lozim.

-kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarini olish chora-tadbirlarini ko'radi, shuningdek kreditorlarni Jamiyatning tugatilishi to'g'risida yozma ravishda xabardor qiladi;

-Jamiyatning mol-mulkini baholashni tashkil etadi.

14.10. Agar tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan paytga kelib Jamiyat kreditorlar oldida majburiyatlarga ega bo'lmasa, uning mol-mulki qonunchilikka muvofiq aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

14.11. Kreditorlarning talablar qo'yishi uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin tugatuvchi oraliq tugatish balansini tuzadi, mazkur balansda tugatilayotgan Jamiyat mol-mulkining tarkibi, kreditorlar tomonidan taqdim etilgan talablar, shuningdek ularni ko'rib chiqish natijalari haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Oraliq tugatish balansini tugatilayotgan Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

14.12. Agar Jamiyat tugatilayotganda mavjud pul mablag'lari kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun yetarli bo'lmasa, tugatuvchi Jamiyatning mol-mulkini sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda kim oshdi savdosida sotishni amalga oshiradi.

14.13. Tugatilayotgan Jamiyat kreditorlariga pul summalarini to'lash Tugatuvchi tomonidan oraliq tugatish balansiga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida mazkur balans tasdiqlangan kundan e'tiboran amalga oshiriladi.

14.14. Kreditorlar bilan hisob-kitob qilib bo'linganidan keyin Tugatuvchi tugatish balansini tuzadi. Bu balans aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

14.15. Tugatuvchi ushbu moddada nazarda tutilgan tartib-taomillar tugallanganidan keyin Jamiyat qimmatli qog'ozlari chiqarilishlarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini bekor qilish yuzasidan zarur tadbirlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiradi.

14.16. Jamiyat imtiyozli aksiyalarining tugatish qiymatining miqdori ushbu imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatiga teng.

14.17. Kreditorlar bilan hisob-kitob qilib bo'linganidan keyin Jamiyatning qolgan mol-mulki tugatuvchi tomonidan aksiyadorlar o'rtasida quyidagi navbat bo'yicha taqsimlanadi:

birinchi navbatda qonun hujjatlariga muvofiq qaytarib sotib olinishi lozim bo'lgan aksiyalar bo'yicha to'lovlar amalga oshiriladi;

ikkinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo'yicha hisoblangan, biroq to'lanmagan dividendlarni va ushbu Ustavning 14.16. bandida belgilangan imtiyozli aksiyalar bo'yicha tugatish qiymatini to'lash amalga oshiriladi;

uchinchi navbatda tugatilayotgan Jamiyatning mol-mulkini oddiy aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlar o'rtasida taqsimlash amalga oshiriladi.

14.18. Mol-mulkni har bir navbat bo'yicha taqsimlash avvalgi navbat bo'yicha mol-mulk to'liq taqsimlab bo'linganidan keyin amalga oshiriladi.

14.19. Agar Jamiyatdagi mavjud mol-mulk hisoblangan, biroq to'lanmagan dividendlarni va Jamiyat ustavida belgilangan tugatish qiymatini imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan barcha aksiyadorlarga to'lash uchun yetarli bo'lmasa, mol-mulk imtiyozli aksiyalarning egalari bo'lgan

aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalarning soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

14.20. Mol-mulkni tugatish qiymatining chet ellik investor bo'lgan aksiyadorga o'tkaziladigan qismini Jamiyat xorijiy valyutaga ayirboshlab berishi shart.

14.21. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga tegishli yozuvni kiritgan paytdan e'tiboran Jamiyatni tugatish tamomlangan, Jamiyat esa faoliyatini tugatgan deb hisoblanadi.

14.22. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ Jamiyat tugatilganligi haqidagi tegishli yozuvni faqat Jamiyatning qimmatli qog'ozlari chiqarilishlari davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi bekor qilinganidan keyingina kiritadi.

15. USTAVGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

15.1. Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi va o'z vakolatlari doirasida Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyat Ustaviga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasining tegishli Davlat organida belgilangan tartibda ro'yxatga olinadi.

15.2. Jamiyat ustaviga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, qonunchilikda belgilangan hollarda esa davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ xabardor etilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

15.3. Agar mazkur Ustavni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.

15.4. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida mazkur ustavda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari qoidalari qo'llaniladi.

**“UZGASTRADE” АЖ
ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИ ТЎҒРИСИДАГИ
НИЗОМ**

Тошкент-2024

М У Н Д А Р И Ж А

1. Умумий қоидалар.
2. Ички аудит хизматининг асосий вазифалари ва функциялари.
3. Ички аудит хизматининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари.
4. Ички аудит хизматига қўйиладиган талаблар.
5. Ички аудит хизматининг мустақиллиги.
6. Ички аудит ўтказишга ва уни ўтказиш натижалари бўйича йиғма ҳисобот тузишга қўйиладиган талаблар.
7. Ички аудит хизматининг жавобгарлиги.
- 8 Якуний бўлим.

I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

1. Мазкур Низом Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонунига, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2006 йил 26 октябрдаги “Устав фондида давлат улуши бўлган Жамиятларнинг самарали бошқарилишини давлат мулкисининг зарур даражада ҳисобга олинишини таъминлаш чоратадбирлари тўғрисида”ги 215- сонли қарорига мувофиқ ишлаб чиқилган ва “UzGasTrade” АЖ ички аудит хизматини ташкил қилиш ягона талабларини белгилайди, шунингдек, унинг ишини ташкил этишнинг услубий асосларини белгилайди.

2. Мазкур Низом мақсадлари учун қуйидаги тушунчалардан фойдаланилади:

“UzGasTrade” акциядорлик жамият (кейинги ўринларда Жамият);

Кузатув кенгаши – жамият бошқарув органи;

Ижроия органи жамият бошқарув органи;

Ички аудит - Жамият бошқарувининг ижро этувчи органи ва таркибий бўлинмалари томонидан Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларига, таъсис ҳужжатларига ва ички ҳужжатларга риоя қилинишини текшириш ва мониторинг олиб бориш йўли билан улар ишини назорат қилиш ва баҳолаш, маълумотларнинг бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисоботда акс эттирилишининг тўлиқлиги ва ишончлилигини таъминлаш, хўжалик операцияларини амалга оширишнинг белгиланган қоидалари ва таомиллари, активларнинг сақланиши ҳамда корпоратив бошқариш принциплари жорий этилиши бўйича Жамият таркибий бўлинмасининг (ички аудит хизмати) фаолияти;

ички аудит хизмати — мазкур Низом талаблари ҳисобга олинган ҳолда Жамият Кузатув кенгашининг қарори билан ташкил этиладиган Жамиятнинг ички аудитни амалга оширадиган таркибий бўлинмаси.

II. ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ ВА ФУНКЦИЯЛАРИ

3. Қуйидагилар ички аудит хизматининг асосий вазифалари ҳисобланади: кузатув кенгаши ишончли ахборот билан таъминлаш ва ички аудит амалга оширилиши натижалари бўйича Жамият фаолиятини такомиллаштиришга доир таклифларни тайёрлаш;

ички аудит жараёнида аниқланадиган камчиликларни бартараф этиш юзасидан Жамият бошқарув органларига тавсияларни тезкорлик билан киритиш, уларнинг бартараф этилишини назорат қилиш.

4. Қуйидагилар ички аудит хизматининг асосий функциялари ҳисобланади:

ҳар йили Жамиятнинг кузатув кенгаши томонидан тасдиқланадиган режага мувофиқ мазкур Низомнинг 12-бандида кўрсатилган йўналишлар бўйича тегишли текширишлар ўтказиш йўли билан ички аудитни амалга

ошириш (ҳар чоракда ва ҳисобот йили якунлари бўйича);

тузиладиган ҳўжалик шартномаларининг қонунчиликка мувофиқлиги юзасидан экспертиза ўтказиш;

бухгалтерия ҳисобини юритишда ва молиявий ҳисоботни тузишда Жамиятнинг таркибий бўлинмаларига методик ёрдам бериш, уларга молия, солиқ, банк қонунлари ва бошқа қонунчилик масалалари бўйича маслаҳатлар бериш;

техник топшириқларни ишлаб чиқишда, аудиторлик ташкилотларининг таклифларини баҳолашда ҳамда аудиторлик текширишларини ўтказиш учун аудиторлик ташкилотини танлашда тавсияларни тайёрлашда Жамиятнинг кузатув кенгашига кўмаклашиш;

Жамиятнинг шўба ҳўжалик жамиятлари ички аудит хизмати фаолиятини мувофиқлаштириш ва заруратга қараб уларнинг молия-ҳўжалик фаолиятини назорат қилиш.

III. ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ

5. Ички аудит хизмати қуйидаги ҳуқуқларга эгадир:

ички аудитни амалга ошириш давомида пайдо бўладиган масалалар бўйича Жамиятнинг ҳужжатларини (раҳбарнинг буйруқлари, фармойишлари, бошқарув органлари қарорлари, маълумотномалар, ҳисоб-китоблар, зарур ҳужжатларнинг тасдиқланган нусхалари ва бошқа ҳужжатларни), Жамият мансабдор ва масъул шахсларидан оғзаки ва ёзма тушунтиришлар олиш;

ички аудитни ўтказишга кўмаклашиш учун Жамиятнинг тегишли мутахассисларини жалб этиш.

Ички аудит хизмати қуйидагиларга мажбур:

ички аудитни амалга оширишда мазкур Низом ва бошқа қонунчилик талабларига риоя қилиш;

мазкур Низомнинг 13—18-бандларида белгиланган талабларга мувофиқ ҳисоботлар тузиш;

молия ва статистика ҳисоботи кўрсаткичларининг ишончлилигини текшириш;

ички аудитни амалга оширишда олинган ахборотнинг махфийлигига риоя қилиш;

Жамиятга унинг мансабдор шахслари ва бошқа ходимлари томонидан зарар етказилганидан далолат берувчи ҳолатлар аниқланган тақдирда бу ҳақда дарҳол Жамиятнинг кузатув кенгашига хабар бериш ва аудиторлик ҳисоботида тегишли ёзувни қайд этиш;

активларни хатловдан ўтказишда ва қонунда белгиланган тартибда унинг ўз вақтида амалга оширилишини назорат қилишда иштирок этиш.

Ички аудит хизмати қонунчиликка ва Жамиятнинг таъсис ҳужжатларига мувофиқ бошқа мажбуриятларга ҳам эга бўлиши мумкин.

IV. ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

6. Ички аудит хизмати ходимлари Жамиятнинг штатлар жадвалига

киритилиши ва ички аудитор сертификатига эга бўлиш шарт.

61. Ички аудит хизмати ходимлари Жамият кузатув кенгаши ёки муассис (акциядорлар умумий йиғилиши, иштирокчилар умумий йиғилиши) томонидан белгиланадиган тартиб ва шартларга асосан танлов асосида тайинланади.

7. Ички аудит хизмати ходимларининг сони ички аудит мақсадларига самарали эришиш ва вазифаларини ҳал этиш учун етарли бўлиши керак ҳамда Жамиятнинг кузатув кенгаши томонидан сертификацияланган икки нафардан кам бўлмаган ички аудитордан иборат этиб белгиланади.

8. Ички аудит хизматига ички аудитор сертификатига эга бўлган унинг раҳбари бошчилик қилади.

Ҳар йили ички аудит хизмати раҳбари ички аудит хизмати харажатларининг йиллик сметасини тузади ва уни тасдиқлаш учун Жамиятнинг кузатув кенгашига тақдим этади.

9. Ички аудит хизмати ходимларининг касб даражаси тегишли лицензияга эга бўлган таълим муассасаларида мунтазамлилик асосида уларнинг малакасини ошириш воситасида сақланиши керак.

10. Ички аудит хизмати ходимлари Жамият кузатув кенгаши томонидан ҳар йили аттестациядан ўтказилиши керак.

V. ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИНИНГ МУСТАҚИЛЛИГИ

11. Қуйидагилар ички аудит хизмати мустақиллигининг асосий шартлари ҳисобланади:

ички аудит хизмати раҳбарини ва унинг ходимларини лавозимга тайинлаш ва эгаллаб турган лавозимидан озод этиш, Жамият кузатув кенгашининг қарорлари бўйича уларга иш ҳақи миқдорини ва бошқа тўловларни белгилаш; Жамият кузатув кенгашига бевосита бўйсунуш.

Ички аудит хизмати ва ташқи аудитор бир-бирларига нисбатан мустақил бўлишлари лозим, шунингдек, ўзаро ахборот алмашишга ва ўзларининг ҳаракатларини мувофиқлаштиришга ҳақли.

VI. ИЧКИ АУДИТ ЎТКАЗИШГА ВА УНИ ЎТКАЗИШ НАТИЖАЛАРИ БЎЙИЧА ЙИҒМА ҲИСОБОТ ТУЗИШГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

12. Ички аудит:

тасдиқланган бизнес-режа бажарилишини;

корпортив бошқариш принципларига риоя қилилишини;

бухгалтерия ҳисоби ва молиявий ҳисобнинг ҳолатини;

солиқлар ва йиғимлар тўғри ҳисоблаб чиқилиши ва тўланишини;

молия-хўжалик фаолиятини амалга оширишда қонунчиликка риоя этилишини;

активларнинг ҳолатини;

ички назоратнинг ҳолатини текшириш ва уларнинг мониторингини олиб бориш йўли билан фақат ички аудит хизмати ходимлари томонидан амалга оширилади.

Кузатув кенгаш томонидан Жамият ихтисосидан келиб чиқиб

қонунчиликка мувофиқ текширишни ўтказишнинг бошқа йўналишлари белгиланиши мумкин.

13. Ўтказилган текширишлар натижалари бўйича бевосита уни ўтказган ходим (ходимлар) томонидан имзоланадиган тегишли ҳисоботлар тузилади.

Бунда:

а) бизнес-режа бажарилишини текшириш натижалари тўғрисидаги ҳисобот қуйидагиларни ўз ичига олиши керак:

унинг бажарилишининг миқдор ва сифат кўрсаткичлари таҳлили;

унинг бажарилиши таъминланмаган тақдирда айбдор мансабдор шахслар шахсан кўрсатилган ҳолда аниқланган сабаблар баёни;

б) корпоратив бошқариш принципларига риоя қилишни текшириш натижалари тўғрисидаги ҳисобот қуйидагиларни ўз ичига олиши керак:

Жамият бошқарув органлари томонидан қабул қилинадиган қарорларнинг самаралилиги, унинг қатнашчилари (муассислар)нинг қонуний ҳуқуқ ва манфаатларига риоя этилиши таҳлили;

корпоратив бошқариш соҳасида қонунчилик бузилиши ҳолатлари баёни (таъсис ҳужжатларига риоя қилиш, умумий йиғилишлар ва Жамият бошқарув органлари мажлислари ўтказилиши, дивидендлар тўғри ҳисобланиши ва ўз вақтида тўланиши ва ҳоказолар);

в) Жамиятнинг бухгалтерия ҳисоби ва молия ҳисоботи ҳолатини текшириш натижалари тўғрисидаги ҳисобот қуйидагиларни ўз ичига олиши керак:

бухгалтерия ҳисобини юритиш ва молия ҳисоботини тузишнинг белгиланган тартибига риоя қилинишини баҳолаш;

аниқланган бухгалтерия ҳисоботини юритиш ва молиявий ҳисоботни тайёрлашнинг белгиланган тартиби бузилишининг тавсифи;

г) солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар тўғри ҳисобланиши ва тўланишини текшириш натижалари тўғрисидаги ҳисобот қуйидагиларни ўз ичига олиши керак:

тузилган ва тегишли органларга тақдим этилган солиқлар ва мажбурий тўловлар ҳисоб-китоби тўғрилигини баҳолаш;

солиқлар ва мажбурий тўловларни ҳисоблаш ва тўлашнинг белгиланган тартиби бузилиши ҳолатларини, солиқ солинадиган базани белгилашда четга чиқишларни баён қилиш;

д) молия-хўжалик операцияларини амалга оширишда Жамият томонидан қонунчиликка риоя қилинишини текшириш натижалари тўғрисидаги ҳисобот қуйидагиларни ўз ичига олиши керак:

Жамият томонидан амалга оширилган молия-хўжалик операцияларининг қонунчиликка мувофиқлигини баҳолаш;

ички аудит давомида аниқланган Жамият томонидан амалга оширилган молия-хўжалик операцияларининг қонунчиликка номувофиқлигини баён қилиш;

е) ички назоратнинг ҳолатини текшириш натижалари тўғрисидаги ҳисобот

куйидагиларни ўз ичига олиши керак:

ички назорат тизимини ва унинг фаолият кўрсатишидаги мавжуд камчиликларни баён этиш;

Жамият таркибий бўлинмаларидаги ижро интизомининг ҳолати тўғрисидаги маълумотлар, унинг аниқ ходимлари ишидаги мавжуд камчиликлар.

Активларнинг ҳолатини текшириш натижалари активларни хатловдан ўтказишнинг асосланишини ҳамда уларнинг ҳаракати, амалда мавжудлиги ва сақланиши тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олиши керак.

Шунингдек ўтказиладиган текширишлар бўйича барча ҳисоботларда Жамият ижро этувчи органи ва унинг таркибий бўлинмалари фаолияти баҳоланишини, аниқланган четга чиқишлар ва қонунни бузишларни бартараф этишга доир тавсияларни, тасдиқлайдиган ҳужжатларнинг тўлиқ пакетини ўз ичига оладиган якуний қисм бўлиши керак.

14. Ўтказилган ички аудит якунлари бўйича, мазкур Низомнинг 12 ва 13-бандларига мувофиқ, ички аудит раҳбари томонидан имзоланадиган йиғма ҳисобот тузилади.

15. Йиғма ҳисобот:

таҳлилий қисми;

якуний қисми;

тасдиқлайдиган ҳужжатларнинг тўлиқ пакетини ўз ичига олиши керак.

16. Йиғма ҳисоботнинг таҳлилий қисми мазкур Низомнинг 12 ва 13-бандларига мувофиқ, ички аудит ходимлари томонидан ўтказилган текширишлар натижалари тўғрисидаги умумлаштирилган ахборотни ўз ичига олиши керак.

17. Ҳисоботнинг якуний қисми:

Жамиятнинг ижро этувчи органи ва таркибий бўлинмалари фаолиятига, шунингдек ликвидлигига умумий баҳони;

аниқланган четга чиқишлар ва қонунни бузишларни бартараф этиш бўйича ички аудит хизматининг тавсияларини ҳамда Жамиятнинг молия-хўжалик фаолияти самарадорлигини оширишга, корпоратив бошқаришни такомиллаштиришга доир умумлаштирилган таклифларни ўз ичига олиши керак.

18. Йиғма ҳисобот ички аудит якунлангандан кейин 10 кун мобайнида тугалланиши зарур.

19. Йиғма ҳисоботлар бевосита Жамиятнинг кузатув кенгашига унинг кўриб чиқиши ва кейинчалик тасдиқлаши учун тақдим этилиши керак. Ҳисоботлар нусхалари тасдиқлангандан кейин Жамият ижро этувчи органига тақдим этилиши керак.

20. Жамиятнинг ижро этувчи органи ички аудит натижасида аниқланган камчиликларни бартараф этиш чора-тадбирларини кўриши шарт.

21. Ички аудит хизмати текшириш давомида аниқланган қонун бузилишларини бартараф этиш, шунингдек умуман Жамиятнинг молия-

хўжалик фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирларнинг ўз вақтида ва зарур даражада бажарилиши устидан назорат ўрнатиши керак.

VII. Ички аудит хизматининг жавобгарлиги

22. Ички аудит хизмати ходимлари:

ўзлари ўтказган текширишлар натижалари бузиб кўрсатилганлиги;
уларга тақдим этилган ёки улар томонидан хизмат вазифаларининг бажарилиши муносабати билан уларга маълум бўлган Жамиятнинг сирини ташкил этадиган ахборотнинг махфийлигига риоя қилинмаганлиги;

олинган ҳужжатларнинг сақланиши ва қайтарилиши таъминланиши учун жавоб берадилар.

23. Ички аудит хизмати аудиторлик текширишлари давомида аниқланган қонунни бузишларни бартараф этиш ва Жамиятнинг молия-хўжалик фаолияти самарадорлигини ошириш юзасидан кўрилган чора-тадбирларга баҳо берилиши учун жавоб беради.

24. Жамиятнинг кузатув кенгаши ҳар чоракда ички аудит хизматининг текширишлар натижалари тўғрисидаги ҳисоботини эшитади, аниқланган камчиликларни бартараф этиш ва Жамиятнинг молия-хўжалик фаолияти самарадорлигини ошириш юзасидан чора-тадбирлар кўради.

25. Жамиятнинг кузатув кенгаши ички аудит хизмати ходимларини танлов асосида тайинлайди, шунингдек, аудиторлик ёки назорат қилувчи органлар текширувида ички аудит хизмати ходимларининг фаолияти билан боғлиқ камчиликлар аниқланган тақдирда, уларнинг ваколатини муддатидан олдин тугатади.

26. Аудитор ёки назорат қилувчи органлар текшируви натижасига кўра аниқланган Жамият ички аудит хизмати фаолияти билан боғлиқ камчиликлар ички аудит хизмати ходимлари (ходими) ваколатини муддатидан олдин тугатишга олиб келади.

ЯКУНИЙ БЎЛИМ

27. Мазкур Низом Жамият кузатув кенгаши тасдиқлаган кундан бошлаб кучга киради.

28. Агарда Мазкур Низомнинг қоидаларидан бири ўз кучини йиқотса, бу бошқа қоидаларнинг тўхтатилишига сабаб бўлмайди.

29. Агар Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатларида ёки ушбу Низомда назарга тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, унда Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатлари ва жамияти устави қўлланилади.

**“UZGASTRADE” АЖ
АХЛОҚ КОДЕКСИ**

1. Умумий қоидалар

1.1. “UzGasTrade” АЖ (кейиги ўринларда – жамият) Ахлоқ кодекси (кейиги ўринларда – Кодекс) ички ҳужжат бўлиб, умумий ахлоқий тамойиллар ва қадриятларни, шунингдек ходимларнинг ахлоқий ишбилармонлик хатти-ҳаракатларининг ички меъёрларини белгилайди.

2. Ушбу Кодекснинг амал қилиш доираси

2.1. Ахлоқ кодекси меъёрлари жамиятнинг Ижроия органи аъзоларига ва барча ходимларига, шунингдек Кузатув Кенгашининг аъзоларига нисбатан қўлланилади. Жамият ходимлари жамиятнинг ахлоқий меъёрларини бузадиган ҳар қандай фаолият билан шуғулланишлари мумкин эмас.

2.2. Кодексга риоя этилишини таъминлаш учун жамиятга жалб қилинган барча ходимлар ва шахслар унинг қоидалари ва тамойиллари билан тўлиқ танишишлари, жамиятда ташкил этилган зарур тайёргарликдан ўтишлари ва унга риоя қилишлари шарт.

3. Ходимлар ахлоқий меъёрларининг асосий тамойиллари

3.1. Жамият юқори ахлоқий меъёрларни асос қилиб олади ва қуйидаги тамойилларга амал қилади:

3.1.1. *Принципиаллик*: ҳамкасблар ва бошқа манфаатдор шахсларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳурмат қилишга доимий эътибор бериб бориш.

3.1.2. *Адолатлилик*: ҳар қандай мижозлар, етказиб берувчилар ва ходимларга тенг муносабатда бўлиш.

3.1.3. *Шаффофлик*: жамият ходимлари орасида эркин фикр алмашиш/амалий танқид, ҳамкасблар ва мижозларга ҳурмат.

3.1.4. *Профессионаллик*.

4. Кодекс меъёрларининг бузилиши тўғрисида хабар бериш мажбурияти

4.1. Жамият барча ходимлари Кодекс меъёрларининг ҳар қандай ҳақиқий ёки потенциал бузилиши ҳақида виждонан хабар беришга мажбурдирлар. Кодекс меъёрларининг бузулиши ҳақида “Қоидабузарликлар ҳақида хабардор қилиш сиёсати”га мувофиқ хабар бериши лозим.

4.2. Биринчи қадам сифатида ходим ўз муаммоси ҳақида ўзининг бевосита раҳбарига ёки юқори даражадаги раҳбариятга хабар бериши керак. Агар раҳбар билан боғланиб бўлмаса ёки муаммога алоқадор бўлса, ёки агар ходим муаммо ҳақида ўзининг бевосита раҳбарига хабар қилишни истамаса,

кадрлар бўлимига, комплаенс хизматида, зарур ҳолларда Коррупцияга қарши курашиш ва этика қўмитаси раисига хабар бериши лозим.

4.3. Жамият ноўрин хатти-ҳаракатлар ва/ёки хулқ-атвор ҳақида хабар берган барча ходимларнинг ҳимоя қилинишини кафолатлайди. Жамият томонидан бундай ходимларнинг шахси ва ҳуқуқлари ишончли ҳимоя қилинади. Жамият ноўрин хатти-ҳаракатлар ва/ёки хулқ-атвор ҳақида хабар берганлиги учун ҳеч қандай тарзда ҳеч қандай ходимни жазоламайди, ишдан бўшатмайди, лавозимини пасайтирмайди, ишдан четлатмайди ёки камситмайди, шунингдек, ушбу талаб агар ходим потенциал ахлоқсиз хулқ-атвор ҳақида савол берса ёки муайян вазиятда қандай ҳаракат қилиш бўйича тавсия олишни хоҳласа ҳам амал қилади. Аммо, агар инсофсизлик, ифвогарлик, ахборотни манипуляция қилиш ёки бошқа қоидабузарлик исботланадиган бўлса, бундай ҳуқуқбузарлик содир этган ходимга нисбатан интизомий чоралар қўрилади.

4.4. Жамият ушбу Кодекснинг қонун ва қоидаларини бузиш эҳтимолига алоқадор бўлган ходимларга нисбатан текширув ўтказди. Кодекснинг бузилиши ҳолатлари аниқланган тақдирда, ходим амалдаги қонунчиликка мувофиқ жавобгарликка тортилиши мумкин ва унга нисбатан тегишли таъсир чоралари, шу жумладан ишдан бўшатилишгача бўлган интизомий жазолар қўлланилиши мумкин.

5. Ходимларнинг иш жойидаги ахлоқий меъёрлари

5.1. Ходимлар ушбу Кодексда санаб ўтилган тамойилларга доимий равишда риоя қилиниши керак. Барча ходимлар қисқа ва ўрта муддатли фаолият ёки операцияларни бошқаришда компаниянинг узоқ муддатли мақсадларини ёдда тутиб, ўз вазифаларини ахлоқий ва профессионал тарзда бажаришлари лозим.

5.2. Ҳар бир инсон юқори техник стандартларни қўллаб-қувватлаш ҳамда компания ва унинг манфаатдор томонлари манфаатлари йўлида профессионал тажрибадан амалий фойдаланиш учун ўз фаолият соҳасидаги профессионал ютуқлардан хабардор бўлиши керак.

5.3. Иш жойидаги камситиш ва зўравонликка тоқат қилмаслик

5.3.1. Жамият зўравонликка мутлақ тоқат қилмаслик сиёсатини юритади. Жамият иш жойидаги ходимларига нисбатан зарар, жароҳат ёки касалликка олиб келадиган ҳар қандай ҳаракатлар, хулқ-атвор, таҳдидлар ёки имо-ишораларга тоқат қилмайди.

5.3.2. Жамият ходимлари ўртасида хилма-хилликни рағбатлантиради ва ёши, жинси, ирки, фуқаролиги, тили, келиб чиқиши, ижтимоий мавқеи, қарашлари, фикрлари ёки эътиқодлари, ногиронлиги, миллати, дини, шунингдек Ўзбекистон қонунчилигига мувофиқ

химояланган бошқа хусусиятларига кўра камситишнинг ҳар қандай шаклига тоқат қилмайди.

5.4. Меҳнатни муҳофаза қилиш

5.4.1. Жамият Ўзбекистон қонунчилигига мувофиқ ходимлар, етказиб берувчилар ва бошқа манфаатдор томонларнинг саломатлиги ва ҳаёти хавф остида қолмаслиги учун хавфсиз меҳнат муҳитини таъминлаш чораларини кўради. Барча ходимлар меҳнатни муҳофаза қилиш ва хавфсизлик техникаси соҳасида жамиятнинг барча сиёсатлари, қоидалари ва тартиб-таомилларини билишлари ва уларга риоя қилишлари, шу жумладан ҳар қандай шубҳали хавф ҳақида зудлик билан хабар беришлари керак.

5.4.2. Ходимнинг иш жойида ҳар қандай психоактив модданинг, шу жумладан, спиртли ичимликлар ва гиёҳванд моддаларнинг таъсири остида бўлиши қатъиян ман этилади. Ходим иш жойида сезган хавфли хатти-ҳаракатлар ҳақида дарҳол раҳбарга хабар бериши шарт.

5.5. Ходимларнинг ташқи кўриниши

5.5.1. Жамият ходимларининг иш жойида ва иш жойидан ташқарида ўз вазифаларини бажаришда ташқи кўринишига қўйиладиган умумий талабларга бизнес ёки махсус кийим кийиш киради. Кийимлар тоза, озода ва иш фаолияти мақсадига мувофиқ бўлиши керак. Ишга спорт кийими, пляж кийими, очик кийим (шортик, футболка, калта топлар, очик кўйлақлар ва ҳоказо), спорт ёки пляж пояфзаллари (кроссовка, кета, вьетнамка, шиппаклар ва ҳоказо) кийиш мумкин эмас.

6. Ташқи муҳит

6.1. Жамият экологик ва ижтимоий масъулиятли ҳаракатларни компаниянинг барча фаолиятига, шунингдек, бизнесни ривожлантиришнинг муҳим жиҳатларига интеграция қилишга интилади.

6.2. Жамият амалдаги барча қонун ва қоидаларга риоя қилади, шунингдек ўз фаолиятини экологик тоза ва барқарор бошқаришни таъминлаш учун зарур қоидалар, тартиб-таомиллар, фавқулодда вазиятлар чоралари ва бошқарув тизимларини жорий қилади.

6.3. Жамият ижобий ижтимоий-иқтисодий фойда яратиш ва очик коммуникация каналларини тақдим этиш орқали ўз фаолияти билан жамият ривожига ҳисса қўшишга интилади.

7. Манфаатлар тўқнашуви

7.1. Жамият ходимлари ҳақиқий ёки потенциал манфаатлар тўқнашувига олиб келиши ёки манфаатлар тўқнашуви кўринишини бериши мумкин бўлган вазиятлардан қочиш учун барча саъй-ҳаракатларни амалга ошириши керак. Шахсий манфаатлар компания манфаатларидан устун

кўйилганда ва бундай шахсий манфаатлар бизнес мулоҳазалари, қарорлари ёки ҳаракатларига салбий таъсир қилганда манфаатлар тўқнашуви пайдо бўлиши мумкин. Бундай вазиятлар компаниянинг бизнес ҳамкорлари ва мижозлари, шу жумладан етказиб берувчилар, шунингдек давлат идоралари билан муносабатларда юзага келиши мумкин. Манфаатлар тўқнашувини бошқаришнинг асосий қоидаларига қуйидагилар киради:

7.1.1. Ходимлар жамият раҳбариятининг олдиндан рухсатсиз бошқа бирон бир иш берувчига хизмат кўрсата олмайди, шунингдек, учинчи шахслар манфаатларига хизмат қиладиган ва жамият манфаатларига зид бўлган бошқа фаолият билан шуғуллана олмайди. Агар ходимнинг бирон бир яқин қариндоши бундай фаолият билан шуғулланса, ходим бу ҳақда дарҳол ўз раҳбарига хабар бериши керак, у ўз навбатида мувофиқлик функцияси билан биргаликда жамият учун юзага келиши мумкин бўлган оқибатларнинг олдини олиш учун зарур чораларни кўриши керак.

7.1.2. Ходимларга тўғридан-тўғри ёки учинчи шахс орқали ўзлари ёки бошқа бирон бир томон учун ҳар қандай ҳақ тўлашни талаб қилиш ёки қабул қилиш, шунингдек, ўз вазифаларини бажаришда келажақда ёки аллақачон содир этилган ҳаракат ёки ҳаракатсизлик эвазига бундай имтиёзлар тўғрисидаги ҳар қандай ваъдани қабул қилиш тақиқланади.

7.1.3. Ходимлар ўзларининг шахсий манфаатлари жамият манфаатларига зид келиши мумкин бўлган қарорларни қабул қилишда қатнашмасликлари (рад этишлари) ва шубҳа туғилса, комплаенс хизматидан маслаҳат олишлари керак.

7.2. Ҳақиқий ёки потенциал манфаатлар тўқнашуви ёки манфаатлар тўқнашувининг кўриниши пайдо бўлган тақдирда, ходим бу ҳақида дарҳол хабар бериши ва ҳар қандай чораларни кўриш, масалан, манфаатлар тўқнашувига сабаб бўлган вазиятдан чиқиш бўйича зарур тавсияларни олиш учун уни бевосита раҳбари, кейинги даражадаги раҳбарият ва/ёки комплаенс хизмати билан муҳокама қилиши керак.

7.3. Жамият Кузатув Кенгашининг аъзоси бўлган давлат хизматчилари ҳар доим жамият манфаатларини кўзлаб ҳаракат қилишлари керак, бу уларнинг давлат хизматчилари сифатидаги фаолияти Кузатув Кенгаши аъзоси сифатидаги бевосита вазифаларини бажаришга таъсир қилмаслигини тасдиқлайди.

8. Совғалар ва меҳмондўстлик

8.1. Жамият ҳамкорлар, мижозлар ва бошқа манфаатдор томонлар билан ишбилармонлик алоқаларини ривожлантиришни олқишлайди, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ минимал қийматдаги корпоратив совғалар билан алмашиш имконини беради. Бироқ, бу ҳамкорлар, мижозлар ва бошқа манфаатдор томонлар билан

профессional муносабатларни ўрнатишда ходимнинг жавобгарлигига таъсир қилмаслиги керак. Вакиллик харажатлари, агар ходим бунин амалга ошириш учун аниқ бизнес сабабига эга бўлса ва тегишли харажатлар оқилона бўлган ҳолатдагина таклиф қилиниши ёки қабул қилиниши керак.

8.2. Жамият ходимига ўзи ёки унинг оила аъзолари учун бирон бир совға сўрашга, шунингдек, совғаларни қабул қилишга, кўнгилочар тадбирларда қатнашишга, етказиб берувчилар ёки мижозлардан илтифотларни ёки ғайриоддий меҳмондўстликни қабул қилишга рухсат этилмайди, агар бу уларнинг ҳоли ва объектив бизнес қарорларини қабул қилиш қобилиятига ҳавф туғдирса, улар бундай имкониятга путур етказадиган ёки бизнеснинг ўзаро таъсирига ноҳақ таъсир қилиши мумкин деган таассурот уйғотадиган бўлса.

8.3. Агар ходимга ноўрин совға юборилса ёки у хато билан қабул қилинса, бу ҳақида дарҳол бевосита раҳбарга хабар берилиши ва совға дарҳол қайтарилиши керак. Совғани рад этиш ҳафа қилиб қўйиши мумкин бўлган вазиятда, агар у Ўзбекистон Республикаси қонунчилик ҳужжатларида белгиланган ўртача қийматга эга бўлса, совға қабул қилиниши ва дарҳол жамият тасарруфига ўтказилиши лозим.

9. Порахўрлик ва коррупцияга қарши кураш

9.1. Жамият ўз ишида коррупцияга нисбатан барча шакл ва кўринишларда мурасизлик тамойилига амал қилади ва ўз ходимлари ўртасида коррупцияга қарши маданиятни шакллантиришга интилади.

9.2. Жамият ходими ҳеч қандай ҳолатда тўғридан-тўғри ёки билвосита, шахсан ёки учинчи шахслар орқали пора бериш, ваъда қилиш, сўраш ва олиш, шунингдек маъмурий, бюрократик ёки ҳар қандай шаклда бошқа жараёнларни осонлаштириш учун тўловларни амалга ошириш ҳуқуқига эга эмас. Компания ўз мижозлари, контрагентлари ва шерикларидан коррупцияга қарши мажбуриятларини бажаришини кутади.

10. Пул ювиш ва терроризмни молиялаштиришга қарши курашиш

10.1. Жамият фақат қонуний фаолиятни амалга оширадиган ва ўз даромадларини фақат қонуний манбалардан оладиган ишончли мижозлар ва контрагентлар билан ишбилармонлик алоқаларини ўрнатиш учун мумкин бўлган барча чораларни қўллайди.

11. Етказиб берувчилар ва бизнес ҳамкорлари билан муносабатлар

11.1. Ишонч ва шаффофликка асосланган бизнес алоқалари компания учун жуда муҳимдир. Етказиб берувчилар ва бизнес ҳамкорлар жамиятнинг бизнес юритиш қобилияти учун жуда муҳимдир, аммо одамларга зарар

етказиши ёки бунга ҳисса қўшиши ва жамиятни обрўсизлантириши, операцион ва ҳуқуқий рискга дучор қилиши ҳам мумкин.

11.2. Жамиятнинг етказиб берувчилари ва бизнес ҳамкорлари амалдаги қонунчиликка риоя қилишлари, халқаро миқёсда тан олинган инсон ҳуқуқларини ҳурмат қилишлари ва компанияда ёки у билан ишлашда ушбу Кодексда белгиланган ахлоқий талабларга жавоб берадиган ахлоқий меъёрларга риоя қилишлари зарур.

11.3. Ҳар қандай ишбилармонлик муносабатларини ўрнатишдан олдин, жамиятнинг бизнес юритиш ва ахлоқ қоидаларига бўлган умидлари етказиб берувчилар ва бизнес ҳамкорларига аниқ етказилиши керак. Етказиб берувчи ёки бизнес ҳамкор томонидан ҳар қандай ҳуқуққа хилоф хатти-ҳаракатлар Қоидабузарликлар ҳақида хабардор қилиш сиёсатига мувофиқ ахборот каналлари орқали хабар қилиниши керак.

12. Маълумотларни ҳимоя қилиш ва махфийлик

12.1. Жамият ўз фаолияти тўғрисидаги маълумотларнинг ошкор этилишини Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ таъминлайди.

12.2. Жамиятнинг махфий маълумотлари жамиятнинг ички қоидалари билан белгиланади ва рухсатсиз фойдаланишдан ҳимоя қилинади.

12.3. Махфий маълумотларга мисол сифатида жамият томонидан оммага ошкор қилинмаган ва ошкор этилиши жамиятнинг молиявий воситалари нархларига сезиларли таъсир кўрсатиши мумкин бўлган маълумотлар, шунингдек ходимлар, мижозлар, бизнес ҳамкорлар ва бошқа контрагентларнинг ҳар қандай шахсий маълумотлари киради.

12.4. Махфий маълумотлар ошкор этилиши мумкин эмас, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларида назарда тутилган ёки маълумотларнинг ошкор этилиши қонуний тадбиркорлик мақсадларида ва/ёки мижоз ёки бизнес шериги талабига кўра содир бўлган ҳамда мижоз ёки бизнес шериги билан тузилган шартнома шартларига зид бўлмаган ҳоллар бундан мустасно. Жамиятнинг махфий маълумотлари қонуний бизнес мақсадларида ошкор қилинган тақдирда, ходим бундай фаолиятнинг амалдаги махфийлик қоидаларини бузмаслигини ҳам таъминлаши керак. Аксарият ҳолларда маълумотларни махфийлик тўғрисидаги шартнома, маълумотларни шифрлаш ёки бошқа хавфсизлик чоралари билан ҳимоя қилиши, шунингдек, бошқача тарзда маълумотни ошкор қилишни имкон қадар чеклаши керак.

Ходим жамиятдан ишдан бўшатиладиган сўнг, у жамиятда ишлаётганда олган махфий маълумотлардан фойдаланмаслик мажбуриятини сақлаб қолади.

**“UZGASTRADE” АЖ
ИЧКИ АУДИТ ХИЗМАТИ ҲОДИМЛАРИНИ
ТАЙИНЛАШ БЎЙИЧА
НИЗОМ**

Тошкент-2024

МУНДАРИЖА

- 1. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР**
- 2. ТАНЛОВ ЭЪЛОН ҚИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ**
- 3. ТАНЛОВДА ИШТИРОК ЭТИШ УЧУН АРИЗА БЕРУВЧИ
ТОМОНИДАН ҲУЖЖАТЛАРНИ ТАҚДИМ ЭТИШ ТАРТИБИ**
- 4. ТАНЛОВНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ**
- 5. ЯКУНЛОВЧИ ҚОИДАЛАР**

I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

1. “UzGasTrade” акциядорлик жамиятида ушбу ички аудит лавозимларга танлов ўтказиш тартиби (кейинчалик матнда “Тартиб”) Ўзбекистон Республикаси “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 16.10.2006 йилдаги “Устав фондида давлат улуши бўлган корхоналарнинг самарали бошқарилишини ва давлат мулкнинг зарур даражада ҳисобга олинишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 215-сон қарори билан тасдиқланган “Корхоналардаги ички аудит хизмати тўғрисида”ги Низом, “UzGasTrade” AJ (кейинчалик матнда “Жамият”) Устави, Акциядорлик жамиятлари фаолияти самарадорлигини ошириш ва корпоратив бошқарув тизимини такомиллаштириш масалалари бўйича комиссия йиғилишининг 31.12.2015 йилдаги 9 сон баённомаси билан тасдиқланган Корпоратив бошқарув Кодекси (11.02.2016 йилда 02-02/1-187 сон билан рўйхатга олинган) ва Жамиятнинг ички ҳужжатларига мувофиқ ишлаб чиқарилган.

2. Жамият ички аудит лавозимларига номзодларни сайлаш (тайинлаш) қоидага кўра халқаро тажрибага эга мутахассислар ва бошқа шахслар иштирок этиши мумкин бўлган танлов асосида амалга оширилади.

3. Танлов асосидаги саралашдан кўзланган мақсад Жамиятнинг ички аудит лавозимларига замонавий фикрлайдиган, юқори малакали, замонавий талабларга жавоб берадиган раҳбарлар билан бир қаторда хорижий мутахассисларни ҳам жалб қилишдан иборат.

II. ТАНЛОВ ЭЪЛОН ҚИЛИШ ЖАРАЁНЛАРИ

4. Танловни эълон қилиш вакант лавозим мавжуд бўлган тақдирда Жамият кузатув кенгаши руҳсатига асосан Жамият бошқаруви қарори билан амалга оширилади. Танловни ўтказиш санаси, вақти ва жойи танлов эълон қилиш тўғрисидаги қарор билан белгиланади.

5. Танлов ўтказиш тўғрисидаги эълонда уни ўтказиш санасидан камида икки ҳафта олдин оммавий ахборот воситаларида ва Жамиятнинг интернетдаги расмий веб-сайтида эълон қилинади.

6. Эълон қуйидаги маълумотларни ўз ичига олган бўлиши керак:

- Жамиятнинг номи, унинг жойлашган ўрни ва асосий фаолият йўналишлари;

- бўш иш ўрин лавозими номи;

- танлов иштирокчиларига қўйиладиган талаблар, шунингдек танловда иштирок этиши мумкин бўлган шахслар доираси. Бўш иш ўрин лавозимни эгаллаш учун номзодга қўйиладиган талабларга қуйидагилар киради: касбий фаолият тажрибаси, иш стажи, шу жумладан тегишли соҳада, маълумоти, малакаси, ички аудитор сертификати, маълум кўникмалар ҳамда шахсий

фазилатлар мавжудлиги. Бўш иш ўрин лавозимини эгаллаш учун номзодга қўйиладиган талаблар рўйхати ҳар бир аниқ ҳолат учун тасдиқланади.

- тақдим этиладиган ҳужжатлар рўйхати ва уларни расмийлаштиришга бўлган талаблар;

- керакли ҳужжатлар билан танловга қатнашиш учун ариза топширишнинг охириги муддати;

- аризаларни қабул қилиш режими;

- танлов ўтказиш тўғрисидаги қўшимча маълумотларни аризачи олиши учун алоқа маълумотлари.

7. Танловда иштирок этишни хоҳловчи шахслар ёзма сўров асосида Жамият тўғрисидаги зарур маълумотларни олиш ҳуқуқига эга, тижорат сири ёки махфий маълумотлар бундан мустасно.

III. ТАНЛОВДА ИШТИРОК ЭТИШ УЧУН АРИЗА БЕРУВЧИ ТОМОНИДАН ҲУЖЖАТЛАРНИ ТАҚДИМ ЭТИШ ТАРТИБИ

8. Танловда иштирок этиш учун ариза берувчи эълонда кўрсатилган муддатдан кечиктирмаган ҳолда Жамиятга қуйидагиларни тақдим этиши керак:

- алоқа маълумотлари ва тақдим этилиши керак бўлган ҳужжатлар рўйхати билан танловда иштирок этиш учун ариза;

- шахсни, иш тажрибасини, олий маълумотни тасдиқловчи ҳужжатлар нусхалари ва номзоднинг фикрига кўра, унинг касбий ва шахсий фазилатларини тавсифлаши мумкин бўлган бошқа ҳужжатлар;

- 1-иловага мувофиқ шакл бўйича номзод анкетаси;

- танлов таклифи;

- тавсифнома.

Ҳужжатлар ҳақиқийлиги бўйича жавобгарлик номзод зиммасидадир.

9. Танлов таклифи муҳрланган конвертда тақдим этилади, у Жамият кузатув кенгаши мажлисида очилади.

10. Танловда иштирок этиш аризаси қуйидаги ҳолларда қабул қилинмайди:

- ариза берувчи томонидан ҳужжатлар тўлиқ тақдим етилмаганлиги ёки ушбу Тартиб талаблари бузилган ҳолда расмийлаштирилганда;

- ушбу Тартибда белгиланган муддатдан кечроқ ариза топширганда.

11. Ариза берувчи қуйидаги шахслар бўлиши мумкин эмас:

- тегишли мутахассислик бўйича олий маълумотга эга бўлмаса;

- тегишли соҳада камида уч йиллик иш стажига эга бўлмаса;

- ички аудитор сертификатига эга бўлмаса.

12. Ариза берувчи аризаларни топшириш муддати тугагунга қадар

танловда иштирок этиш учун аризани қайтариб олишга ёки тегишли ёзма билдиришнома юборган ҳолда тақдим этилган ҳужжатларга тузатишлар киритишга ҳақли.

IV. ТАНЛОВНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ

13. Жамият бошқарув қарори билан таъйинланган масъул шахс танловда иштирок этиш учун Жамиятга келиб тушган ариза ва ҳужжатларни жамлайди, уларнинг расмийлаштирилганлигини текширади ва Жамият кузатув кенгашига тақдим этади.

14. Жамият бошқарув органи ариза берувчилардан олинган маълумотларнинг сақланиши ва махфийлигини таъминлаш чораларини кўради.

15. Танловда иштирок этиш учун камида учта ариза келиб тушган бўлса, танлов ўтказилади. Акс ҳолда, ижроия органи иккинчи танлов эълон қилиш тўғрисида қарор қабул қилишга ҳақли ва тақдим этилган танлов таклифи очилмайди ва ариза берувчига қайтарилади.

16. Жамият кузатув кенгаши томонидан таклиф этилган барча таклифларни иштирокчилар уларга қўйиладиган талабларга риоя қилмаган тақдирда рад этиш ва танлов асосида саралашни қайтадан ўтказиш тўғрисида қарор қабул қилишга ҳақли.

17. Танлов ғолибини аниқлаш Жамият кузатув кенгашининг кўпчилик овоз бериши орқали амалга оширилади.

Жамият ички аудит аъзолари лавозимига номзодлар ўз номзодларини кўриб чиқишда кузатув мажлисида қатнашишлари ва уларнинг танлов таклифини муҳокама қилишда иштирок этишлари мумкин.

Ички аудит лавозимига ғолиб аниқланган тақдирда, уни сайлаш (тайинлаш) тўғрисидаги қарор жамият кузатув кенгаши томонидан оддий кўпчилик овоз билан қабул қилинади.

Ғолибнинг номзодини Жамият ички аудит лавозимига сайлаш (тайинлаш) Жамият кузатув кенгаши мажлиси натижалари бўйича қарор асосида амалга оширилади.

18. Ариза берувчиларни баҳолаш босқичма-босқич амалга оширилади:

- Жамият умумий йиғилиши ушбу низомнинг 11-бандга мувофиқ номзодларнинг танлов талабларига мувофиқлигини текширади;

- 1-иловага мувофиқ балл тизими билан баҳоланади.

V. ЯКУНЛОВЧИ ҚОИДАЛАР

19. Танлов иштирокчилари танлов натижалари тўғрисида Жамиятнинг бошқарув органи томонидан қарор қабул қилинган кундан эътиборан уч кун ичида ёзма равишда хабардор қилинади.

Беш кун ичида танлов ғолиблари ҳақидаги маълумотлар Жамиятнинг

интернет тармоғидаги расмий корпоратив веб-сайтида эълон қилинади.

20. Танлов ғалиби Жамиятнинг ваколатли бошқарув органи томонидан тегишли қарор қабул қилинган кундан эътиборан ўн кун ичида қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда у билан меҳнат шартномасини тузиш учун зарур ҳужжатларни Жамиятга тақдим этиши шарт.

**«UZGASTRADE» АЖ ИЧКИ АУДИТ ЛАВОЗИМИГА
НОМЗОДЛАРНИ САРАЛАШ МЕЪЗОНЛАРИНИ
БАҲОЛАШ БЎЙИЧА ЎРНАТИЛГАН БАЛЛАР**

№	БАҲОЛОНУВЧИ МЕЪЗОНЛАР	МУВОФИҚ МЕЪЗОН УЧУН МАКСИМАЛ БАЛЛ	НОМЗОДДА МАВЖУДЛИГИ
I. Маълумоти			
1.	Иқтисодий соҳасида олий маълумотни тасдиқловчи ҳужжатнинг мавжудлиги		
	- олий маълумот тўғрисида диплом	6	
	- магистр дипломи.	10	
Илмий даражаси мавжудлиги			
2.	- фан доктори (DS)	4	
	- фан номзоди (PhD).	3	
3.	Жорий йилда ёки ўтган йилда олинган тегишли мутахассислик бўйича малака ошириш сертификатининг мавжудлиги.	4	
II. Иш тажрибаси			
4	Мутахассислик сифатида профессионал фаолият бўйича иш тажрибаси		
	3 йилдан 5 йилгача иш тажрибаси.	10	
	5 йилдан ортиқ.	15	
III. Билим ва қўникмалари			
5	ички аудитни амалга ошириш давомида пайдо бўладиган масалалар бўйича Жамиятнинг ҳужжатларини (рахбарнинг буйруқлари, фармойишлари, бошқарув органлари қарорлари, маълумотномалар, ҳисоб-китоблар, зарур ҳужжатларнинг тасдиқланган нусхалари ва бошқа ҳужжатларни), корхона мансабдор ва масъул шахсларидан оғзаки ва ёзма тушунтиришларни, ички аудитни ўтказишга қўмаклашиш учун Жамиятнинг тегишли мутахассисларини жалб эта олиш.Шунингдек, иқтисодиёт асослари, меҳнатни ташкил этиш, бухгалтерия ҳисоби, меҳнат ва фуқаролик қонунчилиги, молия институтлари фаолиятини билиш.	5	
	Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”, “Қимматли қоғозлар бозорининг фаолият кўрсатиш механизми тўғрисида”ги қонунларини билиши.	13	
	Чет тилларини билиши	5	
IV. Тавсияномалар ва келишувлар			
6	Олий таълим ёки юқори ташкилотларнинг тавсияномаларининг мавжудлиги	10	

	Номзодлик Вазирлар Маҳкамаси ёки Президент Администрацияси томонидан тасдиқланганлиги	15	
--	--	----	--

“UzGasTrade” АЖ
Кузатув кенгашининг
Тайинловлар ва ҳақ тўлаш қўмитаси тўғрисидаги
НИЗОМ

Тошкент - 2024 йил

МУНДАРИЖА

1-боб. Умумий қоидалар.....	3
2-боб. Қўмитанинг вазифа ва функциялари.....	3
3-боб. Қўмитанинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари	4
4-боб. Қўмита таркиби ва уни шакллантириш тартиби.....	7
5-боб. Қўмита мажлисларини ўтказиш шартлари ва тартиби.....	8
6-боб. Жамият органлари ва бошқа шахслар билан ўзаро ҳамкорлик	10
7-боб. Маълумотларнинг махфийлиги.....	10
8-боб. Якуний қоидалар.....	11

1-боб. Умумий қоидалар

1. ““UzGasTrade” АЖ Кузатув кенгашининг Тайинловлар ва ҳақ тўлаш қўмитаси тўғрисида”ги низом (кейинги ўринларда – Низом) Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни, “UzGasTrade” акциядорлик жамияти (кейинги ўринларда – Жамият) устави, “UzGasTrade” АЖ Кузатув кенгаши тўғрисида”ги низом ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва хусусий секторни ривожлантириш орқали барқарор иқтисодий ўсиш учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги навбатдаги ислохотлар тўғрисида” 2022 йил 8 апрелдаги ПФ-101-сон Фармониغا мувофиқ ишлаб чиқилган.

2. Жамият Кузатув кенгашининг Тайинловлар ва ҳақ тўлаш Қўмитаси (кейинги ўринларда – Қўмита) дастлабки кўриб чиқиш ва Жамият фаолияти устувор йўналишларини шакллантириш бўйича қарорлар қабул қилиш ва Жамият Кузатув кенгашининг профессионал таркиби ва самарадорлиги билан Кузатув кенгашига тавсиялар тайёрлаш, шунингдек, кадрлар масаласини режалаштириш (изчиллигини ошириш) мақсадида ташкил этилади.

3. Қўмита Кузатув кенгашининг кўмакдош, маслаҳат органи ҳисобланади ва у Ички аудит хизмати, Корпоратив маслаҳатчи ва/ёки котиб ва Бошқарув аъзоларига тўланадиган мукофотларни самарали ва адолатли тажрибасини жорий қилиш, ушбу органларга сайланадиган (тайинланадиган) номзодларни, кадрлар захирасини шакллантириш бўйича дастлабки кўриб чиқиш ва тавфсиялар ишлаб чиқиш мақсадида ташкил этилади.

4. Ўз фаолиятида Қўмита Жамият Кузатув кенгаши олдида ҳисобдордир.

5. Қўмита ушбу Низомга мувофиқ Жамият Кузатув кенгаши томонидан унга берилган ваколатлар доирасида иш юритади.

6. Қўмита ўз фаолиятида Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги, Жамият устави, “UzGasTrade” АЖ Кузатув кенгаши тўғрисида”ги низом, Жамият акциядорлари умумий йиғилиши ва Кузатув кенгаши қарорлари ва улар томонидан тасдиқланган Низом ва бошқа ички ҳужжатларга амал қилади.

2-боб. Қўмитанинг вазифа ва функциялари

7. Қўмитанинг асосий вазифа ва функцияларига қуйидагилар киради:

а) Тайинлаш соҳасида:

- Жамият Ички аудит хизмати ва Бошқарувига сайланадиган шунингдек, Корпоратив маслаҳатчи ва/ёки котиб лавозимларига тайинланадиган номзодларни кўриб чиқиш ва ушбу лавозимга кадрлар захирасини шакллантириш;

- Жамият Ички аудит хизмати ва Бошқарувига сайланадиган шунингдек, Корпоратив маслаҳатчи ва/ёки котиб лавозимларига тайинланадиган номзодларга малака талабларини белгилаш;

- Жамият Ички аудит хизмати ходимлари ва Бошқарув аъзолари билан меҳнат шартномаларини муддатидан илгари тугатиш шартларини ишлаб чиқиш;

- Жамият Бошқаруви аъзолари ҳамда Корпоратив маслаҳатчи ва/ёки котибнинг билим савиясини ошириш ва жаҳон тажрибаларини ўрганиш мақсадида қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш бўйича ишларни ташкил этиш;

- ҳисобот даврлар якуни бўйича Бошқарув аъзолари фаолиятини дастлабки баҳолаш ҳамда таркибини мустаҳкамлашнинг устувор йўналишларини белгилаш. Бунда Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари ва Корпоратив бошқарув кодексида назарда тутилган ҳолатларда, ушбу органларнинг фаолиятини баҳолаш учун мустақил консалтинг ташкилотлар жалб қилиниши мумкин.

б) Мукофотлаш соҳасида:

- Бошқарув аъзоларини рағбатлантириш сиёсатини ишлаб чиқиш ва доимий равишда такомиллаштириб бориш;

- Бошқарув аъзоларини рағбатлантириш сиёсатини жорий қилиниши ва унга амал қилиш устидан назорат ўрнатиш;

- корпоратив маслаҳатчи ва/ёки котибга тўланадиган мукофотлар миқдори ва тамойиллари бўйича тавсияларини ишлаб чиқиш.

3-боб. Қўмитанинг ҳуқуқ ва мажбуриятларига

8. Қўмитанинг асосий ҳуқуқлари:

а) Жамият Кузатув кенгашининг ўз фаолияти тўғрисидаги қарор ва кўрсатмаларининг бажарилишини назорат қилиш ва текширишда иштирок этиш;

б) Жамият Бошқарув аъзолари, Корпоратив котиби ва таркибий бўлинмалари, шунингдек бошқа ходимларидан ўз фаолиятини амалга ошириш учун зарур бўлган ҳар қандай маълумотни талаб қилиш ва қабул қилиш, қонунчиликда кўрсатилган ҳоллар бундан мустасно;

в) Қўмита фаолиятининг эҳтиёжида учинчи томон, шу жумладан халқаро маслаҳатчи ташкилотларидан профессионал хизматлар олиш;

г) Зарур ҳолларда Қўмита йиғилишларига мутахассисларни, маслаҳатчиларни ва бошқа шахсларни таклиф этиш;

д) Низомга ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш бўйича таклифлар бериш;

е) Қўмита томонидан ўзига юклатилган вазифаларни амалга ошириш учун зарур бўлган бошқа ҳуқуқларни амалга ошириш.

9. Қўмитанинг асосий мажбуриятлари:

а) Бошқарув аъзолари учун қисқа ва узоқ муддатли рағбатлантириш дастурларининг параметрларини ишлаб чиқиш, шу жумладан, Кузатув кенгаши ва унинг қўмиталари, Бошқарув аъзоларини ошкора мукофотлашни амалда шаклланишини йўлга қўйиш;

б) Жамият Ички аудит хизмати ва Бошқарув аъзолари лавозимларига номзодлар юзасидан Кузатув кенгашига тавсиялар бериш, Бошқарув аъзолари ишини дастлабки баҳолаш, шунингдек, ушбу шахслар томонидан узоқ муддатли рағбатлантириш дастури доирасида белгиланган мақсадларга эришишни дастлабки баҳолаш;

в) Жамиятнинг Корпоратив котиби лавозимига номзодлар, уни мукофотлаш миқдори ва тамойилларини аниқлаш бўйича Кузатув кенгашига тавсиялар ишлаб чиқиш, шунингдек, йил якуни бўйича унинг ишини дастлабки баҳолаш;

г) Жамиятнинг йиллик ҳисоботи ва бошқа ҳужжатларига киритиш учун Кузатув кенгаши, Бошқарув аъзоларини мукофотлаш тамойилларини амалга оширилиши бўйича ҳисоботни тайёрлаш;

д) Кузатув кенгаши таркибининг касбий ихтисослиги, тажрибаси, мустақиллиги ва унинг аъзоларини Кузатув кенгаши фаолиятида бандлик ҳолати бўйича баҳолаш;

е) Кузатув кенгашига номзодлар йиғиш жараёнида тавсиялар шакллантириш орқали Кузатув кенгашининг профессионал таркиби ва самарадорлигини мустаҳкамлашга кўмаклашиш ҳамда Жамият акциядорларини Кузатув кенгашига, шу жумладан мустақил аъзоларни сайлашда овоз бериш бўйича тавсиялар ҳақида хабардор қилиш;

ё) Кузатув кенгаши ишини баҳолаш учун мустақил маслаҳатчи танлаш бўйича ўз-ўзини баҳолаш методологиясини белгилаш ва таклифлар ишлаб чиқиш.

ж) Ҳар йили Кузатув кенгаши ва унинг Қўмиталарини ўз-ўзини бошқариш ёки ташқи баҳолаш тартиб-таомилларини, уларнинг умумий фаолиятида самарадорлик нуқтаи назаридан батафсил расмийлаштирилган, шунингдек Кузатув кенгаши ва унинг Қўмиталари аъзоларининг Қўмита ишига индивидуал қўшган ҳиссасини кўрсатиш;

з) Кузатув кенгаши ва унинг Қўмиталари иш тартиб-таомилларини такомиллаштириш бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш;

и) Кузатув кенгаши янги аъзоларини Жамиятнинг асосий активлари, унинг стратегияси, Жамиятда қабул қилинган бизнес амалиётлари, ташкилий тузилмаси ва раҳбарлик лавозимидаги ходимлар билан танишишга қаратилган

Кузатув кенгаши янги сайланган аъзолари кириш курсини шакллантириш, кириш курсининг амалий бажарилишини назорат қилиш;

й) Кузатув кенгаши аъзолари учун унинг айрим аъзоларининг индивидуал эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда ўқитиш ва малака ошириш дастурини шакллантириш, шунингдек, ушбу дастурнинг амалий бажарилишини назорат қилиш;

к) Жамиятнинг йиллик ҳисоботиға ва бошқа ҳужжатларига киритиш учун Қўмита фаолияти натижалари тўғрисидаги ҳисоботни тайёрлаш;

л) Бошқарув аъзолари билан тузилган шартномаларда назарда тутилган харажатлар, зарарлар, жарималар ва бошқа санкцияларни қоплаш бўйича тавсиялар тайёрлаш;

м) Жамият Кузатув кенгаши, Ички аудит хизмати ва Бошқаруви аъзоларини тайинлаш ва уларга ҳақ тўлаш соҳасида Жамият фаолиятининг асосий йўналишларини ишлаб чиқиш;

н) Кузатув кенгашини энергетика, нефт-газ, молия соҳасидаги ривожланган илғор компаниялар бошқарув органлари аъзоларига ҳақ тўлаш сиёсати ва дастурлари ҳақида хабардор қилиш.

4-боб. Қўмита таркиби ва уни шакллантириш тартиби

10. Қўмитанинг миқдорий таркиби – 3 та аъзодан иборат бўлиб, уларнинг камида биттаси, қоида тариқасида Кузатув кенгашининг мустақил аъзоси ҳисобланади.

11. Қўмитанинг шахсий таркиби жамият Кузатув кенгаши томонидан ўз таркибидан сайланади. Қўмита Раиси ва аъзоларини сайлашда уларнинг маълумоти, касбий тайёргарлиги, Қўмита фаолияти соҳасида иш тажрибаси, ҳамда Қўмита аъзолари ўз ваколатларини амалга оширишларида зарур бўлган махсус билимлари эътиборга олиниши лозим.

12. Қўмита аъзоларининг ваколат муддатлари Кузатув кенгаши аъзолари сифатида ўз ваколатлари муддатларига тўғри келади. Қўмита аъзоларининг ваколатлари Кузатув кенгаши янги таркибда сайланган кундан бошлаб тўхтатилади. Қўмитанинг ҳар қандай аъзосининг (барча аъзоларининг) ваколатлари Кузатув кенгаши қарори билан муддатида олдин бекор қилиниши мумкин.

13. Қўмита таркибидаги ўзгаришлар Кузатув кенгаши томонидан исталган вақтда амалга оширилиши мумкин.

14. Қўмита аъзолари чекланмаган миқдорда қайта сайланиши мумкин.

15. Қўмита аъзолари Кузатув кенгаши раиси номига билдиришнома юбориш орқали ўз ваколатларидан истеъфога чиқишлари мумкин.

16. Қўмита аъзоларининг сони белгиланган миқдордан кам бўлса, Кузатув кенгаши Қўмита аъзоларини зарур миқдоргача сайлайди.

17. Қўмита раиси Жамият Кузатув кенгаши томонидан тайинланади ва Қўмита ишини ташкил этади.

Қўмита раиси номзодига қуйидаги талаблар қўлланилади:

- Кузатув кенгашининг мустақил аъзоси ҳисобланади (Кузатув кенгаши таркибида мавжуд бўлса);

- Кузатув кенгаши раиси ҳисобланмайди.

18. Қўмита раиси:

- Қўмита фаолиятини ташкиллаштиради;

- Қўмита аъзолари ўртасида бурчларни тақсимлайди;

- Кузатув кенгаши мажлислари режасини ҳисобга олган ҳолда жорий давр учун иш режасини ишлаб чиқади;

- Қўмита мажлисларини чақиради, уларга раислик қилади ва йиғилиш баённомасини юритишни ташкил этади;

- Қўмита фаолияти тўғрисида Кузатув кенгаши олдида ҳисобот беради;

- Жамиятнинг ички ҳужжатлари ва ушбу Низомда назарда тутилган бошқа ҳаракатларни амалга оширади.

19. Қўмита раиси вақтинча йўқ бўлганда унинг вазифалари Қўмита аъзоларидан бири томонидан амалга оширилади.

20. Жамиятнинг Персонални бошқариш йўналишидаги департамент ёки бўлим бошлиғи Қўмита котиби ҳисобланади.

21. Қўмита котиби:

- Қўмитанинг йиғилиши баённомаларини юритади ва тузади;

- Қўмита йиғилишларига тайёргарликни амалга оширади;

- Қўмита фаолиятини ташкилий ва ахборот билан қўллаб-қувватлашни, Қўмита аъзоларининг Кузатув кенгаши ва Жамият мансабдор шахслари билан ўзаро ҳамкорлиги ва тезкор ишлашини таъминлайди.

5-боб. Қўмита мажлисларини ўтказиш шартлари ва тартиби

22. Қўмита мажлислари Қўмита томонидан тасдиқланган режага мувофиқ, лекин Қўмита аъзоларининг ваколат муддати давомида камида 4 (тўрт) марта йиғилиш ўтказилади. Қўшимча йиғилишлар зарурат пайдо бўлганда чақирилиши мумкин.

23. Қўмита мажлислари Қўмита аъзоларининг биргаликда иштирок этиши ёки сиртқи овоз бериш шаклида ўтказилади. Қўмита фақат Қўмита аъзоларининг биргаликдаги иштироки шаклида кўриб чиқилиши керак бўлган масалалар

рўйхатини тасдиқлаши мумкин. Ушбу қарор Қўмитанинг барча амалдаги аъзолари томонидан бир овоздан қабул қилинади.

Қўмита йиғилиши, йиғилишда иштирок этувчи барча аъзолар томонидан имзоланган баённома билан расмийлаштирилади.

24. Қўмита йиғилишлари Қўмита раиси томонидан унинг ташаббуси билан, Қўмита аъзосининг талабига биноан ёки Жамият Кузатув кенгаши қарори билан чақирилади. Қўмита раиси билан келишилган ҳолда Қўмита котиби Жамият Бошқарув аъзолари илтимосига биноан Қўмита йиғилишини чақириши мумкин. Қўмитанинг навбатдан ташқари йиғилишини чақириш талаби бўлган тақдирда, Қўмита раиси 5 (беш) иш куни мобайнида Қўмитанинг навбатдан ташқари йиғилишини чақириши шарт.

25. Қўмита йиғилишларига тайёргарлик Қўмита раиси назорати остида Қўмита котиби томонидан амалга оширилади. Қўмита котиби Қўмита аъзоларини зарур маълумотлар билан таъминлайди ва Қўмитанинг барча аъзоларига йиғилиш вақти ва жойини, шунингдек кун тартибидаги ҳар бир масала учун барча зарур материалларни илова қилган ҳолда йиғилиш кунидан 5 (беш) иш кунидан кечиктирмасдан дастлабки хабарномани юборади. Хабарнома Қўмита аъзолари учун қулай бўлган ҳар қандай шаклда амалга оширилади: телефон, факс, одатий ёки электрон почта орқали.

26. Қўмита йиғилишининг кворуми унинг миқдорий таркибининг 2/3 қисмини ташкил этади.

27. Масалаларни ҳал қилишда Қўмитанинг ҳар бир аъзоси бир овозга эга. Қўмита аъзоси томонидан бошқа шахсларга, шу жумладан Қўмитанинг бошқа аъзоларига овоз бериш ҳуқуқини берилишига йўл қўйилмайди. Қўмитанинг қарорлари йиғилишда иштирок этувчи аъзоларнинг оддий кўпчилик овози билан қабул қилинади, ушбу Низомда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

28. Қўмита аъзоларининг овозлари тенг бўлган тақдирда, йиғилишда раислик қилувчи Қўмита аъзосининг овози ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

29. Қўмита аъзоси йиғилишда иштирок эта олмаса, у муҳокама қилинаётган масала юзасидан ўз фикрини ёзма шаклда ёки жамиятда умумэътироф этилган электрон ҳужжат айланиш тизими орқали юбориш ҳуқуқига эга. Мазкур фикр Қўмита йиғилишида кўриб чиқилади ва йиғилиш баённомасига қўшиб қўйилади.

30. Қўмита томонидан кўриб чиқиляётган масалаларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, Қўмита аъзоси бўлмаган шахслар Қўмита мажлисларида фақат Қўмита қарори билан ёки унинг раиси таклифига биноан иштирок этиши мумкин.

Қўмита йиғилишларида Кузатув кенгаши ва Жамият Бошқаруви аъзолари, Жамиятнинг Корпоратив маслаҳатчиси ва/ёки котиби ва бошқа мансабдор

шахслари (ходимлари) иштирок этиши мумкин. Зарурат бўлса, Қўмитанинг ишига учинчи томон мутахассислари ва маслаҳатчилари вақтинчалик ёки доимий равишда жалб қилиниши мумкин.

Таклиф этилган шахслар Қўмита ваколатига кирувчи масалалар бўйича қарорлар қабул қилишда овоз бериш ҳуқуқига эга эмас.

31. Қўмита раиси Қўмита тавсияларини ўз вақтида Кузатув кенгаши аъзолари эътиборига етказиш, шунингдек, берилган тавсиялар бажарилиши устидан мониторингини олиб боришга жавобгардир.

32. Қўмита фаолияти билан боғлиқ харажатлар Кузатув кенгаши розилиги асосида Жамият маблағлари ҳисобидан амалга оширилади.

33. Қўмита Кузатув кенгашига Қўмита ваколат муддати давомида ўз фаолияти тўғрисидаги ҳисоботни юборади, бунда ҳисобот Қўмитанинг тегишли давр учун ўз функциялари ва иш натижалари бажарилиши тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олиши керак.

6-боб. Жамият органлари ва бошқа шахслар билан ўзаро ҳамкорлик

34. Қўмита аъзолари ишини самарали ташкил қилиш учун зарур маълумотлардан фойдаланиш имкониятига эга бўлиши керак, бунинг учун, Жамият ижроия органлари аъзолари, Жамият Кузатув кенгаши котиби, Жамият таркибий бўлинмалари раҳбарлари, шунингдек Жамиятнинг бошқа ходимлари, Қўмита илтимосига кўра, тегишли вақт ичида ва тартибда Қўмита фаолияти бўйича тўлиқ ва ишончли маълумот ва ҳужжатларни тақдим этиши шарт.

Ахборот ва ҳужжатларни тақдим этиш тўғрисидаги сўров Қўмита раиси томонидан имзоланган ёзма шаклда амалга оширилади.

Сўралган маълумотлар ва ҳужжатлар Қўмита котиби орқали Қўмитага тақдим этилади.

35. Зарур ҳолларда Қўмита фаолияти субъектининг айрим масалаларини кўриб чиқиш учун Қўмита ишига зарур касбий билимга эга бўлган мутахассислар ва экспертлар жалб этилиши мумкин.

7-боб. Маълумотларнинг махфийлиги

36. Қўмита аъзолари ва котиби Қўмита фаолияти давомида уларга маълум бўлган инсайдер ва бошқа махфий маълумотларни ошкор қилишга ҳақли эмас ва уларни ошкор этилиши бўйича шахсан жавобгар бўлади. Жамият инсайдери ёки Жамият олдида махфийлик мажбуриятлари билан боғлиқ бўлмаган Қўмита йиғилишларида иштирок этадиган учинчи шахслар олдиндан Жамият билан инсайдерлик ва бошқа махфий маълумотларни ошкор қилмаслик тўғрисидаги битимни имзолашлари шарт.

8-боб. Якуний қоидалар

37. Ушбу Низом жамият Кузатув кенгаши томонидан тасдиқланган кундан бошлаб кучга киради.

38. Агар ушбу Низомдаги қоидаларидан бири ўз кучини йўқотган бўлса, бу Низомдаги бошқа қоидаларни тўхтатишга сабаб бўлмайди.

39. Ушбу Низомда тартибга солинмаган барча масалалар Жамият Устави, “UzGasTrade” АЖ Кузатув кенгаши тўғрисида”ги Низом ва Жамиятнинг бошқа ички қоидалари ва қонунчилик билан тартибга солинади.

40. Агар Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари ёки Жамият устави билан ушбу Низомда назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари ва Жамият устави қоидалари қўлланилади.

“UzGasTrade” АЖ
Кузатув кенгашининг
Стратегия ва инвестициялар қўмитаси тўғрисидаги
НИЗОМ

МУНДАРИЖА

1-боб. Умумий қоидалар.....	3
2-боб. Қўмитанинг мақсад ва вазифалари.....	3
3-боб. Қўмита ваколатлари.....	4
4-боб. Қўмитанинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари	6
5-боб. Қўмита таркиби ва уни шакллантириш тартиби.....	6
6-боб. Қўмита мажлисларини ўтказиш шартлари ва тартиби.....	8
7-боб. Жамият органлари ва бошқа шахслар билан ўзаро ҳамкорлик	10
8-боб. Маълумотларнинг махфийлиги.....	10
9-боб. Якуний қоидалар.....	11

1-боб. Умумий қоидалар

1. “UzGasTrade” АЖ Кузатув кенгашининг Стратегия ва инвестициялар қўмитаси тўғрисида”ги низом (кейинги ўринларда – Низом) Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни, “UzGasTrade” акциядорлик жамияти (кейинги ўринларда – Жамият) устави, “UzGasTrade” АЖ Кузатув кенгаши тўғрисида”ги низоми ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Тадбиркорлик муҳитини яхшилаш ва хусусий секторни ривожлантириш орқали барқарор иқтисодий ўсиш учун шарт-шароитлар яратиш борасидаги навбатдаги ислохотлар тўғрисида” 2022 йил 8 апрелдаги ПФ-101-сон Фармониغا мувофиқ ишлаб чиқилган.

2. Жамият Кузатув кенгашининг Стратегия ва инвестициялар қўмитаси (кейинги ўринларда – Қўмита) Жамият фаолиятининг устувор йўналишларини белгилаш ва Жамият Кузатув кенгашига тақдим қилинган инвестиция лойиҳаларнинг самарадорлигини баҳолаш учун Жамият Кузатув кенгашига тавсиялар тайёрлаш мақсадида тузилган.

3. Қўмита Жамият ва унинг акциядорлари манфаатларида ҳаракат қилади, шу жумладан, Жамият фаолияти самарадорлигининг узоқ муддатли истиқболлари ва унинг активлари, даромадлилиги ва инвестицион жозибадорлигини оширишга кўмаклашади.

4. Қўмита Кузатув кенгашига ҳисобдор ва Низомга мувофиқ Жамият Кузатув кенгаши томонидан берилган ваколатлар доирасида фаолият юритади.

5. Ўз фаолиятида Қўмита Жамият Кузатув кенгаши олдида ҳисобдордир.

6. Ўз фаолияти давомида Қўмита Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги, Жамият устави, ““UzGasTrade” АЖ Кузатув кенгаши тўғрисида”ги низом, Жамият Кузатув кенгаши қарорлари, ушбу Низом ва Жамиятнинг бошқа ички ҳужжатларига амал қилади.

7. Қўмитани молиялаштириш Кузатув кенгаши билан келишилган ҳолда Жамият маблағлари ҳисобидан амалга оширилади. Молиялаштириш бюджети Кузатув кенгаши томонидан тасдиқланади.

2-боб. Қўмитанинг мақсад ва вазифалари

8. Қўмита фаолиятининг асосий мақсади қуйидаги масалалар юзасидан Жамият Кузатув кенгашига тавсиялар ишлаб чиқишдан иборат:

- Жамиятнинг трансформация ва хусусийлаштириш жараёнларини доимий бошқариш;
- Жамият фаолиятининг стратегик ва устувор йўналишларини белгилаш;
- Жамиятнинг харид қилиш ва инвестицион сиёсатларини ишлаб чиқишда иштирок этиш;

- истиқболли инвестицион лойиҳаларни баҳолаш ва уларнинг Жамиятни акциялари қийматини ошишига таъсирини ўрганиш.

9. Қўмита ўз ваколатлари доирасида фаолиятини амалга оширишда, Жамият Бошқаруви ва таркибий бўлинмалари билан ҳамкорликда иш олиб боради.

3-боб. Қўмита ваколатлари

10. Жамият Кузатув кенгаши аъзоларига юклатилган вазифаларни бажаришда кўмаклашиш мақсадида, Жамият Кузатув кенгаши ваколатлари доирасида Қўмитага қуйидаги ҳуқуқлар берилади:

- Жамиятнинг стратегик ривожлантириш концепциялари, дастурлари ва режаларини таҳлил қилиш ҳамда Жамият Кузатув кенгашига ўз тавсияларини киритиш;

- истиқболли ривожланиш стратегияларини таҳлил қилиш ва уни амалга оширилишини мониторинг қилиш;

- Жамият Кузатув кенгашига Жамият фаолиятининг устувор йўналишлари бўйича тавсиялар бериш;

- Кузатув кенгашига кейинчалик Жамият акциядорлари умумий йиғилишига тақдим қилиш учун киритиладиган масалаларни кўриб чиқиш;

- қуйидаги масалалар бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш:

а) акцияларни жойлаштириш нархини белгилаш (биржа ва уюшган биржадан ташқари қимматли қоғозлар бозорига чиқариш);

б) корпоратив, шу жумладан акцияларга айирбошланадиган облигацияларини чиқариш;

в) ҳосилавий қимматли қоғозларини чиқариш;

г) Жамият акцияларини майдалаш ва йириклаштириш;

- Жамият Кузатув кенгашига дивиденд қиймати, тўлаш шакли ва тартиби бўйича тавсиялар тайёрлаш;

- Жамият Кузатув кенгашига Жамият захира ва бошқа фондларини ишлатиш бўйича тавсиялар тақдим қилиш;

- Жамиятнинг технологик ва инвестицион стратегияларини кўриб чиқиш;

- Жамиятнинг инвестицион лойиҳаларини кўриб чиқиш;

- йиллик бизнес-режа ва унинг бажарилиши тўғрисидаги ҳисоботни кўриб чиқиш ва келишиш;

- ташқи молиялаштириш дастурини кўриб чиқиш;

- таваккалчилик харитасини мувофиқлаштириш;

- харидлар қайдномасини мувофиқлаштириш;

- Жамият активлари баланс қийматининг 5 (беш) фоизидан ортиқ бўлган мол-мулк битимлари бўйича жамият Кузатув кенгашига тавсиялар тайёрлаш;

- Жамият Бошқаруви томонидан амалга ошириш таклиф этилаётган инвестиция лойиҳаларини кўриб чиқиш ва натижалари бўйича Жамият Кузатув кенгашига тавсиялар тайёрлаш;

- Ўзбекистон Республикаси ҳудудида ва хорижий давлатларда жамият филиалларни ташкил этиш ва ваколатхоналарини очиш ҳамда уларни тугатиш бўйича Кузатув кенгашига тавсиялар тайёрлаш;

- шўъба ва тобе ҳўжалик жамиятларини таъсис этиш ёки уларни тугатиш бўйича Кузатув кенгашига тавсиялар тайёрлаш;

- Жамият захираларидан фойдаланиш бўйича Кузатув кенгашига тавсиялар тайёрлаш;

- Жамиятнинг соҳага оид бўлмаган активларидан фойдаланиш сиёсати соҳасида Кузатув кенгашига тавсиялар тайёрлаш;

- кейинчалик Жамият акциядорларининг умумий йиғилишига тақдим этиш учун тижорат ташкилотлари ва бошқа бирлашмаларда иштирок этиш бўйича Жамият Кузатув кенгашига тавсиялар тайёрлаш;

- Жамият Кузатув кенгаши талабига кўра хулосалар тайёрлаш ёки ўз ваколати доирасида муайян масалалар бўйича ўз ташаббуси билан тавсиялар тайёрлаш ҳамда йил якуни бўйича Кузатув кенгашига Қўмитанинг бир йиллик ишлари бўйича ҳисобот тақдим этиш.

Қўмитанинг бир йиллик ишлари бўйича ҳисоботида йил давомида Қўмита фаолияти тўғрисидаги маълумотлар, шу жумладан ваколат доирасидаги масалалар бўйича Жамият Кузатув кенгашига тақдим этилган тавсиялар рўйхати, Қўмита фаолиятини таъминлаш учун сарфланган маблағлар (харажатлар суммалари ва йўналишлари) тўғрисидаги маълумотлар, ташқи эксперт ва маслаҳатчилардан олинган хизматлар ҳақида маълумот ва Қўмитанинг тасдиқланган иш режаси бажарилиши тўғрисидаги маълумотлар бўлиши лозим.

4-боб. Қўмитанинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари

11. Қўмита аъзолари ҳуқуқлари:

- Жамият Кузатув кенгашининг қарорлари ва кўрсатмаларининг бажарилишини назорат қилиш ва текширишда иштирок этиш;

- Жамият Бошқарув аъзолари ва таркибий бўлинмалари раҳбарларидан ўз фаолиятини амалга ошириш учун зарур бўлган маълумотларни сўраш ва олиш;

- Қўмита бюджети доирасида ташқи экспертлар ва маслаҳатчилар хизматидан фойдаланиш;

- Қўмита мажлисларига ушбу Низомга мувофиқ учинчи шахсларни таклиф

қилиш;

- Жамият Кузатув кенгаши муҳокамасига ушбу Низомга ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш бўйича таклифлар киритиш;

- Қўмита ваколатларини бажариши учун зарур бўлган бошқа ҳуқуқларни амалга ошириш.

12. Қўмита аъзолари мажбуриятлари:

- Қўмита ишида қатнашиш ва унинг мунтазам равишда ўтказиладиган барча йиғилишларида иштирок этиш;

- тегишли саноат ва иқтисодиётдаги тенденцияларни, ахборот технологиялари соҳасидаги ва Жамият тараққиёти учун стратегик аҳамиятга эга бўлган бошқа соҳалардаги ютуқларни кузатиб бориш;

- расмий вазифаларини бажариш чоғида уларга маълум бўладиган барча маълумотларнинг махфийлигига риоя қилиш;

- Жамият Кузатув кенгашига мустақил аъзо мақомидаги ҳар қандай ўзгаришлар тўғрисида ёки Қўмита томонидан қабул қилинадиган қарорлар билан боғлиқ манфаатлар тўқнашуви юзага келиши тўғрисида ахборот бериш.

5-боб. Қўмита таркиби ва уни шакллантириш тартиби

13. Қўмитанинг миқдорий таркиби – 3 та аъзодан иборат бўлиб, уларнинг камида биттаси, қоида тариқасида Кузатув кенгашининг мустақил аъзоси ҳисобланади.

14. Қўмитанинг шахсий таркиби Жамият Кузатув кенгаши томонидан ўз таркибидан сайланади. Қўмита аъзоларини сайлашда уларнинг олган таълими, касбий тайёргарлиги, Қўмита фаолияти соҳасидаги тажрибаси ва Қўмита аъзолари ўз вазифаларини бажариши учун зарур бўлган бошқа махсус билимлари эътиборга олиниши лозим. Стратегия ва инвестициялар қўмитаси аъзоларини сайлаш тўғрисидаги қарор Жамият Кузатув кенгаши аъзоларининг умумий сонининг оддий кўпчилик овози билан қабул қилинади.

15. Стратегия ва инвестициялар қўмитаси аъзолари чекланмаган маротаба қайта сайланишлари мумкин.

16. Қўмита аъзоларининг ваколат муддатлари Кузатув кенгаши аъзолари сифатида ўз ваколатлари муддатларига тўғри келади. Қўмита аъзоларининг ваколатлари Кузатув кенгаши янги таркибда сайланган кундан бошлаб тўхтатилади. Қўмитанинг ҳар қандай аъзосининг (барча аъзоларининг) ваколатлари Кузатув кенгаши қарори билан муддатидан олдин бекор қилиниши мумкин.

Қўмита таркибидаги ўзгаришлар Кузатув кенгаши томонидан исталган вақтда амалга оширилиши мумкин.

17. Қўмита аъзолари Кузатув кенгаши раиси номига ариза ва бир вақтнинг

ўзида Қўмита раисига билдиришнома юбориш орқали ўз ваколатларидан истеъфога чиқишлари мумкин.

18. Қўмита аъзосининг ваколатлари ўз хоҳишига кўра истеъфога чиққан бўлса, Жамият Кузатув кенгаши кейинги йиғилишида, лекин Қўмита аъзосини ўз ваколатларидан истеъфога чиқиши тўғрисида ариза берган санадан 1 (бир) ойдан кечиктирмай, Қўмитанинг янги аъзоси сайланади, бунга қадар Қўмита аъзоси ўз вазифаларини тўлиқ бажаришда давом этади.

19. Қўмита аъзосининг ваколатлари Кузатув кенгаши томонидан бекор қилинса, ваколатлар бекор қилинганидан сўнг 2 (икки) ҳафта ичида Қўмитанинг янги аъзоси сайланади.

20. Қўмитанинг янги аъзоси сайланганидан сўнг, Қўмита раиси бир ҳафта ичида Қўмитасининг янги аъзоси билан учрашади ва уни Қўмита ваколатлари ва ишлари билан таништиради.

21. Қўмита аъзоларига Кузатув кенгаши томонидан тавсия этилган, ҳамда Жамият акциядорлари умумий йиғилишида маъқулланган миқдор ва тартибларда ҳақ тўланади ва/ёки ўз вазифаларини бажариш билан боғлиқ харажатлар қопланади.

22. Қўмита раиси Жамият Кузатув кенгаши томонидан тайинланади ва Қўмита ишини ташкил этади.

23. Қўмита раиси:

- Қўмита фаолиятини ташкиллаштиради;
- Қўмита йиғилишларини чақиради ва уларга раислик қилади;
- Қўмита аъзолари ўртасида бурчларни тақсимлайди;
- Кузатув кенгаши мажлислари режасини ҳисобга олган ҳолда жорий давр учун иш режасини ишлаб чиқади;
- Қўмита мажлисларини чақиради, уларга раислик қилади ва йиғилиш баённомасини юритишни ташкил этади;
- Қўмита фаолияти тўғрисида Кузатув кенгаши олдида ҳисобот беради;
- Жамиятнинг ички ҳужжатлари ва ушбу Низомда назарда тутилган бошқа ҳаракатларни амалга оширади.

24. Қўмита раиси Қўмита тавсияларини ўз вақтида Кузатув кенгаши аъзолари эътиборига етказиш, шунингдек, берилган тавсиялар бажарилиши устидан мониторингини олиб боришга жавобгардир.

25. Қўмита раиси вақтинча йўқ бўлганда унинг вазифалари Қўмита аъзоларидан бири томонидан амалга оширилади.

26. Жамиятнинг инвестициялар ва истиқболли ривожланиш йўналишидаги департамент ёки бўлим бошлиғи Қўмита котиби ҳисобланади.

27. Қўмита котиби:

- Қўмитанинг йиғилиши баённомаларини юритади ва тузади;

- Қўмита йиғилишларига тайёргарликни (йиғилиш учун материалларни йиғади ва тизимлаштиради, Қўмита аъзолари ва таклиф этилган шахсларга Қўмита йиғилишини ўтказиш тўғрисида хабарномани ўз вақтида юборади, йиғилиш кун тартибини, кун тартибига кирувчи масалалар бўйича маълумотларни тайёрлайди, Қўмита қарорлари лойиҳаларини тайёрлайди, шунингдек барча тегишли материаллар сақланишини таъминлайди) амалга оширади;

- Қўмита фаолиятини ташкилий ва ахборот билан қўллаб-қувватлашни, Қўмита аъзоларининг Кузатув кенгаши ва Жамият мансабдор шахслари билан ўзаро ҳамкорлиги ва тезкор ишлашини таъминлайди.

6-боб. Қўмита мажлисларини ўтказиш шартлари ва тартиби

28. Қўмита мажлислари Қўмита томонидан тасдиқланган режага мувофиқ, лекин Қўмита аъзоларининг ваколат муддати давомида камида 4 (тўрт) марта ўтказилади. Қўшимча йиғилишлар керак бўлганда чақирилиши мумкин.

29. Қўмита мажлислари Қўмита аъзоларининг биргаликда иштирок этиши ёки сиртқи овоз бериш шаклида ўтказилиши мумкин. Қўмита фақат Қўмита аъзоларининг биргаликдаги иштироки шаклида кўриб чиқилиши керак бўлган масалалар рўйхатини тасдиқлаши мумкин. Ушбу қарор Қўмитанинг барча амалдаги аъзолари томонидан бир овоздан қабул қилинади.

30. Қўмита йиғилишлари Қўмита раиси томонидан унинг ташаббуси билан, Қўмита аъзосининг талабига биноан ёки Жамият Кузатув кенгаши қарори билан чақирилади. Қўмита раиси билан келишилган ҳолда Қўмита котиби Жамият Бошқарув аъзолари илтимосига биноан Қўмита йиғилишини чақириши мумкин. Қўмитанинг навбатдан ташқари йиғилишини чақириш талаби бўлган тақдирда, Қўмита раиси 5 (беш) иш куни мобайнида Қўмитанинг навбатдан ташқари йиғилишини чақириши шарт.

Қўмита йиғилиши, йиғилишда иштирок этувчи барча аъзолар томонидан имзоланган баённома билан расмийлаштирилади.

31. Қўмита йиғилишларига тайёргарлик Қўмита раиси назорати остида Қўмита котиби томонидан амалга оширилади. Қўмита котиби Қўмита аъзоларини зарур маълумотлар билан таъминлайди ва Қўмитанинг барча аъзоларига йиғилиш вақти ва жойини, шунингдек кун тартибидаги ҳар бир масала учун барча зарур материалларни илова қилган ҳолда йиғилиш кунидан 5 (беш) иш кунидан кечиктирмасдан дастлабки хабарномани юборади. Хабарнома Қўмита аъзолари учун қулай бўлган ҳар қандай шаклда амалга оширилади: телефон, факс, одатий ёки электрон почта орқали.

32. Қўмита йиғилишининг кворуми унинг миқдорий таркибининг

2/3 қисмини ташкил этади.

33. Масалаларни ҳал қилишда Қўмитанинг ҳар бир аъзоси бир овозга эга. Қўмита аъзоси томонидан бошқа шахсларга, шу жумладан Қўмитанинг бошқа аъзоларига овоз бериш ҳуқуқини берилишига йўл қўйилмайди.

Қўмитанинг қарорлари йиғилишда иштирок этувчи аъзоларнинг оддий кўпчилик овози билан қабул қилинади, ушбу Низомда назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

34. Қўмита аъзоларининг овозлари тенг бўлган тақдирда, йиғилишда раислик қилувчи Қўмита аъзосининг овози ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

35. Қўмита аъзоси йиғилишда иштирок эта олмаса, у муҳокама қилинаётган масала юзасидан ўз фикрини ёзма шаклда ёки жамиятда умумэътироф этилган электрон ҳужжат айланиш тизими орқали юбориш ҳуқуқига эга. Мазкур фикр Қўмита йиғилишида кўриб чиқилади ва йиғилиш баённомасига қўшиб қўйилади.

36. Қўмита томонидан кўриб чиқиляётган масалаларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда, Қўмита аъзоси бўлмаган шахслар Қўмита мажлисларида фақат Қўмита қарори билан ёки унинг раиси таклифига биноан иштирок этади.

37. Қўмита йиғилишларида Кузатув кенгаши ва Жамият Бошқаруви аъзолари ва бошқа мансабдор шахслари (ҳодимлари) иштирок этиши мумкин. Зарурат бўлса, Қўмитанинг ишига учинчи томон мутахассислари ва маслаҳатчилари вақтинчалик ёки доимий равишда жалб қилиниши мумкин.

Таклиф этилган шахслар Қўмита ваколатига кирувчи масалалар бўйича қарорлар қабул қилишда овоз бериш ҳуқуқига эга эмас.

38. Қўмита раиси Қўмита тавсияларини ўз вақтида Кузатув кенгаши аъзолари эътиборига етказиш, шунингдек, берилган тавсиялар бажарилиши устидан мониторингини олиб боришга жавобгардир.

39. Қўмита фаолияти билан боғлиқ харажатлар Кузатув кенгаши розилиги асосида Жамият маблағлари ҳисобидан амалга оширилади.

40. Қўмита Кузатув кенгашига Қўмита ваколат муддати давомида ўз фаолияти тўғрисидаги ҳисоботни юборади, бунда ҳисобот Қўмитанинг тегишли давр учун ўз функциялари ва иш натижалари бажарилиши тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олиши керак.

7-боб. Жамият органлари ва бошқа шахслар билан ўзаро ҳамкорлик

41. Қўмита аъзолари ишини самарали ташкил қилиш учун зарур маълумотлардан фойдаланиш имкониятига эга бўлиши керак, бунинг учун, Жамият ижроия органи аъзолари, Жамият Кузатув кенгаши котиби, Жамият таркибий бўлинмалари раҳбарлари, шунингдек Жамиятнинг бошқа ходимлари,

Қўмита илтимосига кўра, тегишли вақт ичида ва тартибда Қўмита фаолияти бўйича тўлиқ ва ишончли маълумот ва ҳужжатларни тақдим этиши шарт.

Ахборот ва ҳужжатларни тақдим этиш тўғрисидаги сўров Қўмита раиси томонидан имзоланган ёзма шаклда амалга оширилади.

Сўралган маълумотлар ва ҳужжатлар Қўмита котиби орқали Қўмитага тақдим этилади.

42. Зарур ҳолларда Қўмита фаолияти субъектининг айрим масалаларини кўриб чиқиш учун Қўмита ишига зарур касбий билимга эга бўлган мутахассислар ва экспертлар жалб этилиши мумкин. Қўмита ишига эксперт ва мутахассисларни жалб этиш тартиби ва шартлари Жамиятнинг бундай шахслар билан тузган шартномасида белгилаб қўйилади.

8-боб. Маълумотларнинг махфийлиги

43. Қўмита аъзолари ва котиби Қўмита фаолияти давомида уларга маълум бўлган инсайдер ва бошқа махфий маълумотларни ошкор қилишга ҳақли эмас ва уларни ошкор этилиши бўйича шахсан жавобгар бўлади. Жамият инсайдери ёки Жамият олдида махфийлик мажбуриятлари билан боғлиқ бўлмаган Қўмита йиғилишларида иштирок этадиган учинчи шахслар олдиндан Жамият билан инсайдерлик ва бошқа махфий маълумотларни ошкор қилмаслик тўғрисидаги битимни имзолашлари шарт.

9-боб. Якуний қоидалар

44. Ушбу Низом жамият Кузатув кенгаши томонидан тасдиқланган кундан бошлаб кучга киради.

45. Ушбу Низом, шунингдек унга киритилган барча қўшимча ва ўзгартишлар Жамият Кузатув кенгаши аъзолари умумий сонининг кўпчилики овози билан Жамият Кузатув кенгаши қарори билан тасдиқланади.

46. Агар ушбу Низомдаги қоидаларидан бири ўз кучини йўқотган бўлса, бу Низомдаги бошқа қоидаларни тўхтатишга сабаб бўлмайди.

47. Ушбу Низомда тартибга солинмаган барча масалалар Жамият Устави, “UzGasTrade” АЖ Кузатув кенгаши тўғрисида”ги Низом ва Жамиятнинг бошқа ички қоидалари ва амалдаги қонунчилик билан тартибга солинади.

48. Агар Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатлари ёки Жамият устави билан ушбу Низомда назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатлари ва Жамият устави қоидалари қўлланилади.

**“UZGASTRADE” AKSIYADORLIK JAMIYATI
DIVIDEND SIYOSATI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOMI**

Toshkkent – 2022 yil

MUNDARIJA:

1.	UMUMIY QOIDALAR.....	1
2.	DIVIDENDLARNI HISOBLASH VA MIQDORINI BELGILASH TARTIBI.....	4
3.	DIVIDENDLARNI TO‘LASH TARTIBI VA MUDDATLARI.....	5
4.	E‘LON QILINGAN DIVIDENDLARNI TO‘LASH BO‘YICHA JAVOBGARLIK.....	7
5.	AXBOROTNI OSHKOR ETISH TARTIBI.....	7
6.	YAKUNIY QOIDALAR.....	8

I. UMUMIY QOIDALAR

1. “UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining “Dividend siyosati to‘g‘risida”gi ushbu Nizomi (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, “UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining (bundan buyon - Jamiyat) Ustavi, Korporativ boshqaruv kodeksi va Jamiyatning boshqa ichki (lokal) normativ hujjatlari asosida ishlab chiqilgan.

2. Jamiyatning dividend siyosati aksiyadorlarning farovonligini oshirishga va Jamiyat kapitallashuvi o‘rishini ta‘minlashga qaratilgan. Nizom aksiyadorlarni va boshqa manfaatdor shaxslarni Jamiyat dividend siyosati haqida xabardor qilishni o‘z maqsadi deb biladi.

Ushbu Nizom Jamiyat Kuzatuv kengashining aksiyalar bo‘yicha dividendlar miqdori va ularni to‘lash tartibiga doir tavsiyalarni ishlab chiqishga yondashuvini belgilashga mo‘ljallangan.

3. Jamiyatning dividend siyosati muayyan davr uchun ishlab chiqiladi.

Ushbu davr davomida jamiyatning zaxira fondi jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning 5 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda har yilgi majburiy ajratmalar ajratiladi. Jamiyat ustavida belgilangan, ammo Jamiyat ustav fondi (ustav kapitali)ning o‘n besh foizidan kam bo‘lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi.

Sof foydaning qolgan qismi dividend to‘lovlariga, kapitalizatsiya qilish sharti bilan jamiyatni rivojlantirishga va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi (yagona aksiyador) qarori asosida boshqa maqsadlarga yo‘naltiriladi.

4. Jamiyat kapitallashuvning o‘rishini aksiyadorlarning Jamiyat aksiyalaridan daromad olish bo‘yicha mulkiy manfaatlarini qondirishning asosiy usuli deb hisoblaydi. Dividend siyosati Jamiyat tomonidan olingan foydaning sarflanadigan va kapitallashtiriladigan qismlari o‘rtasidagi mutanosiblikni aksiyalarning bozor qiymatini oshirish maqsadida optimallashtirishga yo‘naltiriladi.

5. Jamiyatning dividend siyosati quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

shaffofilik prinsipi dividend siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadigan tomonlarning majburiyatlari va javobgarligi to‘g‘risidagi axborotni, shu jumladan dividendlar miqdori va uni to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilish tartibi va shartlarini belgilash va oshkor etishni ko‘zda tutadi;

dolzarblik prinsipi dividend to‘lovlarini amalga oshirishda vaqtinchalik chegaralarni belgilashni anglatadi;

asoslilik prinsipi dividendlarning miqdori va to‘lash haqida qaror faqat Jamiyat tomonidan ijobiy moliyaviy natijaga erishilgan taqdirda Jamiyatning real moliyaviy holatidan kelib chiqib, uning rivojlantirish rejalari va investitsiya dasturlarini hisobga olgan holda qabul qilinishi mumkinligini anglatadi;

xolislik prinsipi dividendlar to'lash, dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibi to'g'risida qabul qilinadigan qarorlar haqida axborotni olishda aksiyadorlarning teng huquqliligini ta'minlashni anglatadi;

ketma-ketlilik prinsipi dividend siyosati tamoyillarini va tartib-taomillarini qat'iy bajarishni anglatadi;

rivojlanish prinsipi dividend siyosatini korporativ boshqaruv tartib-taomillarini yanada yaxshilash doirasida doimiy ravishda takomillashtirishni va uning holatini Jamiyatning strategik maqsadlari o'zgarishi munosabati bilan qayta ko'rib chiqishni anglatadi;

barqarorlik prinsipi Jamiyatning dividend to'lovlarining barqaror darajasini ta'minlashga intilishini anglatadi.

6. Joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilish (e'lon qilish) Jamiyatning huquqi hisoblanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi (Yagona aksiyadori) aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash yoki to'lamaslik to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

7. Jamiyat e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

Dividendlar to'lash bilan bog'liq xarajatlar (shu jumladan, dividendlar to'lash bilan bog'liq pochta xarajatlari) boshqaruv organlari qarorlariga ko'ra dividend olayotgan aksiyador zimmasiga yuklanmasligi lozim. Jamiyat ushbu majburiyatni bajarmaganligi uchun aksiyadorlar oldida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

8. Dividendlar:

joylashtirilmagan aksiyalar bo'yicha;

Jamiyat tomonidan olingan va/yoki qayta sotib olingan aksiyalar bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda hisoblanmaydi va to'lanmaydi.

9. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 54-moddasida nazarda tutilgan hollarda aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to'lashga haqli emas.

II. DIVIDENDLARNI HISOBLASH VA MIQDORINI BELGILASH TARTIBI

10. Jamiyat moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyi natijalariga ko'ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko'ra, ushbu Nizomning 8-bandida ko'rsatilgan aksiyalardan boshqa aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash (e'lon qilish) to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

Dividendlar Jamiyat tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar Jamiyatning buning uchun maxsus mo'ljallangan fondlari hisobidan ham to'lanishi mumkin. Bunda dividendlarni o'z vaqtida to'lash va dividendlarni to'lash uchun aylanma mablag'lar hisobidan olingan mablag'lar evaziga Jamiyat moliyaviy

holatining yomonlashishining oldini olish maqsadida Jamiyat tomonidan Jamiyat daromadi hisobidan umidsiz debitorlik qarzdorligi bo'yicha zahira tashkil etiladi.

11. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar to'lash (e'lon qilish) to'g'risida qaror qabul qiladi. Jamiyat Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va uni to'lash tartibi to'g'risida tavsiyalar kiritadi. Dividendlarning miqdori Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

12. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining dividendlar to'lash (e'lon qilish) to'g'risidagi qarorida quyidagilar ko'rsatib o'tilishi shart:

dividendlar to'lanadigan (e'lon qilinadigan) aksiyalar toifasi(turi);

muayyan turdagi bitta aksiyaga hisoblangan dividend miqdori;

dividendlar to'lash muddati, tartibi va davriyligi.

Bunda Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va muddatlarda oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'liq to'lash imkoni bo'lmaganda, dividendlar hisoblash (to'lash) to'g'risida qaror qabul qilishga haqli emas.

13. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tavsiya etiladigan aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan quyidagi omillardan kelib chiqqan holda belgilanadi:

auditorlik xulosasi bilan ishonchliligi tasdiqlangan moliyaviy hisobot ma'lumotlariga muvofiq sof foydaning miqdoridan;

Jamiyatning keyingi davrlarga mo'ljallangan moliya-xo'jalik rejalaridan;

Jamiyatning tegishli davr yakunidagi aylanma mablag'lari tuzilmasidan;

Jamiyatning tegishli davr yakunidagi qarzdorligi hajmidan.

14. Kuzatuv kengashi tavsiya etiladigan dividendlar miqdorini belgilashda Jamiyatning keyingi davrlarga mo'ljallangan moliya-xo'jalik rejalarini, Jamiyat majburiyatlari va aylanma mablag'larining joriy va kelgusidagi holatini inobatga olishi lozim. Kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishiga tavsiya etiladigan dividendlar to'lovi Jamiyat tomonidan qo'shimcha qarzdorlik yoki keyingi davrlarga mo'ljallangan moliya-xo'jalik rejalarida nazarda tutilmagan boshqa sarf-xarajatlarni keltirib chiqarmasligi zarur.

III. DIVIDENDLARNI TO'LASH TARTIBI VA MUDDATLARI

15. Jamiyat dividendlarni pul mablag'lari yoki boshqa qonuniy to'lov vositalari yoxud Jamiyatning qimmatli qog'ozlari bilan to'laydi. E'lon qilingan dividendlar milliy valyutada to'lanadi yoki Jamiyat O'zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorining yozma talabiga ko'ra unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga ayirboshlab, mablag'larni norezident aksiyador taqdim etgan bank hisobvarag'iga o'tkazib beradi.

16. Dividendlarni to'lash muddati aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilanadi, biroq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan dividendlarni to'lash

to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran 60 (oltmish) kundan kech bo'lmashligi lozim.

17. Jamiyat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda qimmatli qog'ozlar egalari hisoblangan shaxslar dividendlarni olinmagan taqdirda ushbu (talab qilib olinmagan) dividendlarni to'lashni davom ettiradi. Talab qilib olinmagan dividendlarni to'lash davri Jamiyat tomonidan e'lon qilingan dividendlarni to'lash majburiyatini bajarish muddati tugagan sanadan e'tiboran uch yildan ko'p bo'lmashligi kerak.

18. Dividendlar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda Jamiyatning aybi bilan to'lanmagan (olinmagan) taqdirda to'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalaridan kelib chiqqan holda penya hisoblanadi. To'lanmagan (olinmagan) dividendlar bo'yicha hisoblanadigan penyalar miqdori to'lanmagan (olinmagan) dividendlar miqdorining 50 foizidan ortiq bo'lmashligi kerak.

19. Jamiyatning o'z vazifalarini bajarish bilan birga aksiyadorlar bilan ishlashni amalga oshiradigan tuzilmaviy bo'linmasi Jamiyat buxgalteriyasi bilan birgalikda Jamiyat tomonidan ushbu Nizomda nazarda tutilgan dividendlar to'lovini tashkil qilish bo'yicha barcha chora-tadbirlar ko'rilishini muvofiqlashtiradi va amalga oshiradi.

20. Istalgan aksiyador Jamiyatga aksiyalar bo'yicha dividendlar hisoblash tartibi to'g'risida, dividendlar summasiga soliq solish va hisoblash tartibi to'g'risida hamda to'lash shartlari to'g'risida axborot taqdim etish so'rovi bilan murojaat qilishga haqli.

21. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

22. Aksiyalar ulushli mulkda bo'lgan hollarda, dividend belgilangan tartibda aksiyadorlar o'rtasida ularning ulushlariga mutanosib tarzda taqsimlanadi.

23. Aksiyador o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi investitsiya vositachisini va/yoki Qimmatli qog'ozlar Markaziy depozitariysini o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida o'z vaqtida xabardor qilishi shart. Aksiyador o'ziga oid ma'lumotlar o'zgarganligi haqidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, buning oqibatida aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun uning aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi Markaziy depozitariy va/yoki investitsiya vositachisi shuningdek Jamiyat javobgar bo'lmaydi.

24. Aksiyador o'z bank rekvizitlarini yoki dividendlar o'tkazish uchun manzilni noto'g'ri ko'rsatgan, yoxud ko'rsatilgan rekvizitlar haqida Jamiyatga xabar qilmagan, yoxud ular haqida o'z vaqtida xabar qilmagan taqdirda, Jamiyat shuning natijasida aksiyadorga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi. Ushbu bandeda ko'rsatilgan sabablarga ko'ra aksiyadorning aybi bilan noto'g'ri o'tkazilgan dividendlar summasi Jamiyatga qaytarilgandan keyin ularni aniqlashtirilgan rekvizitlar bo'yicha

aksiyadorga o'tkazish ularning qaytarilishiga va takroriy o'tkazilishiga ketgan xarajatlar chegirilib qolingan holda, amalga oshiriladi.

25. Jamiyat aksiyadorlarga ularga tegishli bo'lgan aksiyalar bo'yicha daromadlarni to'lashda soliq agenti hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan daromad uchun solingan soliqlarni chegirgan holda, hisoblangan dividendlar to'lovini amalga oshiradi. Soliq solishning belgilangan stavkalari qo'llanilmaydigan aksiyador O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tasdiqlovchi hujjatlarni Jamiyatga (u tomonidan jalb etilgan To'lov agentiga) taqdim etadi.

IV. E'LON QILINGAN DIVIDENDLARNI TO'LASH BO'YICHA JAVOBGARLIK

26. Jamiyat aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

27. Dividendlarni to'lashda aksiyadorlarning hech biri to'lash muddatlari bo'yicha imtiyozga ega bo'lmaydi.

Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividend olishga bo'lgan teng huquqliligiga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

28. Jamiyatning Ijroiya organi Jamiyat aksiyadorlariga dividendlarning to'liq va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgar bo'ladi. Jamiyat Kuzatuv kengashi Ijroiya organining harakatlarini nazorat qiladi.

29. Kuzatuv kengashi hisoblangan dividendlarni to'lashni ta'minlash maqsadida o'z majlislarida dividendlar to'lanishining borishi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqadi. Jamiyat ijroiya organining aybi bilan dividendlar to'liq yoxud o'z vaqtida to'lanmagan hollarda, Kuzatuv kengashi aybdor shaxslarga javobgarlik choralari belgilaydi va tegishli sanksiyalarni qo'llaydi yoxud ularni qo'llash tashabbusini kiritadi.

30. Jamiyat o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, aksiyadorlar aksiyalarning har bir turi bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashni sud tartibida talab qilishga haqli.

31. Jamiyat Jamiyatga yuklatilgan dividendlardan soliq summalarini ushlab qolish va o'tkazish bo'yicha soliq agenti vazifasini bajarmaganlik yoki zarur darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

V. AXBOROTNI OSHKOR ETISH TARTIBI

32. Ushbu Nizom, shuningdek unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyat tomonidan uning korporativ veb-saytida Jamiyat boshqaruv organining tegishli qaror qabul qilingan majlis bayonnomasi imzolanganidan keyin o'n kun mobaynida oshkor etiladi.

33. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilinganda, Jamiyat muhim faktlar to'g'risidagi xabarlar shaklidagi axborotni qonun hujjatlarida hamda Jamiyatining Axborot siyosati to'g'risidagi nizomida belgilangan muddatlarda oshkor etadi. Bunda Jamiyat tomonidan aksiyadorlarga ularga dividendlar hisoblanganligi to'g'risidagi xabarnoma elektron pochta orqali yuboriladi.

34. Jamiyat tomonidan dividendlar to'lash bo'yicha majburiyatlar bajarilgandan keyin Jamiyat muhim faktlar to'g'risidagi xabarlar shaklidagi tegishli axborot qonun hujjatlarida hamda Jamiyatining Axborot siyosati to'g'risidagi nizomida belgilangan muddatlarda oshkor etadi.

VI. YAKUNIY QOIDALAR

35. Ushbu Nizom, shuningdek unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlanadi.

36. Ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyat Kuzatuv kengashi, Jamiyat ichki audit xizmati a'zolarining hamda Jamiyat Ijroiya organi rahbarining taklifiga ko'ra kiritiladi.

37. Ushbu Nizomning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid kelgan taqdirda tartibga solinadigan munosabatlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va/yoki Jamiyat Ustavi qoidalari qo'llaniladi.

“UzGasTrade” АЖНИНГ МАНФААТЛАР ТЎҚНАШУВИНИ БОШҚАРИШ СИЁСАТИ

1. Умумий қоидалар

1. “UzGasTrade” АЖ (кейинги ўринларда – жамият) ходимларнинг бизнес мулоҳазалари ва уларнинг қарорларини қабул қилишига шахсий манфаатлар таъсир қилмайдиган бизнесни олиб боришга интилади. Ходимларнинг шахсий манфаатлари (бевосита ёки билвосита) уларнинг жамиятда қарор қабул қилишга таъсир қилганда, таъсир қилиши мумкин бўлганда ёки таъсир қилиши эҳтимоли бўлганда, манфаатлар тўқнашуви ҳолати юзага келади.

Жамият фаолиятида манфаатлар тўқнашуви “Манфаатлар тўқнашувини бошқариш сиёсати” (кейинги ўринларда – Сиёсат) асосида тартибга солинади. Сиёсат жамият Кузатув кенгаши томонидан тасдиқлангандан сўнг кучга киради.

2. Манфаатлар тўқнашуви шахсий манфаатлар жамият манфаатларидан устун қўйилганда ва бундай шахсий манфаатлар ходимнинг бизнес мулоҳазалари, қарорлари ёки ҳаракатларига таъсир кўрсатганда пайдо бўлиши мумкин. Бундай ҳолатлар жамиятнинг бизнес ҳамкорлари ва/ёки мижозлари, шу жумладан етказиб берувчилар, шунингдек давлат идоралари билан муносабатларда юзага келиши мумкин.

Ушбу ҳолатларга ходимлардан ташқари уларнинг яқин қариндошлари ҳам жалб қилиниши мумкин. Манфаатлар тўқнашуви шароитларида мулоҳазалар юритиш, қарорлар қабул қилиш ёки ҳаракатларни амалга ошириш хизмат мажбуриятларини объектив ва самарали бажаришни қийинлаштиради, шунингдек ҳуқуқий ва тартибга солишга оид оқибатларга олиб келиши мумкин.

Шу сабабли, ходимлар:

манфаатлар тўқнашуви юзага келадиган вазиятни айниқлай олишлари ёки шубҳа туғилганда маслаҳат олишлари;

иложи борича манфаатлар тўқнашувидан қочишлари;

мавжуд манфаатлар тўқнашуви ҳақида хабар беришлари керак.

Шунингдек, Компаенс хизмати манфаатлар тўқнашувини тўғри кўриб чиқиш ва бошқаришни таъминлаши лозим.

2. Сиёсатнинг мақсади

3. Жамият ушбу Сиёсат ёрдамида ходимларга, шу жумладан Ижроия органи ва Кузатув кенгаши аъзоларига манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш ёки бошқариш бўйича тегишли тамойиллар ва қоидалар, шунингдек, бундай тамойиллар ва қоидаларни қандай амалга ошириш кераклиги тўғрисида амалий кўрсатмалар бериш чораларини кўриб боради.

3. Қўлланиш ва амал қилиш доираси

4. Ушбу сиёсат жамиятнинг барча ходимларига, шу жумладан Ижроия органи ва Кузатув кенгаши аъзоларига ва ходимларнинг шахсий манфаатлари жамият манфаатларига зид келиши мумкин бўлган ҳар қандай ҳолатларга нисбатан қўлланилади. Ходимлар ишга қабул қилишда манфаатлар тўқнашуви мавжудлиги ёки йўқлиги тўғрисидаги иловага мувофиқ шаклда маълумотларни тўлдирадилар ва кейинчалик уни ҳар йили тўлдириб борадилар.

Ходимлар, шунингдек, вазият талаб қилганда ҳар йили тақдим этилган маълумотни ўз вақтида янгилашлари шарт.

4. Асосий тушунчалар ва қоидалар

5. *Манфаатлар тўқнашуви* деганда шахсий манфаатлар (тўғридан-тўғри ёки билвосита) ходимнинг хизмат вазифаларини тўғри бажаришига таъсир қиладиган ёки таъсир қилиши мумкин бўлган ҳамда шахсий манфаатлар ва компаниянинг қонуний манфаатлари ўртасида зиддият юзага келадиган ёки юзага келиши мумкин бўлган вазият тушунилади.

Жамиятнинг иқтисодий фаолияти доирасида ташқи шароитлар натижасида ҳам, ходимнинг ҳаракатлари натижасида ҳам манфаатлар тўқнашуви пайдо бўлиши мумкин. Манфаатлар тўқнашуви ҳолатларига мисол сифатида ходим ёки унинг яқин қариндоши:

хўжалик фаолияти асосан жамиятнинг иқтисодий манфаатлари билан рақобатлашадиган бошқа компанияларда юқори лавозимларни эгаллайдиган;

фаолияти ва/ёки мақсадлари жамият фаолияти билан бевосита рақобатлашадиган ҳар қандай компаниянинг Кузатув кенгашида катнашадиган;

ўз вазифаларини бажариш доирасида маълум бир инвестиция имконияти ҳақида билиб оладиган ва уни учинчи шахсларга очиб берадиган

ёки тегишли шахсий инвестицияларни амалга оширадиган ёки ўз манфаатлари йўлида бошқа йўл билан фойдаланадиган;

жамият етказиб берувчилари, мижозлари ёки унинг рақобатчиларидан бирида иқтисодий иштирок этиш ёки бошқа турдаги қизиқишларнинг муҳим улушига эга бўлган;

жамиятнинг ҳар қандай етказиб берувчисидан, мижозидан ёки рақобатчисидан пул, номинал бўлмаган қийматдаги совғалар ёки ҳаддан ташқари меҳмондўстлик, кредитлар, кафолатлар ёки бошқа махсус муомалаларни оладиган;

жамият билан рақобатлашадиган ёки тегишли томонга жамият билан рақобатлашишга ёрдам берадиган;

ўз манфаатлари йўлида жамият билан боғлиқ муҳим шахсий битимда қатнашадиган;

етказиб берувчини танлаш тартиби шароитида уларнинг холислиги ва мустақиллигига таъсир қиладиган деб кўриб чиқилиши мумкин бўлган тўғридан-тўғри ёки билвосита молиявий, иқтисодий ёки бошқа шахсий манфаатларга эга;

шунингдек, агар бундай битим олдиндан белгиланган тартибда тасдиқланмаган бўлса, жамиятнинг ҳар қандай операциясида жамиятнинг бенефициари ёки ваколатли вакили сифатида учинчи шахслар ёки бошқа ходимлар учун мавжуд бўлмаган шартларда қатнашадиган ҳолатлар киради.

6. Яқин қариндошлар қаторига ота-она, туғишган ва ўғай ака-ука ва опа-сингиллар, эр-хотин, фарзанд, шу жумладан фарзандликка олинганлар, бобо, буви, неваралар, шунингдек эр-хотиннинг ота-онаси, туғишган ва ўғай ака-ука ва опа-сингиллари, Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида белгиланган бошқа шахслар киради.

7. Совға ва/ёки шахсий наф дўстлик ёки миннатдорчилик белгиси сифатида тақдим этилган номинал қийматдаги буюмлар ёки хизматларни англатади. Совға бунинг эвазига бериладиган наф ёки мукофотни кутмасдан очик тарзда берилади. Одатда бизнес алоқаларини бошлаш, мустаҳкамлаш ёки ривожлантириш учун берилади ёки олинади. Агар уларнинг қиймати БХМ миқдорининг 5 барақаридан ошса, ходимлар совғалар ёки шахсий имтиёзларни қабул қилмасликлари керак.

5. Асосий тамойиллар ва қоидалар

8. Ходимлар жамиятнинг тегишли органининг олдиндан розилигисиз бошқа бирон бир иш берувчига хизмат кўрсатмаслиги, шунингдек, учинчи шахсларнинг манфаатларига хизмат қиладиган ва жамият манфаатлари доирасига кирадиган бошқа фаолият билан шуғулланмаслиги керак. Агар ходимнинг бирон бир яқин қариндоши бундай фаолиятга жалб этилса, ходим зудлик билан ўзининг бевосита раҳбарига хабар бериши керак.

Ўз навбатида, Комплаенс хизмати билан биргаликда жамият учун юзага келиши мумкин бўлган оқибатларнинг олдини олиш учун зарур чораларни кўриши керак.

9. Ходимларга тўғридан-тўғри ёки учинчи шахс орқали ўзлари ёки бошқа бирон бир томон учун ўз вазифаларини бажаришда келажакда ёки аллақачон содир этилган ҳаракат ёки ҳаракатсизлик эвазига ҳар қандай наф сўраш ёки қабул қилиш, шунингдек худди шу тарзда, ходимларга бундай наф бўйича ҳар қандай ваъдаларни қабул қилиш тақиқланади.

Шунингдек, ходимларга ушбу Сиёсатда белгиланган номинал кийматдан ташқари ҳар қандай совғаларни қабул қилиш ёки жамиятнинг ҳар қандай амалдаги ёки потенциал пудратчиси, етказиб берувчиси ва бошқалар билан шахсий муносабатларида чегирмалар ёки яхши шартлар шаклида шахсий наф олишга рухсат берилмайди.

10. Ходимлар яқин қариндошлари билан назорат ёки текширув муносабатларида бўлмасликлари (масалан, ишга ёллаш шартларига таъсир қилишлари) ёки яқин қариндошларга нисбатан ҳар қандай ёллаш (шу жумладан ички ва ташқи ёллаш, шунингдек ходимни компания ичида бошқа жойга ўтказиш) тўғрисида қарор қабул қилишда иштирок этмасликлари керак.

11. Ходимлар уларнинг шахсий манфаатлари жамият манфаатларига зид бўлиши мумкин бўлган ҳар қандай қарорлар қабул қилишда иштирок этмасликлари (яъни рад этиши), шубҳа туғилган тақдирда эса Комплаенс хизматига маслаҳат сўраб мурожаат қилишлари керак.

6. Сиёсатни амалга оширишда манфаатлар тўқнашувини аниқлаш

12. Жамият манфаатлар тўқнашувини аниқлаш учун жамиятда иш бошлашдан олдин ҳам, хизмат мажбуриятларини бажариш вақтида ҳам, тегишли механизм ва тартибларни қўллайди.

13. Ўз мажбуриятларига киришишдан олдин, янги ходимлар ушбу Сиёсатда белгиланган манфаатлар тўқнашуви йўқлигини эълон қилиб ёки муқобил равишда низога олиб келиши мумкин бўлган ҳар қандай мавжуд ҳолатларни тавсифлаб, манфаатлар тўқнашуви мавжудлиги ёки йўқлиги тўғрисидаги иловга мувофиқ шаклдаги маълумотларни тўлдиришлари ва имзолашлари керак.

14. Манфаатлар тўқнашуви вужудга келиш эҳтимолини аниқлаб, Комплаенс хизмати бу ҳақида қуйидагиларга хабар бериши ҳамда ўз хулосалари ва тавсияларини тақдим этиши керак:

янги ходимнинг бевосита раҳбарига;

Ижроия органининг аъзоси билан боғлиқ ҳолатда эса Кузатув кенгашига.

Тегисли равишда, бевосита раҳбар ёки Кузатув кенгаши манфаатлар тўқнашувини бошқариш учун зарур чоралар тўғрисида қарор қабул қилиши керак.

15. Ходимлар Комплаенс хизматига манфаатлар тўқнашуви мавжудлиги ёки йўқлиги тўғрисидаги йиллик маълумотларни тақдим этиб боришлари, шунингдек жамиятда тегишли маълумотлар янгиланиб ва сақланиб борилиши лозим. Комплаенс хизмати барча ходимларнинг йиллик ҳисобот топшириш бўйича мажбуриятлари устидан назоратни амалга оширади.

16. Манфаатлар тўқнашуви аниқланган ҳолларда Комплаенс хизмати бу ҳақида қуйидагиларга хабар қилиши ҳамда ўз хулосалари ва тавсияларини бериши лозим:

ходимнинг бевосита раҳбарига;

ижроия органининг аъзоси билан боғлиқ ҳолатда Кузатув кенгашига.

Тегисли равишда, бевосита раҳбар ёки Кузатув кенгаши манфаатлар тўқнашувини тартибга солиш учун зарур чоралар тўғрисида қарор қабул қилиши керак.

17. Комплаенс хизмати барча аниқланган тўқнашувларни қайд қилади ва уларни бошқариш тўғрисидаги маълумотларни манфаатлар тўқнашуви реестрига киритади.

18. Манфаатлар тўқнашувининг олдини олишнинг ҳар доим ҳам имкони бўлмайди ва у бизнес шароитлари ривожланиши билан юзага келиши мумкин, ушбу ҳолда ходимлар маълумотларни ошкор қилишлари керак. Ўзининг хизмат мажбуриятларини бажаришда ходим манфаатлар тўқнашуви йиллик шакли топширилган пайтда мавжуд бўлмаган манфаатлар тўқнашувидан хабар топиши мумкин. Бундай ҳолатда, ходим шахсий манфаатини ўзининг бевосита раҳбарига маълум қилиши, сўнгра манфаатлар тўқнашуви шаклини янгилаш орқали Комплаенс хизматини хабардор қилиши керак.

Ахборотни ошкор қилишда бундай низони тегишли ҳал қилиш тўғрисида асосли қарор қабул қилиш учун қарама-қарши манфаатлар тўғрисида етарли маълумотлар бўлиши керак.

19. Манфаатлар тўқнашувини аниқлашда Комплаенс хизмати қуйидагиларга тегишли маълумотларни, шунингдек ўз хулосалари ва тавсияларини тақдим этади:

ходимнинг бевосита раҳбарига;

ижроия органининг аъзоси билан боғлиқ ҳолатда Кузатув кенгашига.

Тегисли равишда, бевосита раҳбар ёки Кузатув кенгаши манфаатлар тўқнашувини бошқариш учун зарур чоралар тўғрисида қарор қабул қилиши керак.

20. Комплаенс хизмати ушбу Сиёсатнинг талабларига мувофиқ манфаатлар тўқнашуви Реестрига зарур маълумотларни киритади.

7. Манфаатлар тўқнашувини бошқариш

21. Манфаатлар тўқнашуви мавжудлиги ёки йўқлиги ҳақида Комплаенс хизматига тақдим этилган маълумотлар ходимнинг шахсий иш жилдида сақланади.

22. Комплаенс хизмати Манфаатлар тўқнашуви мавжудлиги ёки йўқлиги ҳақида олинган ахборотни таҳлил қилади, шунингдек, Комплаенс хизматига ходим, унинг бевосита раҳбари ёки Кузатув кенгаши томонидан

тақдим этилган ҳар қандай ахборотни баҳолайди. Тегишли тадқиқотлар, зарур маълумотларни тўплаш ва ҳар бир ҳолатни дастлабки баҳолашдан сўнг, манфаатлар тўқнашувининг мавжудлигини, агар мавжуд бўлса, манфаатлар тўқнашуви турини, яъни реал, потенциал ёки тахмин қилинган тўқнашувларни аниқлайди.

23. Комплаенс хизмати ушбу тўқнашув натижасида юзага келиши мумкин бўлган оқибатларни ва бундай тўқнашув жамият манфаатларига қандай таъсир қилиши мумкинлигини баҳолаши, шунингдек, ходимнинг бевосита раҳбарига ёки Кузатув кенгашига манфаатлар тўқнашувини бошқариш бўйича ўз тавсияларини бериши керак.

Ушбу чора-тадбирлар қўшимча назоратни жорий этиш ёки бундай тўқнашувларнинг олдини олиш учун мавжуд назоратни кучайтириш бўйича жамиятнинг мавжуд сиёсати ва тартибларини янгилашни ўз ичига олиши мумкин.

24. Жамият манфаатлари учун жиддий риск мавжуд бўлган ҳолларда (масалан, компания нуфузи, стратегияси, унинг молиявий ҳолати ва бошқалар) Комплаенс хизмати бевосита раҳбар ёки Кузатув кенгаши билан келишувга кўра, Комплаенс хизматининг тавсиялари бўйича ушбу рискни бартараф қилиш ва манфаатлар тўқнашувини ҳал қилиш бўйича зарур ҳаракатлар ҳақида қарор қабул қилиш учун Ижроия органи раҳбарини хабардор қилиши керак.

Манфаатлар тўқнашувининг хусусиятига қараб, бу ҳаракатлар рад этиш, ҳуқуқдан маҳрум қилиш, ўтказиш, махфий маълумотларга киришни чеклаш, бошқа жойга кўчириш ёки низони ҳал қилиш учун мос келадиган бошқа чораларни ўз ичига олиши мумкин.

8. Манфаатлар тўқнашуви реестри

25. Комплаенс хизмати жалб қилинган томонлар, тўқнашувлар юзага келадиган фаолият, хизматлар, шунингдек, ҳар бир тўқнашувни бошқариш ҳақида маълумотларни ҳавола қилган ҳолда манфаатлар тўқнашуви билан боғлиқ барча юзага келадиган вазиятлар реестрини юритади, янгилаб боради ва сақлайди. Реестр вазиятнинг қандай ҳал этилганлигини қайд қилинишини, шунингдек манфаатлар тўқнашувини бошқариш бўйича жамият ҳаракатлари кетма-кетлигини таъминлайди.

9. Ўқитиш ва хабардорлик

26. Комплаенс хизмати барча ходимларни манфаатлар тўқнашуви масаласи бўйича узлуксиз хабардор қилиш ва ўқитишни таъминлайди. Комплаенс хизмати ходимларни ўқитиш борасида қуйидаги чоратadbирларни амалга оширади:

ходимларнинг манфаатлар тўқнашуви масалаларидан хабардор бўлишини таъминлайдиган ички семинарлар ва очиқ муҳокамалар давомида манфаатлар тўқнашуви муаммолари бўйича долзарб маълумотларни тақдим этади;

ходимлар, раҳбарлар ва Комплаенс хизмати томонидан кадрлар хизмати билан яқин ҳамкорликда тақдим этиладиган коучинг ва узлуксиз ўқитиш воситасида манфаатлар тўқнашуви ҳолатларини аниқлаш ва бошқариш бўйича ходимларнинг кўникмаларини ривожлантиради, шунингдек янги ходимлар учун ишга қабул қилиш дастурлари доирасида ушбу Сиёсат билан танишишни таъминлайди.

10. Манфаатлар тўқнашувини бошқариш сиёсатининг бузилиши ва ҳисобдорлик

27. Ушбу Сиёсатнинг бузилишига йўл қўйилиши мумкин эмас. Ушбу Сиёсат меъёрларининг бузилиши жамиятнинг Ахлоқ кодексида назарда тутилган текширув ва интизомий жазо чораларини қўллашга олиб келиши мумкин.

28. Бевосита раҳбарлар ҳисобдор ходимлар томонидан ушбу Сиёсатнинг ҳар қандай потенциал бузилиши ҳақида Комплаенс хизматига хабар беришлари шарт. Бошқа ходим томонидан ушбу Сиёсатнинг ҳақиқатда ёки эҳтимолий бузилиши тўғрисида хабардор бўлган бошқа барча ходимлар ўз кузатувларини Ахлоқ кодексига мувофиқ Комплаенс хизматига дарҳол хабар беришлари керак.

11. Манфаатлар тўқнашувини бошқариш сиёсати талабларига амал қилиниши устидан назорат

29. Комплаенс хизмати ушбу Сиёсат талабларига риоя қилинишини таъминлаш бўйича масъул ҳисобланади. Комплаенс хизмати Сиёсатнинг илғор тажрибалар асосида такомиллаштириб борилишини таъминлайди.

30. Комплаенс хизмати Сиёсатни камида икки йилда бир марта ёки заруратга кўра вақти-вақти билан Сиёсатнинг мақсадлари йўлида зарур

ўзгаришлар ва қўшимчаларни аниқлаш, шунингдек, амалдаги қонунчилик ҳужжатлари ва ички сиёсатга, жамиятнинг тартиб-таомилларига мувофиқлигини таъминлаш учун қайта кўриб чиқади.

“_____” АЖ (МЧЖ)
Манфаатлар тўқнашувини
бошқариш сиёсатига илова

Манфаатлар тўқнашуви мавжудлиги ёки йўқлиги ҳақида МАЪЛУМОТ

Ф.И.Ш.	
Бўлинма	
Сана	

Мен Манфаатлар тўқнашувини бошқариш сиёсатини ўқиб, танишиб чиқдим ва унга риоя қилишга розиман.

а) Менда Сиёсатга мувофиқ ошкор қилишим керак бўлган ҳозирги манфаатлар тўқнашуви мавжуд эмас.

Мен жамиятда ўз вазифаларимни бажаришда юзага келадиган ҳар қандай манфаатлар тўқнашувини ошкор қилиш мажбуриятини ўз зиммамга оламан.

б) Мен шуни маълум қиламанки, менда манфаатлар тўқнашувига олиб келиши мумкин бўлган шахсий манфаатлар бор ва мен қуйидаги маълумотлар тўғрисида хабар қиламан:

Манфаатлар тўқнашуви ҳолатининг мавжудлиги эҳтимолини кўрсатадиган далилларни иложи борича батафсил ёритиб беринг.

Агар тегишли кўрсатмалар мавжуд бўлса, мен манфаатлар тўқнашувини ҳал қилиш учун жамият раҳбарияти томонидан киритилган ҳар қандай кўрсатма ёки чораларни бажариш мажбуриятини ўз зиммамга оламан.

Сана: _____

ИМЗО

**“UZGASTRADE” АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТИ
БОШҚАРУВ ВА НАЗОРАТ ОРГАНЛАРИ ҲИСОБОТЛАРИГА
ТАЛАБЛАР ТЎҒРИСИДАГИ
НИЗОМИ**

М У Н Д А Р И Ж А:

1. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР.....	1
2. ЖАМИЯТ БОШҚАРУВ ВА НАЗОРАТ ОРГАНЛАРИНИНГ.....	3
3. ЯКУНИЙ ҚОИДАЛАР.....	8

I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

1. “UZGASTRADE” акциядорлик жамиятининг бошқарув ва назорат органлари ҳисоботларига доир талаблар тўғрисидаги мазкур Низом (кейинги ўринларда – Низом деб аталади), Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатлари, Акциядорлик жамиятлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш ва корпоратив бошқарув тизимини такомиллаштириш бўйича комиссия мажлисининг 31.12.2015 йил 9-сонли баённомаси билан тасдиқланган Корпоратив бошқарув кодекси, “UZGASTRADE” акциядорлик жамиятининг (бундан буён - Жамият) Устави ва Жамиятнинг бошқа ички ҳужжатларига мувофиқ ишлаб чиқилган.

2. Мазкур Низом акциядорларнинг умумий йиғилишида ҳисоб берувчи Жамиятнинг бошқарув ва назорат органларининг маълумотларининг (ҳисоботларининг) шакли ва мазмунига доир талабларни белгилайди.

3. Низом Жамиятнинг акциядорларига бошқарув ва назорат органларининг ҳисоботларини тақдим этиш механизмининг татбиқ қилиш ва Жамият фаолиятини бошқаришнинг самарадорлигини ошириш мақсадида ишлаб чиқилган.

4. Мазкур Низомнинг талаблари Жамиятнинг бошқарув ва назорат органларига (Кузатув кенгаши, Ижроия органи) қўлланилади.

II. ЖАМИЯТ БОШҚАРУВ ВА НАЗОРАТ ОРГАНЛАРИНИНГ МАЪЛУМОТИНИНГ (ҲИСОБОТИНИНГ) ШАКЛИ ВА МАЗМУНИ.

1-§. Ижроия органининг ҳисоботи

2-§. Кузатув органининг ҳисоботи

1-§. ИЖРОИЯ ОРГАНИНИНГ ҲИСОБОТИ

5. Ижроия органи Жамиятнинг молия-хўжалик фаолияти натижалари тўғрисида Кузатув кенгаши олдида ҳар чоракда ва акциядорларнинг умумий йиғилиши олдида ҳар йили ҳисоб беради.

6. Ижроия органининг ҳар чоракдаги ҳисоботи ҳисобот даври якунлари бўйича қуйидаги ахборотларни ташкил қилади:

Жамиятнинг жорий ишлаб чиқариш фаолияти тўғрисида;

- молия-хўжалик фаолияти, бизнес-режа кўрсаткичларининг бажарилиши, шу жумладан самарадорликнинг муҳим кўрсаткичлари;

- акциядорларнинг умумий сони;

- йирик битимлар ва аффилланган шахслар билан тузилган битимлар;

- капитал ва айланма маблағларнинг миқдори ва таркиби,

- Жамиятнинг молиявий қўйилмалари (маблағлари);

- дебитор қарздорлик миқдори тўғрисидаги маълумот;

- ҳисобот ва ўтган давр якунлари бўйича қимматли қоғозлар бўйича;

- даромадни тўлаш билан боғлиқ мавжуд қарздорлик;

- бўш штат бирликларини малакавий кадрлар билан тўлдириш, шунингдек Жамият ходимларининг малакасини ошириш бўйича амалга оширилган чоралар тўғрисида.

7. Жамият ижроия органининг ҳисоботи ҳар йили акциядорларнинг йиллик умумий йиғилишида тингланади ва Жамият тўғрисидаги қуйидаги ахборотларни ўз ичига олади:

- 1) Жамиятнинг ижроия органи раҳбарининг мурожаатномаси;
- 2) жорий ишлаб чиқариш ва молия-хўжалик фаолият тўғрисидаги ахборот;
- 3) кадрлар сиёсати;
- 4) ижтимоий сиёсат;
- 5) Жамият фаолиятини ривожлантириш бўйича таклифлар;
- 6) Жамият фаолиятининг устувор йўналишлари.

8. Ижроия органи раҳбарининг мурожаатномаси Жамиятни ташкил қилиш ва ривожлантириш, жорий ишлаб чиқариш ва молия-хўжалик фаолияти, Жамиятнинг ўрта муддатли ва узоқ муддатга мўлжалланган стратегиясига эришиш чоралари, Жамиятнинг ютуқлари ва устувор йўналишлари тўғрисидаги қисқа маълумотларни ўз ичига олади.

9. Жорий ишлаб чиқариш ва молия-хўжалик фаолияти тўғрисидаги ахборот қуйидаги ахборотларни ўз ичига олади:

- ишлаб чиқариш фаолияти;
- молия-хўжалик фаолияти, бизнес-режа кўрсаткичларининг бажарилиши, шу жумладан самарадорликнинг муҳим кўрсаткичлари;
- йирик битимлар ва аффилланган шахслар билан тузилган битимлар;
- капитал ва айланма маблағларнинг миқдори ва таркиби,
- Жамиятнинг молиявий қўйилмалари;
- дебитор қарздорлик тўғрисидаги маълумот;
- ҳисобот йилида қимматли қоғозлар бўйича ҳисобланган даромадларнинг ҳажми, шу жумладан ҳар бир қимматли қоғоз бўйича сўмда битта қимматли қоғоз учун ва битта қимматли қоғоз номинал қийматига фоизларда;
- ҳисобот йилида қўшимча чиқарилган қимматли қоғозлар тўғрисида асосий маълумотлар;
- ҳисобот ва ўтган давр натижалари бўйича қимматли қоғозлар бўйича даромадни тўлаш бўйича мавжуд қарздорлик;
- Жамиятнинг барча ходимлари томонидан бажарилиши шарт бўлган, унинг ваколат доирасига кирувчи масалалар бўйича тасдиқланган ички норматив ҳужжатлар, йўриқномалар ва бошқа ҳужжатлар тўғрисида;
- аудиторлик текширувининг натижаси ва аудиторлик ташкилотининг хулосаси тўғрисида;
- илмий-техник ривожланиш соҳасида, лицензия ва патентлар, янги ишланмалар ва тадқиқотлар бўйича эмитентнинг сиёсати ва харажатлари тўғрисида;

- эмитентнинг кредит рейтинги тўғрисида;

10. Худудий сиёсат тўғрисидаги ахборот қуйидагиларни ўз ичига олади:

- филиаллар билан ишлаш тўғрисида;

- шўъба хўжалик жамиятлари билан ишлаш тўғрисида;

- бошқа таркибий бўлинмалар билан ишлаш тўғрисида.

11. Кадрлар сиёсати тўғрисидаги ахборот қуйидагиларни ўз ичига олади:

- бўш штат бирликларини малакавий кадрлар билан тўлдириш;

- Жамият ходимларининг малакасини ошириш бўйича амалга оширилган чоралар тўғрисида;

- қонун ҳужжатларида мувофиқ Жамият ходимларига қўлланилган интизомий чоралар, ходимлар томонидан меҳнат ва ижро интизомига риоя қилинишини таъминлаш тўғрисида;

- Жамият ходимларини рағбатлантириш бўйича чоралар тўғрисида.

12. Корпоратив бошқарув бўйича ахборот қуйидагиларни ўз ичига олади:

- қонун ҳужжатлари талаблари ва корпоратив бошқарув Кодекси тавсияларига мувофиқ ахборотни ошкор қилиш;

- Кузатув кенгаши, тафтиш комиссияси ёки ижроия органи таркибидаги ўзгаришлар тўғрисида;

- “Ахборот сиёсати тўғрисидаги Низом”, “Дивиденд сиёсати тўғрисидаги Низом”, “Ички назорат тўғрисидаги Низом”, “Манфаатлар қарама-қаршилиги вақтида ҳаракатлар тартиби тўғрисидаги Низом” талабларининг бажарилиши тўғрисида;

- акциядорларнинг амалдаги қонун ҳужжатларида белгиланган ахборотни олиш, акциядорларнинг умумий йиғилишида иштирок этиш ва дивиденд тўлаш бўйича ҳуқуқларига риоя этилиши тўғрисида;

- ҳисобот йилида Жамият фаолиятидаги асосий корпоратив ҳодисалар, муҳим фактлар тўғрисида;

- бошқарув ва назорат органларининг акциядорлар ва инвесторлар билан ўзаро ҳамкорлиги тўғрисида;

13. Ижтимоий сиёсат тўғрисидаги ахборот қуйидагиларни ўз ичига олади:

- Жамият ходимларини ижтимоий қўллаб-қувватланишини амалга ошириш бўйича чоралар тўғрисида;

- ўтказилган хайрия тадбирлари тўғрисида.

14. Жамият фаолиятини ривожлантириш бўйича таклифлар қуйидагиларни ўз ичига олади:

- асосий фаолият соҳасидаги ривожланиш истиқболларининг таҳлили;

- унинг молиявий барқарорлигини таъминлаш;

- меҳнат ишлаб чиқарилишининг ва маҳсулот рақобатбардошлигининг ошиши;

- ишлаб чиқариш, экспорт ва энергия самарадорлиги кўрсаткичларининг ўсиши;

- ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик янгиланишини амалга ошириш ва натижада акциялар нархининг ўсиши;

- хорижий тажрибада муваффақиятли апробация қилинган бошқарув усуллари, шу жумладан SWOT, GAP, таҳлил ва бошқа ёндашишлар, махсус дастурий маҳсулотларни қўллаш бўйича;

- Жамиятда қабул қилинган ҳар бир ривожланиш режаларида белгиланган мақсадларга эришиш мониторингини амалга оширишга йўл кўйувчи зарур миқдор ва сифат меъзонларини татбиқ қилиш бўйича.

15. Жамиятнинг устувор йўналишлари тўғрисидаги ахборот қуйидагиларни ўз ичига олади:

- акциядорлик жамиятининг соҳага оид хусусияти, рақобат муҳитининг таҳлили, экспортга йўналтиришни таъминлаш ва тегишли тармоқ, соҳалар ва ҳудудларни ривожлантириш бўйича тасдиқланган давлат дастурларини амалга оширишдан келиб чиқиб 5 йилдан ошiq муддатга узоқ муддатли стратегияси асосида ишлаб чиқилган устувор йўналишлар тўғрисида маълумот.

16. Ижроия органининг ҳисоботи асосида “Қимматли қоғозлар бозорида ахборотни тақдим этиш ва чоп этиш Тартиби” (31.07.2012 й. 2383-сонли рўйхатга олинган) талабларига мувофиқ шакл бўйича Жамиятнинг йиллик ҳисоботи тайёрланади.

17. Жамиятнинг йиллик ҳисоботи акциядорларнинг умумий йиғилиши томонидан тасдиқланади ва Жамиятнинг кузатув кенгаши томонидан акциядорларнинг йиллик умумий йиғилишининг ўтказилиш санасига қадар 10 кундан кечиктирмай дастлабки тасдиқланади.

18. Йиллик ҳисобот акциядорларнинг умумий йиғилиши томонидан тасдиқланганидан сўнг рақамланади, тикилади ва Жамиятда сақланади.

2-§. КУЗАТУВ КЕНГАШИНИНГ ҲИСОБОТИ

19. Жамиятнинг Кузатув кенгаши акциядорларнинг йиллик умумий йиғилишига ҳар йили Жамиятни бошқариш ва корпоратив қонун ҳужжатлари талабларига риоя қилиниши тўғрисида ҳисобот тақдим қилади.

20. Кузатув кенгашининг ҳисоботи қуйидагилар йўналишларни ўз ичига олади:

- 1) бошқарув ва назорат органлари фаолиятини мувофиқлаштириш тўғрисида;
- 2) Кузатув кенгаши қўмиталари билан ишлаш тўғрисида;
- 3) ички назорат тўғрисида;
- 4) Жамиятнинг корпоратив бошқарувини яхшилаш бўйича таклифлар;
- 5) Жамият фаолиятининг устувор йўналишларини белгилаш.

21. Бошқарув ва назорат органлари фаолиятини мувофиқлаштириш тўғрисидаги ахборот қуйидагиларни ўз ичига олади:

- бошқарув ва назорат органларининг иш режаларини ишлаб чиқиши тўғрисида;

- Жамиятнинг стратегиясини ижроси бўйича назорат тўғрисида;

- Жамият томонидан Корпоратив кодекс нормаларига риоя қилинаётганлиги, шу жумладан Кодекс тавсияларига асосан ишлаб чиқилган “Ахборот сиёсати тўғрисида”ги, “Дивиденд сиёсати тўғрисида”ги, “Манфаатлар тўқнашувида ҳаракат қилиш тўғрисида”ги Низомлар ва бошқа ички ҳужжатларга;

- Жамиятнинг ташкилий тузилмаси қонунчилик талабларига мувофиқлиги бўйича мунтазам равишда мувофиқлаштирилаётганлиги тўғрисида;

- Жамиятнинг раҳбар лавозимларига танлов ўтказиш регламентига мувофиқ хорижий менежерларини иштирок этиш имкониятини ҳисобга олиб ҳар йилги ўтказилган танловлар тўғрисида;

- молиявий ҳисоботларни МХҲСга мувофиқ чоп қилинишига ўтишни таъминлашни мувофиқлаштириш тўғрисида;

- бошқарув органи аъзоларини малакасини оширилиши тўғрисида;

22. Кузатув кенгаши қўмитасининг ишлари тўғрисидаги ахборот қуйидаги маълумотларни ўз ичига олади:

- Жамият Кузатув кенгаши қошидаги тегишли масалалар бўйича қўмиталар (ишчи гуруҳ)нинг фаолияти тўғрисида;

- уларнинг йиғилишининг даврийлиги ва улар томонидан қабул қилинган қарорларнинг натижалари тўғрисида.

23. Ички назорат тўғрисидаги ахборот қуйидагиларни ўз ичига олади:

- Жамиятнинг йиллик бизнес режасининг, шу жумладан самарадорликнинг муҳим кўрсаткичларининг бажарилиши тўғрисида ижроия органининг ҳисоботлари тўғрисида ахборот;

- Ички аудит хизматининг фаолияти тўғрисидаги ахборот, шу жумладан унинг ходимларини тайинлаш (аттестациядан ўтказиш), шунингдек ҳисоботларни ҳар чорақда тинглаш;

- корпоратив маслаҳатчининг фаолияти тўғрисида ахборот;

- назорат органлари аъзоларининг малакасини ошириш тўғрисида;

- Жамиятда йирик битимлар ва аффилиланган шахслар билан битимларнинг мавжудлиги, йирик битимлар ва аффилиланган шахслар билан битимлар бўйича қабул қилинган қарорлар тўғрисида Жамият тафтиш комиссиясининг хулосаларини кўриб чиқиш тўғрисида;

- аудиторлик текширувини ўтказиш, аудиторлик ташкилотини ва унинг хизматлари тўлов миқдорининг чегараларини белгилаш тўғрисида;

- Жамиятдаги ички назоратнинг аҳволи тўғрисида аудиторлик ташкилотининг хулосаси;

- “Ички назорат тўғрисидаги Низом” талабларига риоя қилиниши тўғрисидаги ахборот.

24. Жамият фаолиятини ривожлантириш тўғрисидаги ахборот қуйидаги маълумотларни ўз ичига олади:

- асосий фаолият соҳасида ривожланиш истиқболларининг таҳлили;
- унинг молиявий барқарорлигини таъминлаш;
- меҳнат ишлаб чиқарилишининг ва маҳсулот рақобатбардошлигининг ошиши;
- ишлаб чиқариш, экспорт ва энергия самарадорлиги кўрсаткичларининг ўсиши;
- ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик янгиланишини амалга ошириш, ва натижада акциялар нархининг ошиши;
- хорижий тажрибада муваффақиятли апробация қилинган бошқарув усуллари, шу жумладан SWOT, GAP, таҳлил ва бошқа ёндашишлар, махсус дастурий маҳсулотларни қўллаш бўйича;
- Жамиятда қабул қилинган ҳар бир ривожланиш режаларида белгиланган мақсадларга эришиш мониторингини амалга оширишга йўл қўйувчи зарур миқдор ва сифат меъзонларини татбиқ қилиш бўйича.

25. Жамиятнинг устувор йўналишлари тўғрисидаги ахборот қуйидагиларни ўз ичига олади:

- соҳага оид хусусият, рақобат муҳитининг таҳлили, экспортга йўналтиришни таъминлаш ва тегишли тармоқ, соҳалар ва ҳудудларни ривожлантириш бўйича тасдиқланган давлат дастурларини амалга оширишдан келиб чиқиб 5 йилдан ошiq муддатга акциядорлик жамиятини узоқ муддатли стратегияси асосида ишлаб чиқилган устувор йўналишлар тўғрисида маълумот.

III. ЯКУНЛОВЧИ ҚОИДАЛАР

30. Акциядорларнинг умумий йиғилишида мазкур Низом ва қонун ҳужжатларига мувофиқ тузилган бошқарув ва назорат органларининг бошқа ҳисоботлари ҳам қўрилади.

31. Жамият бошқарув ва назорат органларининг бошқа ҳисоботларига қуйидагилар киради:

- а) Жамият ижроия органининг таркибий бўлинмалари раҳбарларининг ҳисоботлари;
- б) Жамият Кузатув кенгаши қошида ташкил этилган қўмита раисларининг ҳисоботлари;
- в) Жамият ички аудит хизматининг ҳисоботлари;
- г) Жамият ташқи аудиторининг ҳисоботлари;
- д) миноритар акциядорлар қўмитаси раисининг ҳисоботлари.

32. Мазкур Низом, шунингдек унга ўзгартиш ва қўшимчалар Жамият акциядорларнинг умумий йиғилиши томонидан таслиқланади.

33. Мазкур Низомга ўзгартириш ва қўшимчалар Жамият Кузатув кенгаши аъзолари, Жамият аудитори, Жамият тафтиш комиссияси, Жамият ижроия органининг таклифи бўйича киритилади.

34. Агар қонун ҳужжатлари ва Ўзбекистон Республикасининг меъёрий ҳужжатларига ўзгартиришлар натижасида мазкур Низомнинг алоҳида моддалари уларга зид келса, ушбу моддалар ўз кучини йўқотади ва Низомга ўзгартиришлар киритилгунга қадар Жамият Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари ва меъёрий ҳужжатларига амал қилади.

**“UZGASTRADE” АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТИ
ИЧКИ НАЗОРАТИ ТЎҒРИСИДАГИ
НИЗОМ**

М У Н Д А Р И Ж А:

1. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР.....	1
2. ИЧКИ НАЗОРАТ ТИЗИМИ ТАВСИФИ ВА МАҚСАДЛАРИ.....	3
3. ИЧКИ НАЗОРАТ ТИЗИМИ ФАОЛИЯТИНИНГ АСОСИЙ ТАРТИБ ҚОИДАЛАРИ.....	4
4. ИЧКИ НАЗОРАТ ТИЗИМИНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ.....	5
5. ИЧКИ НАЗОРАТ УЧУН МАСЪУЛ ОРГАНЛАР ВА ШАХСЛАР.....	6
6. ИЧКИ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ.....	7
7. ЯКУНИЙ ҚОИДАЛАР.....	8

I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

1. “UZGASTRADE” акциядорлик жамиятининг (бундан буён - Жамият)нинг мазкур Ички назорат тўғрисидаги мазкур Низом (кейинги ўринларда – Низом деб аталади), Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатлари, Акциядорлик жамиятлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш ва корпоратив бошқарув тизимини такомиллаштириш бўйича комиссия мажлисининг 31.12.2015 йил 9-сонли баённомаси билан тасдиқланган Корпоратив бошқарув кодекси, “UZGASTRADE” акциядорлик жамиятининг (бундан буён - Жамият) Устави ва Жамиятнинг бошқа ички ҳужжатларига мувофиқ ишлаб чиқилган.

2. Мазкур Низом ички назорат тизими мақсадлари ва вазифаларини, унинг фаолият тамойилларини, шунингдек Жамиятнинг ички назорат учун масъул органлари ва шахсларини белгилайди.

II. ИЧКИ НАЗОРАТ ТИЗИМИ ТАВСИФИ ВА МАҚСАДЛАРИ

3. Ички назорат – Жамият мақсадларига асосланган ва етарли даражада эришиш, Жамият фаолиятининг қуйидаги тамойилларга мувофиқлигини тасдиқлаш мақсадида Жамият фаолиятига бириктирилган ва таваккалчиликларни бошқариш, назорат ва корпоратив бошқарув жараёнлари самарадорлигини оширишга йўналтирилган узлуксиз амал қилувчи жараёндан иборат:

- фаолият самарадорлиги ва унумдорлиги, шу жумладан фаолият самарадорлиги даражаси, фойда олиш ва активларни ҳимоя қилиш; - молиявий ҳисобот ишончлилиги ва шубҳасиз тўғрилиги;

- Жамият фаолиятини тартибга солувчи қонунларга ва ҳуқуқ меъёрларига мувофиқлиги.

4. Ички назорат тизими – Жамиятда Ички аудит хизмати, Кузатув кенгаши, Ижроия органи ҳамда бошқа барча даражадаги ва барча функциялар бўйича ходимлар (қуйида матн бўйича – “ички назорат субъектлари”) томонидан ташкил қилинган ва амалга ошириладиган ички ҳужжатлар билан қатъий белгиланган ички назоратнинг ташкилий тузилмаси, назорат қилувчи чоралари, тадбирлари ва усуллари мажмуидан иборат. Жамиятнинг ички назорат органлари аъзолари малакалари улар фаолияти тўғрисидаги Низомларда белгиланиши мумкин.

5. Ички назорат тадбирлари –Жамиятнинг аудит, Жамиятнинг Кузатув кенгаши, Жамият Ижроия органи, шунингдек ички назоратни амалга ошириш ваколати берилган Жамият бўлинмалари (қуйида матн бўйича – “Жамият бўлинмалари”) томонидан амалга ошириладиган ҳамда молия-хўжалик фаолиятини амалга оширишда қонунлар ва Жамиятнинг ички ҳужжатлари талаблари бузилишларини аниқлашга, Жамият томонидан белгиланган мақсадларга эришиш самарадорлигини, шунингдек ички назорат тадбирларини амалга ошириш жараёнида ички назорат субъектларининг ўзаро ҳамкорлигини баҳолашга қаратилган чора-тадбирлар мажмуидан иборат.

6. Ички назоратнинг асосий мақсади барча акциядорлар ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини таъминлашдан иборат.

7. Ички назорат оператив режимда қуйидагиларни таъминлашга мўлжалланган:

- Жамият активларини яхши сақлаш, ресурсларидан тежамли ва самарали фойдаланиш;
- амалдаги қонунлар ва Жамиятнинг ички ҳужжатлари талабларига риоя қилиш;
- Жамиятнинг ривожланиш стратегиясини, Жамиятнинг бизнес-режаларини ўрта ва узоқ муддатли даврда бажариш;
- Жамиятнинг бухгалтерия ҳужжатлари, молия ҳисоботлари ва бошқарув ахбороти тўлиқлиги ва шубҳасиз тўғрилиги;
- Жамият фаолиятида таваккалчиликлар юзага келган пайтда аниқлаш, идентификациялаш ва таҳлил қилиш;
- Жамият фаолиятида таваккалчиликларни режалаштириш ва бошқариш, шу жумладан таваккалчиликни бошқариш бўйича замонавий ва мос қарорлар қабул қилиш;
- амалий доираларда ва истеъмолчиларда Жамиятнинг ижобий образ-этиборини белгилаш ва бир маромда сақлаш;
- Ижроия органи, Кузатув кенгаши аъзоларига ва котибига иш ҳақи ва бадаллар тўлови, шу жумладан унинг миқдорлари мослиги, шаффофлиги ва объективлиги.

III. ИЧКИ НАЗОРАТ ТИЗИМИ ФАОЛИЯТИНИНГ АСОСИЙ ТАРТИБ ҚОИДАЛАРИ

8. Жамиятда ички назорат тизими қуйидаги тамойиллар асосида ташкил қилинади:

- узлуксиз фаолият олиб бориш – ички назорат тизимининг доимий ва тегишлича фаолият юритиши Жамиятга меъёрдан ҳар қандай четга чиқишлар (оғишлар)ни ўз вақтида аниқлаш ва келгусида улар юзага келишининг олдини олиш имконини беради;
- ички назорат тизими барча иштирокчиларининг ҳисобдорлиги – ҳар бир шахс томонидан назорат функцияларининг бажарилиш сифати ички назорат тизимининг бошқа иштирокчиси томонидан назорат қилиб борилади;
- вазифалар тақсимланиши – Жамият назорат функциялари бир-бирини такрорлашига йўл қўйилмаслигига ва ушбу функциялар ходимлар ўртасида муайян активлар билан операцияларни тасдиқлаш, операцияларни ҳисобга олиш, активлар сақланишини таъминлаш ва улар инвентаризациясини ўтказиш билан боғлиқ функцияларнинг бир шахснинг ўзи томонидан бажарилмайдиган тарзда тақсимланишига интилади;
- операцияларнинг тегишлича маъқулланиши ва тасдиқланиши – Жамият ваколатли шахслар томонидан уларнинг тааллуқли ваколатлари доирасида барча молияхўжалик операциялари тасдиқланиши тартибини белгилашга интилади;
- Жамиятнинг кундалик ички назоратини амалга оширадиган бўлинмаларнинг ўзаро ташкилий боғлиқлигини ва унинг бевосита Жамият раҳбарига, Аудит қўмитаси орқали Кузатув кенгашига функционал ҳисобдорлигини таъминлаш;
- Жамият ишлайдиган барча ички назорат субъектларининг назорат функцияларининг тегишлича бажарилиши учун жавобгарлиги;

- Жамият барча бўлинмаларининг ўзаро аниқ ҳамкорлиги асосида ички назоратни амалга ошириш;

- доимий ривожланиш ва такомиллашиш – Жамият ички назорат тизимининг янги вазифаларни ҳал қилиш зарурати ҳисобга олинган ҳолда мослашувчан созланиши, тизимнинг ўзини кенгайтириш ва такомиллаштириш учун шарт-шароитларни таъминлашга интилади;

- четга чиқишлар (оғишлар) тўғрисидаги хабарларнинг ўз вақтида узатилиши – Жамиятда четга чиқишлар (оғишлар)ни бартараф қилиш тўғрисида қарорлар қабул қилиш ваколатига эга шахсларга тегишли хабарлар узатилишининг максимал қисқа муддатлари белгиланган;

- Жамият фаолиятининг назорат йўлга қўйилаётган соҳалари устуворлигини белгилаш – ички назорат тизими билан қамраб олинadиган стратегик йўналишлар ажратиб кўрсатилади.

IV. ИЧКИ НАЗОРАТ ТИЗИМИНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ

9. Ички назорат тизими куйидаги ўзаро боғлиқ таркибий қисмларни ўз ичига олади:

- Жамият ходимларининг одоб-ахлоқ қадриятларини ва билимдонликларини, раҳбарлик сиёсатини, раҳбарият томонидан ваколатлар ва жавобгарликларни тақсимлаш усули, ташкил қилиш тузилиши ва ходимлар малакалари оширилишини, шунингдек Кузатув кенгаши томонидан раҳбарлик ва бошқарувни ўз ичига оладиган назорат муҳити;

- таваккалчиликларни баҳолаш – турли даражаларда ўзаро боғлиқ ва ички изчил муайян вазифаларни бажаришда тааллуқли таваккалчиликларни идентификациялаш ва таҳлил қилишни ўз ичига олади;

- Жамият раҳбарияти қарорларининг тегишлича ижросини кафолатлайдиган сиёсат ва тадбирлар умумлаштирувчи ва маъқуллашлар, жарималар, тасдиқномалар бериш, текширувлар ўтказиш, жорий фаолият назорати, активлар хавфсизлиги кафолати ва ваколатларни тақсимлаш каби бир қатор турли хил ҳаракатларни ўз ичига олувчи назорат бўйича фаолият;

- маълумотларни ўз вақтида самарали аниқлаш, уларни рўйхатдан ўтказиш ва уларни айирбошлашга йўналтирилган, шу жумладан барча ички назорат субъектларида Жамиятда қабул қилинган ички назорат сиёсати ва тадбирлари тушунчасини шакллантириш ва улар ижросини таъминлаш мақсадида ахборот алмашинуви самарали каналлари ташкил қилинишини ўз ичига оладиган ахборот таъминоти ва ахборот алмашинуви бўйича фаолият. Жамият ахборотдан рухсатсиз фойдаланишдан ҳимояланиш учун чора-тадбирлар кўради;

- мониторинг – бошқарув ва назорат функцияларини ўз ичига оладиган жараён бўлиб, ушбу жараён давомида вақт ўтиши билан тизимнинг ишлаш сифати баҳоланади.

Ички назорат тизимини баҳолаш молия ҳисоботининг шубҳасиз тўғрилигига таъсир кўрсатувчи хатолар юзага келиш эҳтимолини аниқлаш, ушбу хатолар жиддийлигини аниқлаш ва ички назорат тизимининг белгиланган вазифалар бажарилишини таъминлаш имкониятини белгилаш учун ўтказилади. Ички назорат тизимининг самарадорлигини баҳолаш учун Жамиятда Кузатув кенгаши таклифи

асосида Акциядорлар умумий йиғилиши қарори билан мустақил профессионал ташкилот – консультант жалб қилиниши мумкин.

V. ИЧКИ НАЗОРАТ УЧУН МАСЪУЛ ОРГАНЛАР ВА ШАХСЛАР

10. Ички назорат Жамиятнинг кузатув кенгаши қошидаги Аудит қўмитаси, Жамиятнинг Кузатув кенгаши, Ижроия органи раҳбари, Ички аудит хизмати, шунингдек Жамиятнинг барча даражалардаги ходимлари томонидан уларнинг амалдаги қонунлар ва Жамиятнинг ички маҳаллий ҳужжатлари билан белгиланган ваколатлари доирасида амалга оширилади.

11. Жамиятда фаолият юритадиган бўлинмалар вазифалари, ҳуқуқлари ва мажбуриятлари, жавобгарлиги, уларга тўланадиган бадаллар ва иш ҳақларини ҳисобкитоб қилиш тартиби Жамиятнинг ички ҳужжатлари билан назарда тутилган. Мазкур ҳужжатлар, бошқа ҳужжатлар каби бевосита ёки билвосита ички назорат масалаларига дахлдор бўлиб, мазкур Низомга зид келиши мумкин эмас.

12. Жамият молия-ҳўжалик фаолияти назоратининг тизимли хусусиятини таъминлаш мақсадида Ички аудит хизмати, Ижроия органи раҳбари, юридик – бухгалтерия хизмати, бўлим бошлиқлари ва Жамиятнинг 6 ички назорат функционал вазифаларини бажарадиган барча ходимлари ички назорат тадбирлари ўтказилишини амалга оширадilar.

13. Кузатув кенгаши функцияси қуйидагиларни ўз ичига олади:

- ички назорат тизими муайян операциялари ва стратегияларини ривожлантириш ва тасдиқлаш йўналишларини белгилаш;

- Жамият акциядорларининг йиллик умумий йиғилишида Жамият ижроия органи, ички ва ташқи аудитлар, бошқа манбалардан ва ички назоратнинг барча соҳалари, шу жумладан молия назорати, операцион назорат, қонунларга риоя қилиниши устидан назорат, ички сиёсат ва тадбирлар назорати бўйича шахсий кузатувлардан олинadиган ахборот маълумотларига асосланган ички назорат тизимининг ишончлилиги ва самарадорлигининг ҳар йил ўтказиладиган таҳлили ва баҳоланиши натижалари тўғрисида хабар бериш;

- Жамият бўлинмалари тузилиши ва таркибини, ички назорат учун масъул шахсни белгилаш;

- ички назорат тадбирларини доимий такомиллаштириш.

14. Молия ҳисоботларининг шубҳасиз тўғрилиги ва тўлиқлиги, Жамият ички назорат тизимининг ишончлилиги ва самарадорлиги устидан назорат ташкил қилиниши учун жавобгарлик Кузатув кенгаши қошидаги Аудит қўмитасига юкланади, унинг роли, мақсадлари, вазифалари ва ваколатлари Жамиятнинг Кузатув кенгаши қошидаги Аудит қўмитаси тўғрисидаги Низомда акс эттирилган.

15. Кузатув кенгаши томонидан тасдиқланган Жамият ички назорати соҳасидаги сиёсатига мувофиқ фаолият юритиши учун жавобгарлик Ижроия орган раҳбарига юкланади. Жамиятнинг Ижроия орган раҳбари ички назорат тизими тадбирларини татбиқ қилади ва унинг самарали фаолият юритишини таъминлайди, Кузатув кенгашини Жамиятнинг барча таваккалчиликлари, ички назорат тизимининг жиддий камчиликлари, шунингдек уларни бартараф қилиш бўйича чора-тадбирлар режалари ва натижалари тўғрисида ўз вақтида хабардор қилади.

16. Ҳар қандай даражадаги бўлинмалар ходимлари (шу жумладан раҳбарлари) ўз ваколатлари доирасида назоратни амалга ошириш бўйича батафсил стратегиялар ва тадбирлар ишлаб чиқишда бевосита иштирок қиладилар. Жиддий масалалар ёки муайян битим бўйича юзага келган таваккалчиликлар тўғрисида ходимлар Жамиятнинг юқори раҳбариятига хабар берадилар.

17. Жамият ва унинг алоҳида бўлинмалари молия-хўжалик фаолияти устидан назоратни амалга ошириш учун жавобгарлик доимий амал қилувчи ички назорат органи – Жамият кузатув кенгаши қошидаги Аудит қўмитасига ва ички аудит хизматига юкланади, унинг роли, мақсадлари, вазифалари ва ваколатлари уларнинг низомларида акс эттирилган.

18. Ички назорат тадбирлари ижроси устидан, айнан эса Жамиятнинг амалга оширилаётган молия-хўжалик операцияларининг Ўзбекистон Республикаси қонунларига ва умуман Жамият, унинг алоҳида бўлинмалари Уставига мувофиқлиги устидан, шунингдек бухгалтерия ва молия ҳисоботи тўлиқлиги ва шубҳасиз ишончлилиги устидан мунтазам назоратнинг амалга оширилиши учун жавобгарлик Ички аудит хизматига юкланади, унинг роли, мақсадлари, вазифалари ва ваколатлари Ички аудит хизмати тўғрисидаги Низомда акс эттирилган. Ички аудит хизмати тўғрисидаги Низом Жамиятнинг Кузатув кенгаши томонидан тасдиқланади.

19. Жамиятнинг Ички аудит хизмати Кузатув кенгаши қошидаги Аудит қўмитаси олдида ички аудит, ички назорат тизими натижалари тўғрисида ҳисобот беради.

20. Қуйидаги шахслар Жамиятнинг Ички аудит хизматида лавозимларни эгаллаш ҳуқуқига эга эмас:

- иктисодиёт соҳасида жиноят учун ёки тартибга қарши жиноят учун тўланмаган судланганликка эга шахслар;

- Жамият раҳбари ёки ижроия органи аъзоси ҳисобланган шахс. Кузатув кенгаши томонидан Ички аудит хизмати таркибига кирувчи шахсларга бошқа талаблар белгиланиши мумкин.

21. Ички назорат тизимининг тегишлича фаолият юритиши ходимларнинг малакаларига ҳам боғлиқ. Жамият кадрларни танлаш, ёллаш, ўқитиш, тайёрлаш ва ходимларнинг хизмат мартабаларини ошириш тизими уларнинг юқори малакасини таъминлаши ва улар томонидан барча одоб-ахлоқ стандартларига риоя қилиниши учун чора-тадбирлар кўради.

VI. ИЧКИ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ

22. Жамиятнинг ички назорат тадбирлари қуйидагиларни ўз ичига олади:

- Жамият бошқарувининг турли даражаларида ўзаро боғлиқ ва бир-бирига зид мақсадлар ва вазифаларни аниқлаш;

- Жамиятнинг фаолият мақсадларига эришишига тўсқинлик қилиши мумкин бўлган яширин ва мавжуд оператив, молия, стратегик ва бошқа таваккалчиликларни аниқлаш ва таҳлил қилиш;

- ички назоратнинг жиддий таркибий қисмларини баҳолаш;

- бизнес-жараёнларнинг ички назорат тизими самарадорлигини баҳолаш;

- Жамият таркибий бўлинмалари, мансабдор шахслари ва бошқа ходимларининг иш самарадорлиги мезонларини аниқлаш ва баҳолаш;
- молиявий ва бошқа маълумотларни олдинги давр учун таққосланадиган ахборот ёки кутилаётган фаолият натижалари билан солиштириш орқали кўриб чиқиш;
- воқеа-ҳодисалар, операциялар ва транзакцияларни ҳисобга олишнинг мос усулларида фойдаланиш;
- активлар яхши сақланишини текшириш;
- ички назорат тадбирларини тегишлича ҳужжатлаштириш; - ички назорат тизими сифатини мунтазам баҳолаб бериш;
- Жамиятнинг барча ходимларини уларнинг ички назорат соҳасидаги мажбуриятлари тўғрисида хабардор қилиш;
- Жамият ходимлари ўртасида муҳим вазифаларни тақсимлаш (шу жумладан, операцияларни маъқуллаш ва тасдиқлаш, операциялар ҳисобини юритиш, ресурсларни бериш, сақлаш ва олиш, операцияларни таҳлил қилиш ва текшириш бўйича);
- операцияларнинг фақат тааллуқли ваколатларга эга шахслар томонидан тасдиқланиши ва амалга оширилиши;
- ички назорат мақсадларига эришиш учун керакли бошқа тадбирлар.

23. Ички назорат тадбирларини ўтказишда текшириш, кузатиш, тасдиқлаш, қайта ҳисоблаш усуллари, шунингдек ички назорат тадбирларини амалга ошириш учун керакли бошқа усуллар қўлланилади.

VII. ЯКУНИЙ ҚОИДАЛАР

24. Мазкур Низом, шунингдек унга киритилган ўзгартиришлар ва қўшимчалар Акциядорлар умумий йиғилиши томонидан тасдиқланади.

25. Мазкур Низомга ўзгартиришлар ва қўшимчалар Жамиятнинг Кузатув кенгаши, Жамиятнинг ташқи аудити, Жамиятнинг ички аудит хизмати аъзолари, Жамиятнинг ижроия органи раҳбари таклифлари бўйича киритилади.

26. Агар Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва меъёрий (норматив) ҳужжатларига ўзгартиришлар киритилиши натижасида мазкур Низомнинг айрим моддалари уларга зид келса, ушбу моддалар ўз кучини йўқотади ва Жамият томонидан Низомга тааллуқли ўзгартиришлар киритиладиган пайтга қадар Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва меъёрий (норматив) ҳужжатларига амал қилинади. Бунда мазкур Низом исталган қисмларидан бирининг ҳақиқий эмас деб топилиши умуман бутун Низомнинг ҳақиқий эмаслигига олиб келмайди.

**“UZGASTRADE” АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТИНИНГ
ЙИРИК БИТИМЛАРНИ ТУЗИШ ТЎҒРИСИДАГИ
ТАРТИБИ**

М У Н Д А Р И Ж А:

1.	УМУМИЙ ҚОИДАЛАР.....	2
2.	ЖАМИЯТНИНГ ЙИРИК БИТИМЛАРИНИ АНИҚЛАШ ВА ЎРГАНИШ ТАРТИБИ	3
3.	ЖАМИЯТНИНГ ЙИРИК БИТИМЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ, МАЪҚУЛЛАШ ВА ТУЗИШ ТАРТИБИ ТАҒДИШ КОМИССИЯНИНГ ҚУҚУҚЛАРИ ВА ВАКОЛАТЛАРИ.....	7
4.	ЖАМИЯТНИНГ ЙИРИК БИТИМЛАРНИ ТУЗИШ ТАРТИБИГА РИОЯ ЭТИЛИШНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ	8
5.	ЖАМИЯТНИНГ ЙИРИК БИТИМЛАРИ ТЎҒРИСИДАГИ АХБОРОТНИ ОШКОР ЭТИШ.....	9
6.	ЖАМИЯТНИНГ ЙИРИК БИТИМЛАРИГА ДОИР ҚУЖЖАТЛАРНИ САҚЛАШ.....	10
7.	ЖАВОБГАРЛИК.....	10
8.	ЯКУНИЙ ҚОИДАЛАР.....	10

I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

1. Ушбу «UZGASTRADE» АЖнинг йирик битимларни тузиш Тартиби (кейинги ўринларда – Тартиб) Ўзбекистон Республикасининг «Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида»ги Қонуни (кейинги ўринларда – Қонун), бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар, Корпоратив бошқарув Кодекси (Акциядорлик жамиятлари фаолиятининг самарадорлигини ошириш ва корпоратив бошқарув тизимини такомиллаштириш комиссиясининг 31.12.2015йилдаги 9-сонли мажлис баёни билан тасдиқланган) тавсиялари, «UZGASTRADE» АЖнинг (кейинги ўринларда - Жамият) Устави ва Жамиятнинг бошқа ички ҳужжатлари асосида ишлаб чиқилган.

2. Ушбу Тартиб Жамиятнинг йирик битимларини аниқлаш тартиб-таомилларига, ўрганишга, тайёрлашга, қарорлар қабул қилишга ва тузишга бўлган асосий талабларни белгилайди.

3. Ушбу Тартиб Жамиятда, шу жумладан Жамиятнинг йирик битимларини тузишда ички назоратнинг самарали тизимини ташкил этиш мақсадида ишлаб чиқилган.

4. Жамиятнинг йирик битимларини тузиш Жамиятнинг муҳим корпоратив ҳаракатлари сирасига киради, йирик битимларни тузиш қонун ҳужжатлари, Жамиятнинг Устави ва ички ҳужжатлари талабларига мувофиқ амалга оширилиши шарт.

II. ЖАМИЯТНИНГ ЙИРИК БИТИМЛАРИНИ АНИҚЛАШ ВА ЎРГАНИШ ТАРТИБИ

5. Жамият томонидан мол-мулкни олиш ёки уни бошқа шахсга бериш ёхуд мол-мулкни бошқа шахсга бериш эҳтимоли билан боғлиқ битим (шу жумладан қарз, кредит, гаров, кафилик) ёки ўзаро боғланган бир нечта битим, агар бошқа шахсга берилаётган мол-мулкнинг ёки олинаётган мол-мулкнинг баланс қиймати бундай битимларни тузиш тўғрисидаги қарор қабул қилинаётган санада Жамият соф активлари миқдорининг 15 (ўн беш) фоизидан ортиғини ташкил этса, йирик битим деб ҳисобланади, кундалик хўжалик фаолиятини юритиш жараёнида тузиладиган битимлар ҳамда акцияларни ва бошқа қимматли қоғозларни жойлаштириш билан боғлиқ бўлган битимлар бундан мустасно.

Корпоратив бошқарув кодекси тавсияларига ва қоидаларига мувофиқ Акциядорларнинг умумий йиғилиши Ижроия органининг йирик битимларни мустақил тузиши учун Жамиятнинг жорий хўжалик фаолияти билан боғлиқ битимлар рўйхатини аниқлайди.

Жамиятнинг йиллик бизнес-режасини тайёрлашда Жамиятнинг ушбу жараёнда иштирок этадиган тузилмавий бўлинмалари режа йилида тузилиши режалаштирилаётган йирик битимлар аниқланган тақдирда, ушбу битимлар тўғрисидаги ахборотни ушбу битимлар бўйича ўз вақтида белгиланган тартибда қарор қабул қилиш учун Ижроия органи раҳбарига маълум қилишади.

6. Жамиятнинг йирик битимни тузишида йирик битим предмети бўлган мол-мулк Жамият томонидан бозор қиймати бўйича бошқа шахсга берилади.

7. Қонунга мувофиқ “Жамиятнинг йирик битими предмети бўлган мол-мулкнинг бозор қиймати деганда мол-мулкнинг энг эҳтимол тутилган нархи тушунилиб, ушбу қиймат бўйича мазкур мол-мулк очик бозорда битимнинг тарафлари барча зарур ахборотга эга бўлган ҳолда ўз манфаатлари йўлида оқилона

ва ихтиёрий равишда ҳаракат қиладиган рақобат шароитида бошқа шахсга берилиши мумкин, битим нархининг баланд-пастлигида эса бирор-бир фавқулодда ҳолатлар, шу жумладан, тарафлардан бирининг ушбу битимга қўшилиш мажбурияти акс этмайди.”

Жамият мол-мулкнинг бозор қийматини аниқлаш учун битимнинг тарафлари томонидан баҳоловчи ташкилот жалб этилиши мумкин.

8. Қонунга мувофиқ Жамият Кузатув кенгаши мол-мулкнинг бозор қийматини аниқлашни ташкил этади.

Жамият Кузатув кенгаши Ижроия органига бошқа шахсга берилаётган мол-мулкнинг бозор қийматини белгиланган тартибда аниқлашни топширади.

9. Жамият томонидан бошқа шахсга берилаётган мол-мулкнинг бозор қиймати қуйидагича аниқланиши мумкин:

ёзма сўров юбориш йўли билан биржа котировкаси асосида;

баҳоловчи ташкилот билан тегишли шартнома тузиш йўли билан баҳолаш асосида.

10. Агар акциялар ва корпоратив облигациялар (портфель активлари) Жамиятнинг йирик битими предмети ҳисобланса, Қонунга мувофиқ “Қимматли қоғознинг бозор қиймати деганда энг эҳтимол тугилган нарх тушунилиб, унга кўра мазкур қимматли қоғоз очик бозорда битимнинг тарафлари барча зарур ахборотга эга бўлган ҳолда ўз манфаатлари йўлида оқилона ва ихтиёрий равишда ҳаракат қиладиган рақобат шароитида бошқа шахсга берилиши мумкин, битим нархининг баланд-пастлигида эса бирор-бир фавқулодда ҳолатлар, шу жумладан, тарафлардан бирининг ушбу битимга қўшилиш мажбурияти акс этмайди.

Агар қимматли қоғозлар фонд биржасининг биржа котировкаси варағига киритилган бўлса, уларнинг биржа котировкалари мазкур қимматли қоғозларнинг бозор қиймати деб эътироф этилади.”

11. Жамият томонидан бошқа шахсга берилаётган портфель қимматли қоғозларнинг бозор қиймати қуйидагича аниқланиши мумкин:

фонд биржасининг котировкаси асосида;

баҳолаш асосида.

12. Агар бошқа шахсга берилаётган мол-мулк(кўчмас мулк, қимматли қоғозлар, моддий активлар ва бошқалар)нинг бозор қиймати бундай битимларни тузиш тўғрисидаги қарор қабул қилинаётган санада Жамият соф активлари миқдорининг 15 (ўн беш) фоизидан ортиғини ташкил этса, бундай битим йирик деб ҳисобланади ва у бўйича қарор Жамият Кузатув кенгаши томонидан қабул қилинади.

13. Жамият томонидан олинаётган мол-мулк(кўчмас мулк, қимматли қоғозлар, моддий активлар ва бошқалар)нинг қиймати қуйидаги тартибда аниқланади:

а) агар Жамият томонидан олинаётган мол-мулкнинг қиймати шартнома тузилган санада Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг курси бўйича 300 АҚШ доллари миқдоридаги суммадан ортмаса, битим таҳлил ўтказиш ва тижорат таклифларини танлаш ва тўғридан-тўғри шартнома имзолаш йўли билан тузилади;

б) агар олинаётган мол-мулкнинг қиймати 300 АҚШ долларидан 100 000 АҚШ долларигача бўлган миқдордаги суммани ташкил этса, битим биржа савдосида биржа савдоларида шаклланган нархлар бўйича амалга оширилади;

в) агар Жамият томонидан олинаётган мол-мулкнинг қиймати 100 000 АҚШ долларидан 5 млн. АҚШ долларигача тенг бўлган суммани ташкил этса, Жамият

ташкил этадиган тендер комиссияси томонидан харидлар бўйича тендер ўтказилади;

г) агар мол-мулкни харид қилиш инвестиция лойиҳаси доирасида амалга оширилса ва Жамият томонидан олинаётган мол-мулк 5 млн. АҚШ долларига тенг бўлган суммадан ортса, таркиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланадиган идоралараро тендер комиссияси томонидан харидлар бўйича тендер ўтказилади;

д) агар мол-мулкни харид қилиш инвестиция лойиҳаси доирасида амалга оширилса ва Жамият томонидан олинаётган мол-мулк 10 млн. АҚШ долларига тенг бўлган суммадан ортса, таркиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланадиган идоралараро тендер комиссияси томонидан харидлар бўйича тендер ўтказилади ва ваколатли органлар томонидан экспертиза ўтказиш ва инвестиция лойиҳасининг ҳужжатларини тасдиқлаш иши амалга оширилади.

14. Агар қимматли қоғозлар – акциялар, облигациялар мол-мулк харид қилиш бўйича йирик битимнинг предмети ҳисобланса, Жамият томонидан олинаётган қимматли қоғозлар қиймати Биржа савдолари қоидаларига мувофиқ фонд биржаси савдоларида шаклланган нарх бўйича белгиланади.

15. Агар йирик битим қарз, кредит, гаров, кафиллик ҳисобланса, қарзни, кредитни, гаровни ёки кафилликни таъминловчи мол-мулкнинг бозор қиймати аниқланади.

16. Жамият Ижроия органининг раҳбари йирик битимлар сирасига кирадиган шартномаларни аниқлаш бўйича ишни ташкил этади.

Жамиятнинг кутилаётган йирик битимларини аниқлаш Жамият томонидан тузиладиган шартномаларнинг экспертизаси натижасида амалга оширилади.

17. Жамият бухгалтерияси ҳар чорақда ҳисобот давридан кейинги ойнинг 30-санасидан кечиктирмай, Жамият соф активларининг баланс қийматини аниқлайди ва Жамият Ижроия органи, Ички аудит хизмати, корпоратив маслаҳатчи ва Жамиятнинг тузилмавий бўлинмалари раҳбарлари эътиборига етказилади.

18. Жамият номидан шартномаларни тузишга жалб этилган Жамиятнинг тузилмавий бўлинмалари раҳбарлари шартномаларнинг экспертизасини ўтказишда ушбу битим йирик ҳисобланишини текширишади, бунинг учун:

ушбу битимни кундалик ҳўжалик фаолияти жараёнида тузиладиган битим сифатида ҳисоблаш мумкин ёки мумкин эмаслигини аниқлашади;

ушбу битим Жамиятнинг акциялари ва бошқа қимматли қоғозларини жойлаштириш ҳисобланишини аниқлашади;

бошқа шахсга берилаётган мол-мулкнинг баланс ва бозор қийматини охириги ҳисобот санасидаги (шартномани тузиш санасидаги) бухгалтерлик ҳисоботи маълумотларига мувофиқ ёки шартнома лойиҳасига мувофиқ олинаётган мол-мулкнинг қийматини аниқлашади;

бошқа шахсга берилаётган мол-мулкнинг баланс ва бозор қиймати ёки олинаётган мол-мулкнинг қиймати охириги ҳисобот санасидаги (шартномани тузиш санасидаги) бухгалтерлик ҳисоботи маълумотларига мувофиқ Жамият соф активлари баланс қийматининг 15 (ўн беш) фоизидан ортиши ёки ортмаслигини аниқлашади.

19. Кутилаётган битимда йирик битим аломатлари аниқланганда, Жамиятнинг экспертиза ўтказиётган тузилмавий бўлинмалари раҳбарлари Жамият ижроия органи раҳбарига кутилаётган битим йирик битимлар тоифасига кириши

тўғрисида билдиришнома, шунингдек бошқарувнинг қайси органи ушбу йирик битимни амалга ошириш ҳуқуқига эга эканлиги тўғрисидаги хулосаларни тақдим этишади.

20. Йирик битим белгиларига эга кутилаётган битим кундалик хўжалик фаолияти жараёнида тузиладиган битимлар сирасига кирганлиги ёки Жамият акциялари ва бошқа қимматли қоғозларини жойлаштириш ҳисобланганлиги ҳолларида, Жамиятнинг тегишли тузилмавий бўлинмаси битим бўйича ҳужжатларни Жамият юридик хизматига ҳуқуқий экспертиза ўтказиш учун тақдим этади.

Жамият юридик хизмати томонидан йирик битим белгиларига эга кутилаётган битим кундалик хўжалик фаолияти жараёнида тузиладиган битимлар сирасига кирганлиги ёки Жамият акциялари ва бошқа қимматли қоғозларини жойлаштириш ҳисобланганлиги тасдиқланган ва Юридик хизмат томонидан тегишли хулоса тақдим этилган тақдирда, Жамиятнинг ижроия органи раҳбари ушбу битимни тузиш тўғрисида мустақил қарор қабул қилади ёки йирик битим тузиш тўғрисидаги масалани Жамият Бошқаруви муҳокамасига тақдим этади.

21. Йирик битим белгиларига эга кутилаётган битим Жамият Кузатув кенгаши ёки Акциядорларнинг умумий йиғилиши қарори талаб этиладиган битимлар сирасига кирса, Жамиятнинг тегишли тузилмавий бўлинмаси битим бўйича ҳужжатларни ва билдиришномани Жамият ижроия органига Ички аудит хизмат ва корпоратив маслаҳатчи билан биргаликда ўрганиш учун тақдим этади.

22. Тегишли тузилмавий бўлинма раҳбарининг ёзма билдиришномасида кўрсатилган йирик битим тўғрисидаги ахборот Жамият ижроия органи, Ички аудит хизмати ва корпоратив маслаҳатчи томонидан ўрганилади.

23. Жамият ижроия органи томонидан йирик битимларни ўрганиш учун Жамиятнинг кутилаётган йирик битимларини ўрганиш бўйича доимий фаолият кўрсатувчи комиссия ташкил этилади.

Комиссия таркибига Жамиятнинг қуйидаги ходимлари киритилади:

Юридик хизмат раҳбари;

Бош ҳисобчи;

ваколатли шахс ёки Жамиятнинг ваколатли тузилмавий бўлинмаси;

Жамиятнинг тузилмавий бўлинмалари раҳбарлари;

Ички аудит хизмати раҳбари;

Корпоратив маслаҳатчи.

Жамият ижроия органи раҳбарининг қарорига кўра ушбу битимни ўрганишга Жамиятнинг бошқа ходимлари, шунингдек Жамият Тафтиш комиссияси ва ташқи аудитор қўшимча равишда жалб этилиши мумкин.

24. Комиссия қуйидаги масалаларни ўрганади:

битим предмети (мол-мулк таркиби, мулкый ҳуқуқлар, мажбуриятлар ва ҳоказолар);

битим томони (томонлари) ҳисобланадиган шахс (шахслар);

ушбу контрагентнинг нима сабабдан ва қаерда танланганлиги;

битимда (агар мавжуд бўлса) наф олувчи (наф олувчилар) ҳисобланадиган шахс (шахслар);

битимнинг қиймати ким томонидан ва қандай белгиланганлиги;

битим қийматининг мол-мулкнинг бозор қийматига мувофиқлиги ёки номувофиқлиги;

мол-мулкнинг бозор қиймати қандай аниқланганлиги;

битимнинг бошқа муҳим шартлари (агар мавжуд бўлса);
Жамият бошқарувининг қайси органи кутилаётган йирик битимни маъқуллаши лозим;
бошқа масалалар.

25. Жамият ижроия органи, Ички аудит хизмати ва Жамиятнинг корпоратив маслаҳатчиси томонидан кутилаётган йирик битимни ўрганиш тегишли тузилмавий бўлинма раҳбарининг билдиришномаси ва Жамият юридик хизматининг хулосаси олингандан кейин 3 (уч) иш куни давомида амалга оширилади.

26. Жамият ижроия органи, Ички аудит хизмати ва корпоратив маслаҳатчи томонидан кутилаётган йирик битимни ўрганиш натижалари баённома билан расмийлаштирилади ва битимни ўрганишда иштирок этган барча шахслар томонидан имзоланади. Баённомада битимнинг юридик, молиявий, техник ва бошқа муҳим жиҳатлари ва унинг жамият фаолиятига таъсир кўрсатиш эҳтимоллиги кўзда тутилиши зарур.

III. ЖАМИЯТНИНГ ЙИРИК БИТИМЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ, МАЪҚУЛЛАШ ВА ТУЗИШ ТАРТИБИ

27. Жамият ижроия органи Жамият Кузатув кенгаши раисини Кузатув кенгаши мажлисини ёки Акциядорларнинг умумий йиғилишини ўтказиш зарурати тўғрисида хабардор қилади.

28. Кузатув кенгаши раиси қарорига асосан Жамиятнинг йирик битимини маъқуллаш бўйича тезкор қарор қабул қилиш мақсадида Кузатув кенгашининг сиртқи мажлиси овоз бериш бюллетенларини ва битим бўйича қўшимча зарур ахборотни тарқатиш йўли билан ўтказилиши мумкин.

29. Ижроия органи қуйидагиларни тайёрлайди ва Жамият Кузатув кенгаши ҳал қилиши учун олиб чиқади:

а) йирик битимни маъқуллаш тўғрисидаги масала, шу жумладан ушбу Тартибнинг 24-бандида кўрсатилган, шунингдек бошқа шахсга берилаётган ёки олинаётган мол-мулкнинг қийматини (пул қийматини) унинг бозор қийматидан келиб чиққан ҳолда, маъқуллаш тўғрисидаги масалалар;

б) йирик битимни маъқуллаш тўғрисидаги қарор лойиҳасини ва Кузатув кенгашининг аъзоларига асосли қарор қабул қилиш учун зарур бўлган қўшимча ахборотни тайёрлайди.

Кузатув кенгашига ва/ёки Акциядорларнинг умумий йиғилишига тақдим этиладиган битим бўйича қўшимча ахборот ўз ичига қуйидагиларни олади:

битимни амалга ошириш заруратининг асосланганлиги ва унинг самарадорлиги;

битимнинг Жамият бюджетида (Бизнес-режасида) назарда тутилганлиги тўғрисидаги кўрсатма.

30. Қонунга мувофиқ баланс қиймати ёки олиш қиймати ушбу битимни тузиш тўғрисида қарор қабул қилинаётган санада Жамият соф активлари миқдорининг 15 (ўн беш) фоизидан 50 фоизигачасини ташкил этувчи мол-мулк хусусида йирик битим тузиш тўғрисидаги қарор Жамият Кузатув кенгаши аъзолари томонидан қабул қилинади.

Кузатув кенгашининг очик мажлисини ўтказишда қарор мажлисда ҳозир бўлган Кузатув кенгашининг аъзолари томонидан бир овоздан қабул қилинади.

Кузатув кенгашининг сиртқи мажлисини ўтказишда қарор Кузатув

кенгашининг барча амалдаги аъзолари томонидан бир овоздан қабул қилинади.

Агар йирик битимни амалга ошириш тўғрисидаги масала бўйича Жамият Кузатув кенгашининг яқдиллигига эришилмаган тақдирда Кузатув кенгашининг қарори бўйича йирик битим тузиш тўғрисидаги масала Акциядорларнинг умумий йиғилиши ҳал қилиши учун олиб чиқилиши мумкин.

31. Қонунга мувофиқ баланс қиймати ёки олиш қиймати ушбу битимни тузиш тўғрисида қарор қабул қилинаётган санада Жамият соф активлари миқдорининг 50 (эллик) фоизидан ортиғини ташкил этувчи мол-мулк хусусида йирик битим тузиш тўғрисидаги қарор Акциядорларнинг умумий йиғилиши томонидан қабул қилинади.

Ижроия органи Жамият Кузатув кенгашининг раисини йирик битимни маъқуллаш тўғрисида қарор қабул қилиш учун Акциядорларнинг умумий йиғилишини чақириш зарурати тўғрисида хабардор қилади.

Жамият Кузатув кенгаши тақдим этилган ҳужжатларни ўрганиб чиқади ва Акциядорларнинг умумий йиғилишини чақириш тўғрисида қарор қабул қилади. Кузатув кенгаши ушбу йиғилишнинг ўзида Акциядорларнинг умумий йиғилишига йирик битимни тузиш мақсадга мувофиқлиги ёки мақсадга мувофиқ эмаслиги тўғрисида тавсиялар беради.

Йирик битим тузиш тўғрисидаги қарор Акциядорларнинг умумий йиғилиши томонидан Акциядорларнинг умумий йиғилишида иштирок этаётган овоз берувчи акцияларнинг эгалари бўлган акциядорларнинг тўртдан уч қисмидан иборат кўпчилик (малакали кўпчилик) овози билан қабул қилинади.

32. Йирик битим Жамият кузатув кенгаши ёки Акциядорларнинг умумий йиғилиши ушбу битим бўйича қарор қабул қилганидан ва тегишли баённома имзоланганидан кейин Жамиятнинг ижроия органи томонидан амалга оширилади.

33. Йирик битим Жамият аффилланган шахсларининг манфаатдорлиги мавжуд бўлган битим ҳисобланган тақдирда, ушбу битимни тузишда аффилланган шахслар билан битимлар тузиш тартиби тўғрисидаги низом ҳам қўлланилади.

Агар бир вақтнинг ўзида Жамият аффилланган шахсининг манфаатдорлиги мавжуд бўлган битим ҳисобланган йирик битим суммаси Жамият соф активлари миқдорининг 15 (ўн беш) фоизидан 50 фоизигачасини ташкил этса, қарор Жамият Кузатув кенгаши томонидан қабул қилинади.

Бир вақтнинг ўзида Жамият аффилланган шахсининг манфаатдорлиги мавжуд бўлган битим ҳисобланган йирик битим суммаси Жамият соф активлари миқдорининг 15 (ўн беш) фоизидан 50 фоизигачасини ташкил этган ва бунда Кузатув кенгашининг икки аъзоси битимдан манфаатдор ҳисобланган тақдирда, қарор Акциядорларнинг умумий йиғилиши томонидан қабул қилинади.

Агар бир вақтнинг ўзида Жамият аффилланган шахсининг манфаатдорлиги мавжуд бўлган битим ҳисобланган йирик битим суммаси Жамият соф активлари миқдорининг 50 (эллик) фоизидан ортиғини ташкил этса, қарор Акциядорларнинг умумий йиғилиши томонидан қабул қилинади.

34. Қонун талаблари бузилган ҳолда тузилган йирик битим суд қарорига кўра ҳақиқий эмас деб топилиши мумкин.

IV. ЖАМИЯТНИНГ ЙИРИК БИТИМЛАРНИ ТУЗИШ ТАРТИБИГА РИОЯ ЭТИЛИШINI НАЗОРАТ ҚИЛИШ

35. Жамиятнинг йирик битимларни тузиш тартибига риоя этилишини назорат қилиш Ички аудит хизмати ва Жамият Тафтиш комиссияси томонидан амалга

оширилади.

36. Жамият ички аудит хизмати Жамиятнинг молия-хўжалик операцияларини мунтазам равишда текширишда ва Жамиятнинг кутилаётган йирик битимини Жамият ижроия органи билан биргаликда ўрганишда Жамиятнинг йирик битимларни тузиш тартибига риоя этилиши бўйича жорий назоратни амалга оширади.

Ички аудит хизмати томонидан амалдаги қонун ҳужжатлари ва ушбу Тартибда белгиланган тартибда уларнинг маъқуллашисиз йирик битимларни тузиш фактлари аниқланганда, Ички аудит хизмати раҳбари аниқланган фактлар ҳақида Кузатув кенгашига ва Ижроия органи раҳбарига ҳисобот беради.

Жамиятнинг бошқарув органлари ҳилоф иш тутганларга нисбатан тегишли чоралар кўради.

37. Жамият тафтиш комиссияси Жамиятнинг йирик битимларни тузиш тартибига риоя этилишини келгусида назорат қилинишини амалга оширади.

Жамият тафтиш комиссияси ҳисобот чорагида Жамият томонидан тузилган шартномаларни ҳар чоракда ўрганади, ҳисобот чорагида Жамиятда йирик битимлар мавжудлиги, шунингдек қонун ҳужжатларининг ва Жамият ички ҳужжатларининг бундай битимларни тузишга доир талабларига риоя қилиниши тўғрисидаги хулосани тайёрлайди.

Жамият тафтиш комиссиясининг ушбу хулосаси ҳар чоракда Жамият Кузатув кенгашининг мажлисига олиб чиқилади.

Тафтиш комиссияси томонидан Жамиятнинг бир йиллик ёки бошқа давр ичидаги фаолият якунлари бўйича молия-хўжалик фаолиятини текширишни амалга оширишда Тафтиш комиссияси шунингдек, текширилаётган даврда Жамиятда йирик битимлар мавжудлиги, шунингдек қонун ҳужжатларининг ва Жамият ички ҳужжатларининг (шу жумладан, ушбу Тартибнинг) бундай битимларни тузишга доир талабларига риоя қилиниши тўғрисидаги хулосани тайёрлайди.

Жамият Тафтиш комиссиясининг йил якунлари бўйича Жамиятнинг йирик битимлари тўғрисидаги хулосаси Акциядорларнинг йиллик умумий йиғилишида эшитилади.

Жамият тафтиш комиссиясининг молия-хўжалик фаолиятини текширишнинг бошқа давридаги йирик битимлар тўғрисидаги хулосаси Жамият Кузатув кенгашининг мажлисига олиб чиқилади.

V. ЖАМИЯТНИНГ ЙИРИК БИТИМЛАРИ ТЎҒРИСИДАГИ АХБОРОТНИ ОШКОР ЭТИШ

38. Жамият йирик битимлар тўғрисидаги ахборотни:

йиллик ҳисоботда;

муҳим фактларда ошкор этади.

39. Жамиятнинг ҳисобот давридаги йирик битимлари тўғрисидаги ахборот, шу жумладан битим предмети ва суммаси, битимнинг контрагенти ва йирик битимда эмитентнинг ким (бегоналаштирувчи ёки олувчи) эканлиги тўғрисидаги ахборот ушбу Тартибнинг 1-иловасига асосан йиллик ҳисоботнинг бир қисми ҳисобланади.

Жамият йиллик ҳисоботни қимматли қоғозлар бозорини тартибга солувчи ваколатли давлат органининг расмий веб-сайтида ва Жамиятнинг расмий веб-

сайтида Акциядорларнинг йиллик умумий йиғилиши ўтказилгандан кейин 2 (икки) ҳафта давомида жойлаштириш йўли билан ошкор этиши шарт.

40. Жамият йирик битим тузишда бу ҳақдаги ахборотни ушбу Тартибнинг 2-иловасига мувофиқ шаклдаги 20-сонли “Эмитент томонидан йирик битим тузилиши” муҳим фактида ошкор этади.

20-сонли “Эмитент томонидан йирик битим тузилиши” муҳим факти ҳақидаги хабар қимматли қоғозлар бозорини тартибга солувчи ваколатли давлат органининг расмий веб-сайтида ва Жамиятнинг расмий веб-сайтида у юз берган санадан эътиборан 2 (икки) иш куни ичида ошкор этилади.

Жамият томонидан йирик битим тузилган сана муҳим факт юз берган вақт бўлиб ҳисобланади.

41. Жамият Жамият акциядорларининг талабига кўра 3 (уч) иш кунида йирик битим тўғрисидаги тегишли ахборотни уларга тақдим этиши шарт.

42. Жамият қимматли қоғозлар бозорини тартибга солувчи ваколатли давлат органининг талабига кўра йирик битимлар тўғрисидаги ахборотни қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда тақдим этади.

VI. ЖАМИЯТНИНГ ЙИРИК БИТИМЛАРИГА ДОИР ҲУЖЖАТЛАРНИ САҚЛАШ

43. Жамиятнинг йирик битимларига доир ҳужжатлар Жамиятнинг ички ҳужжатлари ҳисобланади ва Жамиятнинг жойлашган ерида сақланади.

Жамиятнинг йирик битимларига доир ҳужжатлар улар тузилган молиявий йил тугагандан кейин Жамиятнинг молия-ҳўжалик фаолиятини текширишни яқунлаш шарти билан 5 (беш) йил давомида сақланади.

44. Жамиятнинг йирик битимларига доир ҳужжатлар махфий ахборот ҳисобланади.

Жамиятнинг йирик битимларига доир ахборот ва ҳужжатлар Жамият акциядорининг талабига кўра Қонунда белгиланган тартибда тақдим этилади.

Жамиятнинг йирик битимларига доир ҳужжатлар ваколатли давлат органларига қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда тақдим этилади.

VII. ЖАВОБГАРЛИК

45. Жамиятнинг ваколатли шахси ёки ваколатли тузилмавий бўлинмаси Жамиятнинг йирик битимларини ҳисобга олишни ташкил этиш ва йирик битимлар ҳақидаги ахборотни ўз вақтида ошкор этиш бўйича жавобгар ҳисобланади.

46. Йирик битимни ўрганишни амалга оширган шахслар битим бўйича ҳулоса ва яқунларнинг ишончлилиги учун жавобгар бўлади.

47. Жамият ижроия органи йирик битимларни тузиш тартибига риоя этилиши учун жавобгар ҳисобланади.

Шунингдек, Жамият Кузатув кенгаши ҳам йирик битимларни тузиш тартибига риоя этилиши учун жавобгар ҳисобланади.

48. Жамият Жамиятнинг йирик битимлари ҳақидаги ахборотнинг ўз вақтида ошкор этилиши учун қимматли қоғозлар бозорини тартибга солувчи ваколатли давлат органи томонидан белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

VIII. ЯКУНИЙ ҚОИДАЛАР

49. Ушбу Тартиб Жамият акциядорларининг умумий йиғилиши қарори билан тасдиқлангандан кейин кучга киради.

Акциядорлар умумий йиғилишининг ушбу Тартибни тасдиқлаш бўйича

қарори умумий йиғилишда ҳозир бўлган акциядорларнинг кўпчилик овози билан қабул қилинади.

50. Ушбу Тартибга қонун ҳужжатлари ўзгартирилганлиги, Жамият Уставига, Жамиятнинг ички ҳужжатларига ўзгартириш ва (ёки) қўшимчалар киритилганлиги муносабати билан ва бошқа ҳолларда ўзгартириш ва (ёки) қўшимчалар киритилиши мумкин.

Ушбу Тартибга киритилган ўзгартириш ва (ёки) қўшимчалар Акциядорлар умумий йиғилишининг қарори билан тасдиқлангандан кейин кучга киради.

Акциядорлар умумий йиғилишининг ушбу Тартибга киритилган ўзгартириш ва (ёки) қўшимчаларни тасдиқлаш бўйича қарори умумий йиғилишда ҳозир бўлган акциядорларнинг кўпчилик овози билан қабул қилинади.

51. Агар ушбу Тартибнинг алоҳида бандлари Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатларига ва/ёки Жамият Уставига зид келган тақдирда, ушбу бандлар ўз кучини йўқотади ҳамда ушбу Тартибга тегишли ўзгартиришлар киритилгунга қадар, бу бандлар орқали тартибга солинадиган масалалар бўйича Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонун ҳужжатлари ва/ёки Жамият Устави меъёрлари қўлланилади.

ҲИСОБОТ ЙИЛИДА ТУЗИЛГАН ЙИРИК БИТИМЛАР РЎЙХАТИ						
14.	N	Битим тузилган сана	Контрагентнинг Ф.И.Ш. ёки тўлиқ номи	Битим предмети	Суммаси	Эмитент битим бўйича ким ҳисобланади (товар ва хизматларни олувчи/бегоналаштирувчи)

1.	ЭМИТЕНТНИНГ НОМИ	
	Тўлиқ:	
	Қисқартирилган:	
	Биржа тикерининг номи:*	
2.	АЛОҚА МАЪЛУМОТЛАРИ	
	Жойлашган ери:	
	Почта манзили:	
	Электрон почта манзили:*	
	Расмий веб-сайти:*	
3.	МУҲИМ ФАКТ ТЎҒРИСИДА АХБОРОТ	
	Муҳим фактнинг рақами:	20
	Муҳим фактнинг номи:	Эмитент томонидан йирик битим тузилиши
	Контрагентнинг Ф.И.Ш. ёки тўлиқ номи:	
	Контрагентнинг жойлашган ери (почта манзили):	
	Эмитентнинг битим бўйича қарор қабул қилган органи:	
	Қарор қабул қилинган сана:	
	Эмитент соф активларининг битим тузиладиган санадан олдинги чорак якунидаги қиймати (минг сўмда):	
	Битим суммаси (сўмда):	
	Битимнинг эмитент соф активларидаги миқдори (%да)	
	Битим тузилган сана:	
	Битим тури:	
	Битим предмети:	
	Битим бўйича эмитент ким ҳисобланади:	Олувчи Бегоналаштирувчи

Ижроия органи раҳбарининг Ф.И.Ш.: _____

Бош бухгалтернинг Ф.И.Ш.: _____

Веб-сайтда ахборот жойлаштирган
ваколатли шахснинг Ф.И.Ш.: _____:

**“UZGASTRADE”АЖ
КУЗАТУВ КЕНГАШИНИНГ МУСТАҚИЛ
АЪЗОЛИГИ УЧУН ТАНЛОВ ЎТКАЗИШ ВА
НОМЗОДЛАРНИ ТАНЛАБ ОЛИШ ТЎҒРИСИДА
НИЗОМ**

Тошкент ш. - 2024 йил

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни, Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 29 мартдаги 166-сон қарори билан тасдиқланган 2021-2025 йилларда давлат иштирокидаги Жамиятларни бошқариш ва ислоҳ қилиш стратегияси ҳамда “UzGasTrade” АЖнинг Уставига асосан ишлаб чиқилган бўлиб, Жамиятнинг кузатув кенгаши таркибига **мустақил аъзоларни танлов ўтказиш орқали танлаб олиш** тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

кузатув кенгаши — Жамият фаолиятига умумий раҳбарликни ва зиммасига қонунчилик ҳужжатлари ҳамда Жамият устави, ички меъёрий ҳужжатлари билан юклатилган вазифаларни амалга оширадиган бошқарув органи;

мустақил аъзо — қонунчилик ҳужжатларида ҳамда “UzGasTrade” АЖнинг ички меъёрий ҳужжатларида кузатув кенгашининг мустақил аъзоси деб эътироф этиш учун белгиланган талабларга мувофиқ бўлган кузатув кенгаши аъзоси;

номзодларни танлаб олиш — мазкур низомда белгиланган тартиб ва мезонларга мувофиқ энг мақбул номзодларни танлаб олиш тизими;

тайинлаш ва рағбатлантириш бўйича қўмита - (кейинги ўринларда — қўмита) кузатув кенгаши ҳузурида унинг тайинлаш ва рағбатлантириш борасидаги ваколатларини амалга ошириш учун тавсиялар ишлаб чиқиш мақсадида кузатув кенгаши аъзолари орасидан ташкил этиладиган қўмита;

мустақил аъзолар рўйхати — “UzGasTrade” АЖнинг амалдаги кузатув кенгаши таркибига сайланган мустақил аъзолари тўғрисидаги (ФИШ, асосий иш жойи ва лавозими, маълумоти, иш тажрибаси, фуқаролиги ва мустақил аъзолик учун белгиланган талабларга мувофиқлиги тўғрисидаги) маълумотларни ўз ичига олган рўйхат.

3. Кузатув кенгашининг мустақил аъзолигига номзодлар амалдаги кузатув кенгаши томонидан танлов ўтказилган ҳолда танлаб олиниб, акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилишига таклиф этилади.

Бунда, мустақил аъзолик учун ўтказиладиган танловга жамият овоз берувчи акцияларининг ҳаммаси бўлиб камида бир фоизига эгалик қилувчи акциядорлар (акциядор) номзодлар кўрсатишга ҳақли.

Кузатув кенгаши томонидан мустақил аъзоликка номзодларни танлов ўтказилган ҳолда танлаб олиш ва муносиб номзодлар бўйича тавсиялар ишлаб чиқиш Қўмитага юклатилиши мумкин.

4. Номзодларни танлаб олиш қуйидаги тамойиллар асосида амалга оширилади:

шаффофлик — оммавий ахборот воситаларида, ўзининг расмий веб-сайтида, шунингдек қонунчилик ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа манбаларда тегишли эълонлар, мустақил аъзолик учун мавжуд ўринлар, танлаб олиш тартиби, мезонлари ва натижаларига оид маълумотларни чоп этиш;

тенглик — танлаб олиш жараёнида иштирок этадиган барча номзодларга бир хил шарт-шароитлар яратиш;

рақобат — танлаб олиш жараёни очиқ ва тўғри рақобатга асосланган бўлиши;

мустақиллик — танлаб олиш жараёни ҳар қандай сиёсий ва маъмурий аралашув ёки бошқа ташқи таъсирлардан ҳоли ва мустақил амалга оширилиши.

2-боб. Номзодларга қўйиладиган талаблар

5. Мустақил аъзо Жамиятнинг ривожига кенг миқёсда ҳисса қўшиш учун қолган кузатув кенгаши аъзоларининг хусусиятларидан сезиларли даражада фарқ қиладиган тажриба, малака ва касбий кўникмаларга эга бўлиши керак.

6. Куйидагилар кузатув кенгашининг мустақил аъзоси бўлиши мумкин эмас:

олий маълумотга эга бўлмаган шахс;

раҳбарлик (раҳбар, раҳбар ўринбосари, бош ҳисобчи, менежер, супервайзер, юридик хизмат бошлиғи, корпоратив бошқарув соҳасида фаолият юритадиган бошқарма бошлиғи, ваколатхона ёки филиал раҳбари) лавозимларида камида икки йиллик иш тажрибасига эга бўлмаган шахс;

судланганлик ҳолати ўрнатилган тартибда тугатилмаган ёки олиб ташланмаган шахс;

сўнгги уч йил ичида Жамиятда ва (ёки) Жамиятнинг аффилиланган шахсларида ишлаган шахс;

Жамият овоз берувчи акцияларининг беш ёки ундан ортиқ фоизига эгалик қилувчи (тўғридан-тўғри ва (ёки) аффилиланган шахслар орқали) акциядор;

Жамиятнинг ва (ёки) унинг аффилиланган шахсининг йирик мижози ва (ёки) йирик етказиб берувчиси билан фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларда бўлган шахс. Бунда қайси шахслар билан базавий ҳисоблаш миқдорининг икки минг бараваридан кўп бўлган суммага тенг амалдаги шартнома мавжуд бўлса, ўша шахслар йирик мижоз ва йирик етказиб берувчи деб эътироф этилади;

сўнгги уч йил ичида Жамиятга ва (ёки) Жамиятнинг аффилиланган шахсларига аудиторлик хизматларини кўрсатган аудиторлик ташкилотининг ходими;

кетма-кет олти йил давомида Жамиятнинг кузатув кенгаши таркибига кирган шахс;

Жамият ва (ёки) унинг аффилиланган шахслари билан бирор-бир келишувга эга бўлган шахс, бундан кузатув кенгаши аъзосининг вазифалари ва функциялари бажарилишини таъминлаш билан боғлиқ бўлган келишувлар мустасно;

Жамиятнинг бошқарув ва ички назорат органларининг ва (ёки) унинг аффилиланган шахсларининг аъзоси бўлган шахснинг ёки сўнгги уч йил ичида уларга аъзо бўлган шахснинг яқин қариндоши ёки куда томондан қариндоши (ота-онаси, ака-укалари, опа-сингиллари, ўғиллари, қизлари, эри (хотини), шунингдек эрининг (хотинининг) ота-онаси, ака-укалари, опа-сингиллари ва фарзандлари) бўлган шахс;

давлат бошқаруви органининг ёки давлат корхонасининг ходими бўлган шахс;

Жамиятнинг уставида ёки акциядорлар умумий йиғилишининг қарорлари билан тасдиқланган ҳужжатларда белгиланган талабларга мувофиқ бўлмаган шахс.

Жамият фаолияти йўналишидан келиб чиқиб, кузатув кенгаши ва/ёки қўмита томонидан номзодларга қўшимча талаблар белгиланиши мумкин.

7. Кузатув кенгаши таркибига сайланган мустақил аъзолар ўз зиммасига қуйидаги фидуциар мажбуриятларни олади:

жонқуярликни намоён қилиш мажбурияти - виждонан ва жонқуярлик асосида ҳаракат қилиш;

содикликни намоён қилиш ва манфаатлар тўқнашувига йўл қўймаслик мажбурияти - биринчи навбатда жамият манфаатларидан келиб чиқиб ҳаракат қилиш;

лозим даражада кўздан кечиришликни намоён қилиш мажбурияти жамиятга нисбатан қарор қабул қилишда эҳтиёткорлик билан ёндашиш;

мустақил мулоҳазадан фойдаланиш мажбурияти - қарорларни мустақил, шахсий ва бошқа манфаатларни инобатга олмаган ҳолда қабул қилиш.

3-боб. Номзодларни танлаб олиш тартиби

8. Ҳар қандай жисмоний шахс жинси, миллати, фуқаролиги ва ижтимоий келиб чиқишидан қатъий назар танловда иштирок этиш ҳуқуқига эга, мазкур Низомнинг 6-бандида белгиланган шахслар бундан мустасно.

9. Кузатув кенгаши томонидан танлов жамият кузатув кенгаши таркибига мустақил аъзо киритиш зарурати юзага келганда (қонунчилик ҳужжатларида, жамиятнинг устави ва/ёки ички меъёрий ҳужжатларида кузатув кенгаши таркибига мустақил аъзо киритиш талаби белгиланганда, шунингдек кузатув кенгаши таркибида мустақил аъзолик учун бўш ўрин вужудга келганда ва/ёки амалдаги мустақил аъзонинг ваколатлари тугатилаётганда ва ҳ.к.) ўтказилади.

Бунда, кузатув кенгаши томонидан танлов ўтказиш тўғрисидаги қарор Жамият Кузатув кенгаши таркибига мустақил аъзо киритиш зарурати юзага келган кундан бир ой ичида қабул қилиниши лозим.

10. Танлов ўтказиш тўғрисидаги қарор билан танлов эълон қилинадиган аъзолик ўринлари сони, номзодларга қўйиладиган талаблар, танловнинг бошланиш ва тугаш саналари, номзодлар томонидан тақдим этилиши лозим бўлган ҳужжатлар ва/ёки маълумотлар, номзодларни излаш усуллари, танлов эълон қилиниши мажбурий бўлган оммавий ахборот воситалари белгиланиши, шунингдек эълон матни тасдиқланиши лозим.

11. Номзодларни излаш қуйидаги усуллардан бирини қўллаган ҳолда амалга оширилиши мумкин:

оммавий ахборот воситаларида жамиятнинг расмий веб-сайти ва ижтимоий тармоқлардаги расмий саҳифаларида, корпоратив ахборот ягона порталида эълон бериш, шунингдек Кузатув кенгашининг мустақил аъзолари ассоциацияларига мурожаат қилиш;

номзодларни излаб топишга ихтисослашган консалтинг ва (ёки) юқори малакали мутахассисларни ва раҳбар кадрларни қидириш ва ёллаш билан шуғулланувчи махсус “headhunter” ташкилотларини жалб этиш;

12. Кузатув кенгаши томонидан номзодларни танлаб олиш “headhunter” ташкилотларини жалб этиш орқали амалга оширилиши белгиланганда, танлаб олиш тартиби, шартлари ва муддатлари Жамият ҳамда “headhunter” ташкилоти ўртасида тузиладиган келишувга мувофиқ белгиланади ва ушбу келишув шартлари кузатув кенгаши томонидан маъқулланади.

13. Танлов ўтказиш тўғрисида эълон қуйидаги маълумотларни ўз ичига олади:

Жамиятнинг номи ва жойлашган жойи, фаолиятининг асосий йўналишлари;

танловда иштирок этиш учун аризаларни қабул қилиш муддати, жойи ва манзили, сўровлар учун телефон рақами ва электрон почта манзили;

талабгор томонидан тақдим этиладиган ҳужжатлар ва маълумотлар рўйхати;

танловга аризаларни қабул қилишнинг бошланиш ва тугаш санаси, бунда аризаларни қабул қилиш муддати бир ойдан кам бўлмаслиги лозим;

талабгорга қўйиладиган талаблар, кутилаётган вазифалар ва ваколат доираси.

Кузатув кенгаши қарорига асосан танлов ўтказиш тўғрисида эълонда юқоридагиларга қўшимча равишда бошқа маълумотлар ҳам кўрсатилиши мумкин.

14. Танловда иштирок этиш учун талабгор шахсан ўзи ва/ёки электрон почта орқали қуйидаги ҳужжатларни тақдим этади:

шахсни тасдиқловчи ҳужжат нусхаси, меҳнат дафтарчаси нусхаси (мавжуд бўлса) ёки иш тажрибасини тасдиқловчи ҳужжатлар, маълумоти тўғрисидаги ҳужжат нусхаси;

меҳнат фаолияти тўғрисида маълумотнома (резюме);

тавсиявиянома (агар мавжуд бўлса);

мазкур Низомнинг 1-иловасида келтирилган шаклда жамият кузатув кенгаши мустақил аъзосининг мустақиллик мезонларига мувофиқлиги тўғрисидаги ариза.

Кузатув кенгаши қарорига асосан танловда иштирок этиш учун талабгор шахслар томонидан юқоридагиларга қўшимча равишда бошқа ҳужжат ва/ёки маълумотлар тақдим этилиши белгиланиши мумкин.

15. Номзодлар томонидан тўлдирилган аризада келтирилган ёки тақдим этилган ҳужжатлар ва материалларда мавжуд бўлган маълумотларнинг ҳақиқий ва ишончли эмаслиги, нотўғрилиги (ёлғонлиги) аниқланса, ушбу номзод танловдан ёки кузатув кенгаши таркибидан (агар таркибга сайлангандан сўнг аниқланса) белгиланган тартибда четлатилади.

16. Ҳужжатларни қабул қилиш муддати ҳамда Кузатув кенгаши томонидан номзодларни излаш жараёнлари якунланганидан сўнг **икки иш куни** ичида номзодлар томонидан тақдим этилган маълумотлар (ҳужжатлар) умумлаштирилади ҳамда ушбу низомнинг 14-бандида келтирилган ҳужжатларнинг тўлиқ тақдим этилганлиги Қўмита текширилади.

Талабгорлар томонидан ҳужжатлар тўлиқ топширилмаган тақдирда Қўмита унинг номзодини танловдан четлаштиришга ҳақли.

Агар танловда фақат битта талабгор иштирок этганда танлов ўтказилмаган деб ҳисобланади ва ушбу ҳолатда Кузатув кенгаши қайта танлов ўтказиш тўғрисида қарор қабул қилиши мумкин.

17. Танловда иштирок этган номзодлар **икки иш куни** ичида Қўмита томонидан 2-иловада белгиланган баҳолаш мезонларига кўра баҳоланади ва баҳолаш натижаларига кўра энг юқори балл тўплаган номзодларнинг рўйхати тузилади.

18. Номзодлар баҳолангандан сўнг Қўмита томонидан **беш иш куни** ичида номзодлар билан суҳбат ўтказилади, бунда суҳбат томонлар келишувига кўра ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда онлайн видеоконференция режимида ўтказилиши мумкин. Суҳбат натижаларига кўра Қўмита ўз тавсияларини Кузатув кенгашига қарор қабул қилиш учун киритади.

Номзод суҳбатдан ўтишдан бош тортса ёки суҳбатда узрсиз сабабларга кўра қатнашмаса, у танловдан четлаштирилиши мумкин.

19. Кузатув кенгаши суҳбат натижаларидан келиб чиқиб ҳар бир аъзолик ўрнига муносиб номзодни танлаш тўғрисида қарор қабул қилади ва қонунчилик билан белгиланган тартибда акциядорлар (таъсисчилар) умумий йиғилишига тасдиқлаш учун киритади.

20. Жамият ўзининг расмий веб-сайтида ҳамда қонунчилик ҳужжатларига кўра ахборотни ошкор этиш мажбурий бўлган ахборот воситаларида кузатув кенгаши таркибига мустақил аъзолар сайланганлиги тўғрисидаги маълумот ҳамда мустақил аъзорларнинг рўйхатини ошкор этади.

21. Жамият кузатув кенгашининг мустақил аъзоси унинг мазкур низомнинг олтинчи бандида белгиланган талабларга мувофиқлиги ўзгарган тақдирда, бу ҳақда Жамиятни ва Кузатув кенгашини икки кун муддат ичида хабардор қилиши шарт. Бундай ҳолларда, Жамиятнинг Кузатув кенгаши таркибига мустақил аъзо ушбу Низомда белгиланган тартибда киритилади.

4-боб. Якунловчи қондалар

22. Номзодлар тақдим этган маълумотларининг тўлиқлиги ва тўғрилиги учун масъул ҳисобланади.

23. Мазкур Низом талаблари бажарилиши устидан назорат Жамият кузатув кенгаши томонидан амалга оширилади.

24. Мазкур Низом талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

“UzGasTrade” АЖ кузатув кенгашининг мустақил
аъзолиги учун танлов ўтказиш ва номзодларни танлаб
олиш тўғрисидаги низомга
1-илова

**“UzGasTrade” АЖ
Кузатув кенгашига**

**Кузатув кенгашининг мустақил аъзолиги учун белгиланган талабларга мувофиқлик
тўғрисида
АРИЗА**

**Мен, _____ ушбу билан номзод сифатида қуйидагиларни
тасдиқлайман:**

Маълумотим олий;

раҳбарлик (раҳбар, раҳбар ўринбосари, бош ҳисобчи, менежер, супервайзер, юридик
хизмат бошлиғи, корпоратив бошқарув соҳасида фаолият юритадиган бошқарма бошлиғи,
ваколатхона ёки филиал раҳбари) лавозимларида камида икки йиллик иш тажрибасига
эгаман;

иқтисодий жиноятлар ёки бошқарув тартибига қарши жиноятлар учун
судланмаганлигимни ҳамда суд қарорларига асосан мансаб лавозимларни эгаллаши
чекланган, шунингдек коррупцияга оид жиноятларни содир этишда айбдор деб
топилмаганман;

сўнгги уч йил ичида Жамиятда ва (ёки) Жамиятнинг аффилиланган шахсларида
ишламаганман;

жамият овоз берувчи акцияларининг беш ёки ундан ортиқ фоизига эгалик қилувчи
(тўғридан-тўғри ва (ёки) аффилиланган шахслар орқали) акциядор эмасман;

жамиятнинг ва (ёки) унинг аффилиланган шахсининг йирик мижози ва (ёки) йирик
етказиб берувчиси билан фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларда бўлмаганман ва/ёки ҳозирда
бу каби муносабатларга эга эмасман;

сўнгги уч йил ичида Жамиятга ва (ёки) Жамиятнинг аффилиланган шахсларига
аудиторлик хизматларини кўрсатган аудиторлик ташкилотининг ходими эмасман;

кетма-кет олти йил давомида Жамиятнинг кузатув кенгаши таркибида фаолият
юритмаганман;

Жамият ва (ёки) унинг аффилиланган шахслари билан бирор-бир келишувга эга
эмасман (бундан кузатув кенгаши аъзосининг вазифалари ва функциялари бажарилишини
таъминлаш билан боғлиқ бўлган келишувлар мустасно);

Жамиятнинг бошқарув ва ички назорат органларининг ва (ёки) унинг аффилиланган
шахсларининг аъзоси бўлган шахснинг ёки сўнгги уч йил ичида уларга аъзо бўлган
шахснинг яқин қариндоши ёки қуда томондан қариндоши (ота-онаси, ака-укалари, опа-
сингиллари, ўғиллари, қизлари, эри (хотини), шунингдек эрининг (хотинининг) ота-онаси,
ака-укалари, опа-сингиллари ва фарзандлари) бўлган шахс эмасман;

давлат бошқаруви органининг ёки давлат Жамиятсининг ходими эмасман;

ушбу аризада келтирилган барча маълумотларнинг, шунингдек унга илова қилинган
ҳужжатлар ва материалларда мавжуд бўлган маълумотларнинг ҳақиқийлиги, ишончлилиги
ва тўғрилигини тасдиқлайман.

Мен томонимдан ҳақиқий бўлмаган, ишончсиз ва нотўғри (ёлғон) маълумотлар
берилганлиги аниқланган тақдирда, танловдан ёки кузатув кенгаши таркибидан (агар
таркибга сайлангандан сўнг аниқланса) четлатилишим тўғрисида хабардорман.

“UzGasTrade” АЖ кузатув кенгашининг мустақил аъзолиги
учун танлов ўтказиш ва номзодларни танлаб олиш
тўғрисидаги низомга
2-илова

**“UzGasTrade” АЖ кузатув кенгашининг мустақил аъзолиги учун ўтказилган танловда
иштирок этган номзоднинг баҳолаш натижалари тўғрисида
МАЪЛУМОТ**

Номзод _____
(Ф.И.О.)

T/р	Баҳолаш мезонлари	Мезонга мувофиқлик баллари	Номзоднинг мувофиқлик баллари*
I. КАСБИЙ БИЛИМ-КЎНИКМАЛАРИ			
1.	Қуйидаги соҳалардан бири бўйича бакалавр даражасига эгаллиги: молия, иқтисодиёт ва ҳуқуқ ёки бошқа йўналишлар	5	
2.	Олий таълим муассасаларининг, шу жумладан Давлат бошқаруви академияси, Банк-молия академияси, Солиқ академиясининг магистрлик даражасига эгаллиги	5	
3.	Қуйидаги соҳалардан бири бўйича хорижий олий таълим муассасаларининг магистрлик даражасига эгаллиги: молия, иқтисодиёт ва ҳуқуқ ёки бошқа соҳалар	10	
II. ИШ ТАЖРИБАСИ			
4.	Корпоратив бошқарув, қимматли қоғозлар бозори, стратегик режалаштириш, ходимларни бошқариш соҳалари билан боғлиқ маъмурий ва бошқарув кадрлари лавозимларида (5-бандда кўрсатилган лавозимни эгаллаган даври бундан мустасно) иш тажрибаси		
	2 (икки) йилгача (шу жумладан 2 йил тўлиқ)	5	
	3 (уч) йилгача (шу жумладан 3 йил тўлиқ)	6	
	3 (уч) йилдан 5 (беш) йилгача (шу жумладан 5 йил тўлиқ)	7	
	5 (беш) йилдан ортиқ	8	
5.	Хорижий давлатларда раҳбарлик лавозимларида (раҳбар, раҳбар ўринбосари, менежер, супервайзер) камида бир йил иш тажрибаси ёки корпоратив бошқарув, қимматли қоғозлар бозори, стратегик режалаштириш, кадрлар менежменти, аудит, солиққа тортиш, молия ва инвестициялар, ишлаб чиқаришни модернизация қилиш ва инновацион ривожлантириш, инқирозга қарши бошқарув соҳаларида хорижий юрисдикциялардаги масалаларни ҳал қилиш бўйича амалий тажрибага эгаллиги		
	1 (бир) йилгача (шу жумладан 1 йил тўлиқ)	5	
	3 (уч) йилгача (шу жумладан 3 йил тўлиқ)	6	
	3 (уч) йилдан 5 (беш) йилгача (шу жумладан 5 йил тўлиқ)	8	
	5 (беш) йилдан ортиқ	10	
6.	Ўзбекистон Республикасида ташкилотлар ва Жамиятларнинг раҳбарлик лавозимларида (ташкилот раҳбари, раҳбар ўринбосари, бош ҳисобчи, юридик хизмат бошлиги, корпоратив бошқарув соҳасида фаолият юритадиган бошқарма бошлиги, ваколатхона ёки филиал раҳбари) иш тажрибаси		
	икки йил тўлиқ (2 йилдан кам бўлмаган)	5	
	3 (уч) йилгача (шу жумладан 3 йил тўлиқ)	6	

	3 (уч) йилдан 5 (беш) йилгача (шу жумладан 5 йил тўлиқ)	8	
	5 (беш) йилдан ортиқ	10	
7.	Жамият фаолиятига тегишли соҳа ташкилотларида маъмурий ва бошқарув лавозимларида иш тажрибаси		
	2 (икки) йил тўлиқ	5	
	3 (уч) йилгача (шу жумладан 3 йил тўлиқ)	8	
	3 (уч) йилдан 5 (беш) йилгача (шу жумладан 5 йил тўлиқ)	10	
	5 (беш) йилдан ортиқ	15	
8.	Кузатув кенгаши аъзоси сифатида иш тажрибаси		
	бир йилгача (шу жумладан бир йил тўлиқ)	5	
	3 (уч) йилгача (шу жумладан 3 йил тўлиқ)	8	
	3 (уч) йилдан 5 (беш) йилгача (шу жумладан 5 йил тўлиқ)	10	
	5 (беш) йилдан ортиқ	15	
III. ҚўШИМЧА МАЛАКАЛАРНИНГ МАВЖУДЛИГИ			
9.	Қимматли қоғозлар бозори мутахассиси, аудитор, суғурталовчи, баҳоловчи, суд бошқарувчиси малака талабларига мувофиқлигини тасдиқловчи амал қилиш муддатига эга ҳужжатнинг мавжудлиги	2	
10.	Иқтисодиёт, молия, ҳуқуқшунослик, корпоратив бошқарув соҳасида камида 2 та хорижий давлатларда стажировкадан ўтганлиги бўйича тасдиқловчи ҳужжатларнинг мавжудлиги	4	
11.	Куйидаги халқаро сертификатлардан бирининг мавжудлиги (CFA, CPA, ACCA, ACA, CIMA, IМС, FRM)	4	
12.	Амал қилиш муддатига эга корпоратив бошқарувчи малака аттестатининг мавжудлиги	6	
13.	Мустақил аъзолар уюшмалари тавсияларининг мавжудлиги	6	
IV. КУЗАТУВ КЕНГАШИ ИШИДА ИШТИРОК ЭТИШ ИМКОНИЯТИ			
14.	Бошқа Жамиятларнинг кузатув кенгашидаги аъзолиги		
	1 та Жамиятда кузатув кенгаши аъзоси бўлганда	-5	
	2 та Жамиятда кузатув кенгаши аъзоси бўлганда	-10	
	3 та Жамиятда кузатув кенгаши аъзоси бўлганда	-15	
	4 та Жамиятда кузатув кенгаши аъзоси бўлганда	-20	

Жами максимал баллар йиғиндиси: 100 балл

Номзод тўплаган баллар йиғиндиси: _____ балл.

**«UZGASTRADE» АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТИНИНГ КОРПОРАТИВ
БОШҚАРУВ ҚОИДАЛАРИ**

I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

1. Мақсад ва халқаро мезонлар. Давлат иштирокидаги корхоналар учун корпоратив бошқарув қоидалари (кейинги ўринларда — Қоидалар) устав фондида (устав капиталида) давлат улуши мавжуд бўлган хўжалик жамиятлари, давлат унитар корхоналарида (кейинги ўринларда — давлат иштирокидаги корхоналар, Ўзбекистон ДИКлари) бошқарувнинг илғор амалиётларини жорий этишга қаратилган.

Қоидалар давлат иштирокидаги корхоналар учун Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилотининг (ОЭСР) корпоратив бошқарув бўйича раҳбарий тамойилларида (кейинги ўринларда — ОЭСР раҳбарий тамойиллари) баён этилган муносиб бошқарув ёндашувларига асосланган бўлиб, улар давлат корхоналарини самарали бошқаришнинг умумэтироф этилган стандарти ҳисобланади.

Мазкур Қоидалар ДИКларга ўзининг ижтимоий ва иқтисодий мақсадларига эришиш, самарадорликнинг юқори даражасини таъминлаш, ички ва халқаро капитал бозорларига кенгроқ кириш имкониятини яратиш, шаффофликни ошириш, шунингдек давлат ва уларнинг якуний мулкдори ҳисобланган кенг аҳоли олдида ҳисобдорликни яхшилашга кўмаклашиш учун мўлжалланган.

ОЭСР раҳбарий тамойилларини, асосан хусусий сектор корхоналарига нисбатан қўлланиладиган G20/ОЭСР корпоратив бошқарув тамойилларининг (кейинги ўринларда — ОЭСР тамойиллари) аниқ бир қўлланилиши сифатида кўриб чиқиш мумкин.

Қоидалар, шунингдек давлат ДИКда нисбатан кичик улушни сақлаб қолган, аммо масъулиятли ва хабардор акциядор сифатида фаолият юритишга интилган ҳолларда ҳам қўлланилиши мақсадга мувофиқдир.

ДИК тушунчаси. «Давлат мулкни бошқариш тўғрисида»ги Қонунга мувофиқ, давлат иштирокидаги корхона — бу устав фондида (устав капиталида) давлат улуши эллик фоиздан ортиқ бўлган хўжалик жамияти ёки давлат улуши хўжалик жамиятининг ҳар бир бошқа акциядори (иштирокчиси) улушига нисбатан каттароқ бўлган хўжалик жамияти, шунингдек давлат унитар корхонасидир.

Ваколатлар. Мазкур Қоидалар давлатнинг акциядор (масъулияти чекланган жамият иштирокчиси (кейинги ўринларда — иштирокчи), давлат корхонасининг муассиси (кейинги ўринларда — муассис), ДИК кузатув кенгашлари ва бошқарувлари қарорлари асосида амалга ошириладиган тавсияларни ўз ичига олади. Уларнинг ҳар бири муносиб бошқарув амалиётини таъминлашда муҳим роль ўйнаши лозим. Қоидаларни амалга ошириш тегишли тармоқлар ва корхоналар фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиши керак.

Амалга ошириш учун жавобгарлик. Корхонанинг мулкдори (акциядор, иштирокчи, муассис), унинг кузатув кенгаши ва бошқаруви мазкур Қоидаларнинг самарали бажарилишини таъминлаш мақсадида ўзаро ҳамкорлик қилиши лозим. Қоидалар тавсияларига риоя қилиш мажбуриятини қабул қилиш тўғрисидаги қарор ДИКнинг олий бошқарув органи томонидан қабул қилинади.

Мажбуриятлар тўғрисида ахборотни ошкор қилиш. ДИК томонидан Қоидалар тавсияларига риоя қилиш мажбуриятини қабул қилиш ва уларнинг бажарилиши тўғрисидаги ахборот Ўзбекистон Республикаси Давлат активларини бошқариш

агентлигининг веб-сайтида, шунингдек ДИКнинг веб-сайтида жойлаштирилиши лозим.

Қоидаларни жорий этиш ва уларга риоя этилишини мониторинг қилиш бўйича тавсия этиладиган ҳаракатлар кетма-кетлиги 1-иловада келтирилган.

ДИКлар Қоидалар тавсияларига риоя қилиш мажбуриятини 2-иловага мувофиқ шаклдаги хабарномани эълон қилиш орқали ошкор этишлари лозим.

Мазкур Қоидалар тавсияларини жорий этиш халқаро «риоя қил ёки тушунтир» тамойили асосида амалга оширилади. Қоидалар тавсияларига риоя қилиш имкони бўлмаган тақдирда, ДИК бунинг сабабларини батафсил ошкор қилиши лозим. Қоидалар тавсияларига риоя этмаслик давлат органлари томонидан санкциялар қўлланилишига олиб келмаслиги керак.

II. АКЦИЯДОРЛАРГА ТЕНГ ҲУҚУҚЛИ МУНОСАБАТ

2. Акциядорлар (иштирокчилар)га адолатли муносабатни таъминлаш ва уларнинг бошқарувда иштирок этиш ҳуқуқларини амалга оширишга кўмаклашиш мақсадида ДИК:

- давлат номидан иш юритувчи акциядор (иштирокчи) билан биргаликда бошқа акциядорлар (иштирокчилар)нинг қонунчиликда белгиланган ҳуқуқларини ҳурмат қилади, уларни ҳимоя қилиш чораларини кўради, шунингдек уларга тегишли акциялар (улушлар)дан қатъи назар барча қолган акциядорлар (иштирокчилар)га тенг ҳуқуқли муносабатни таъминлайди;
- акциядорлар (иштирокчилар) ўз қонуний манфаатлари ва ҳуқуқларини ҳимоя қилиш мақсадида акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилиши кун тартибига қандай таъсир кўрсатиши мумкинлиги тўғрисидаги нормани уставга киритади;
- акциядорлар (иштирокчилар)га ҳар бир турдаги акциялар ва корхона улушлари берадиган ҳуқуқлар тўғрисидаги ахборотдан фойдаланиш имкониятини тақдим этади;
- корхона акциялари (улушлари) берадиган ҳуқуқларни ўзгартириш билан боғлиқ масалаларни акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилишида кўриб чиқади;
- миноритар акциядорлар (иштирокчилар) ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари бузилган ҳолларда уларни ҳимоя қилишнинг самарали механизмларини, шу жумладан етказилган зарарни қоплаш чораларини яратади;
- инсайдерлик ахбороти асосида битимлар тузишни тақиқлайди;
- кузатув кенгашини сайлаш масаласини акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилиши ваколатига киритади;
- Кузатув кенгаши тўғрисидаги низом ва Ижроия органи тўғрисидаги низомга кузатув кенгаши ҳамда ижроия органи аъзоларининг ДИКга нисбатан ҳар қандай битимда ёки масалада манфаатдорлиги, манфаатлар тўқнашуви мавжуд бўлганда, бу ҳақда ахборотни ошкор қилиш мажбуриятини назарда тутувчи нормани киритади;

- почта алоқаси ва электрон почта орқали (электрон имзо билан тасдиқлаш шарти билан) сиртдан овоз бериш, ишончнома асосида овоз бериш, шунингдек видеоконференциялар орқали умумий йиғилишларни ўтказиш учун имконият ва шарт-шароитларни яратади;
- уставда қўшимча акциялар чиқарилганда акциядорлар устав капиталидаги ўз улушига мутаносиб равишда акцияларни сотиб олиш ҳуқуқига, шунингдек акциядорларнинг талаби бўйича акцияларни сотиб олиш ҳуқуқига эга эканлигини назарда тутди (жамият акцияларининг 50 фоизи ва ундан ортиғига эга бўлган шахс, агар у бунгача ушбу жамият акцияларига эга бўлмаган ёки 50 фоиздан кам акцияларга эгалик қилган бўлса, ўттиз кун ичида қолган акциялар эгаларига акцияларни бозор қийматида сотиб олиш тўғрисида таклиф эълон қилиши шарт);
- уставда камида 5 фоиз акция (улуш)га эга бўлган акциядорлар (иштирокчилар) махсус масалалар бўйича аудиторлик текширувини (мажбурий аудиторлик текширувидан ташқари) ўтказишни ташаббус қилиш ҳуқуқига эга эканлигини кўрсатади. Бунда улар белгиланган тартибга риоя қилиши, махсус масалалар бўйича аудиторлик текшируви акциядор (иштирокчи)га ўз ҳуқуқларини амалга ошириш ёки муассислар ёки бошқа шахслар томонидан ДИКка ёки акциядорларга (иштирокчиларга) зарар етказган қонун ёки устав бузилишини аниқлаш учун зарур эканлигини ишончли равишда асослаши лозим.

3. Барча акциядорлар (иштирокчилар)нинг ахборотдан тенг фойдаланишини таъминлаш мақсадида ДИК Кузатув кенгаши ва ижроия органи:

- ДИКнинг молиявий-хўжалик фаолиятида юз берган, муҳим фактлар сифатида белгиланган ўзгаришлар тўғрисидаги ахборотни, шунингдек V бўлимда баён этилган тартибда барча акциядорлар (иштирокчилар)га тўлиқ ошкор қилинишини таъминлайди;
- барча акциядорларга (иштирокчиларга) бир вақтнинг ўзида ва бир хил шартларда тақдим этилиши лозим бўлган ахборотни адолатли ошкор қилиш орқали ДИКнинг юқори даражадаги шаффофлигини таъминлайди;
- акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилишига тайёргарлик кўриш жараёнида барча акциядорларга (иштирокчиларга) тўлиқ иштирок этиш ва бошқарув ҳуқуқларини амалга оширишлари учун зарур ахборотни тақдим этади;
- акциядорларга (иштирокчиларга), жумладан миноритар акциядорларга, овоз беришда ўзларининг консолидациялашган позицияларини шакллантириш учун акцияларга (улушларга) эгалик қилиш бўйича келишувлар тузиш имкониятини беради, бунда бундай келишувлар ДИКнинг веб-сайтида ошкор қилинади.

4. Акциядорлар (иштирокчилар) билан муносабатлар ва маслаҳатлашувларни таъминлаш мақсадида ДИК:

- ДИК ва унинг акциядорлари ўртасида ўзаро алоқа қилиш ва маслаҳатлашиш имконини берадиган тизимларни, шу жумладан веб-сайтлар ва электрон почта орқали акциядорлар билан мулоқот қилиш тизимларини ишлаб чиқади;

- ДИКнинг барча манфаатдор шахслари (бошқарув органлари аъзолари, мансабдор шахслар ва корхона ходимлари), акциядорлар (муассислар), бошқа бозор иштирокчилари, жумладан етказиб берувчилар ва мижозлар, шунингдек оммавий ахборот воситалари вакиллари ўртасидаги ўзаро муносабатлар учун коммуникация сиёсатини белгилайди;
- акциядорлар (иштирокчилар) ва бошқа манфаатдор шахсларни корхонада юз бераётган асосий воқеалар тўғрисида хабардор қилиш учун даврий учрашувлар ташкил этади;
- миноритар акциядорларнинг роллари ва ҳуқуқларини уставлар ёки бошқа усуллар орқали чеклашга йўл қўймайди, шунингдек кун тартиби масалалари ва йирик битимлар тузишда миноритар акциядорлар билан маслаҳатлашувларни ташкил этади;
- акциядорларга (иштирокчиларга) давлат сиёсати мақсадларининг бажарилиши тўғрисидаги ахборотни (мавжуд бўлганда) ошкор қилади.

Ушбу бандда назарда тутилган акциядорлар (иштирокчилар) билан коммуникация ишлари устидан назорат Кузатув кенгаши, у мавжуд бўлмаган тақдирда эса акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилиши томонидан амалга оширилади.

5. Миноритар акциядорлар (муассислар)нинг ДИКни бошқаришда иштирок этишига қўмаклашиш мақсадида:

- ДИК уставида акциядорлар умумий йиғилиши, кузатув кенгаши ва ижроия органи ваколатига кирувчи масалалар белгиланган бўлиши керак;
- кузатув кенгаши акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилиши кун тартибини дастлабки кўриб чиққандан сўнг тасдиқлаши керак;
- ижроия органи барча акциядорларга (муассисларга) акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилиши кун тартиби бўйича материалларни, шу жумладан йирик битимлар тўғрисидаги ахборотни ва ушбу масалалар бўйича тушунтиришларни тақдим этади.

6. Битимлар фақат бозор шартларида амалга оширилишини таъминлаш мақсадида ДИК Кузатув кенгаши:

- ДИК ва аффилиланган шахслар ўртасидаги битимлар тегишли ахборотни ошкор қилган ҳолда ташкил этилган биржа савдоларининг асосий секциясида (main board) бозор шартларида амалга оширилиш тартибини белгилайди;
- аффилиланган шахслар билан операцияларни адолатли амалга оширилишини таъминлайди, бунда аффилиланган шахслар рўйхатлари тузилади ва бозор шартларига мувофиқ бўлмаган операциялар тақиқланади;
- аффилиланган шахслар билан тузилган битимлар тўғрисидаги ахборотни, шу жумладан жорий хўжалик фаолияти жараёнида тузилган битимлар ҳақидаги маълумотларни ошкор қилади.

ДИКда шўъба ва қарам хўжалик жамиятлари мавжуд бўлган тақдирда, улар шартномавий ҳуқуқ ва мажбуриятларга риоя қилинишини, шунингдек низоларнинг ўз вақтида ва ҳолисона кўриб чиқилишини таъминлайди.

III. МАНФААТДОР ТОМОНЛАР БИЛАН МУНОСАБАТЛАР ВА МАСЪУЛИЯТЛИ БИЗНЕС ЮРИТИШ

7. ДИКлар ходимлар, кредиторлар, мижозлар, етказиб берувчилар ва бошқа шахсларни ўз ичига олган барча манфаатдор томонлар олдидаги ўз мажбуриятларини бажаришлари шарт.

8. ДИКнинг ижроия органи Кузатув кенгаши раҳбарлигида шартномавий мажбуриятларга риоя қилиш ва манфаатдор томонлар ҳуқуқларини таъминлаш мақсадида қуйидагиларни назарда тутувчи сиёсатни ишлаб чиқади:

- манфаатдор томонларни ўз вақтида аниқлаш, уларнинг ҳуқуқларини белгилаш, шунингдек барча манфаатдор томонларга адолатли муносабатда бўлиш мақсадини;
- кредиторлар, ходимлар ва бошқа манфаатдор томонларнинг қонунчилик ва ўзаро келишувларда белгиланган ҳуқуқларини ҳимоя қилиш механизмларини;
- Ахлоқ кодекси ёки Масъулиятли бизнес юритиш сиёсатида назарда тутилادиган манфаатдор томонларга нисбатан корхона сиёсатини самарали амалга ошириш бўйича кузатув кенгашларининг вазифаларини;
- манфаатдор томонларнинг шикоятларини ўз вақтида кўриб чиқиш ва уларнинг ҳуқуқлари бузилишини корхона томонидан бартараф этишни;
- манфаатдор томонларга, шу жумладан ходимларга, ДИКдаги ноқонуний ёки ноахлоқий хулқ-атвор амалиёти бўйича ўз хавотирлари ҳақида хабар бериш имкониятини.

IV. ИЧКИ НАЗОРАТ ТИЗИМИ

9. ДИКнинг олий органи корхона раҳбарияти томонидан қуйидаги асосий мақсадларга эришишга қаратилган сиёсатни белгилайди:

- ташкилотнинг молиявий фаолиятида оқилона ёндашув ва самарадорликни таъминлаш;
- унинг молиявий ҳисоботининг ишончлилигини таъминлаш;
- амалдаги қонунчилик нормалари ва стандартларига риоя қилишни таъминлаш.

ДИКлар COSO (The Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) моделларига асосланган, қуйидаги кўрсаткичлар бўйича кенг қамровли тайёргарликни назарда тутувчи интеграциялашган рискларни бошқариш ва ички назорат моделини жорий этишлари лозим:

- барча рискларни аниқлаш ва таснифлаш (рисклар харитаси);
- аниқланган рискларни барча мавжуд усуллар ва дастурий таъминотлар орқали баҳолаш;
- ҳар бир риск турини бошқаришни белгилаш ва ҳар бир риск учун лимитларни (риск-аппетитни) ўрнатиш;
- корхона ичида рискларни назорат қилиш ва уларга жавоб беришнинг самарали

тизимини шакллантириш.

COSO модели саккизта компонентдан иборат:

- ички муҳит (internal environment). Ички муҳит корхонадаги муҳитни ифодалайди ва рискнинг корхона ходимлари томонидан қандай қабул қилиниши ҳамда унга қандай муносабат билдирилишини белгилайди. Ички муҳит рискларни бошқариш фалсафаси ва риск-аппетитни, ҳалоллик ва ахлоқий қадриятларни, шунингдек улар мавжуд бўлган муҳитни ўз ичига олади;
- мақсадларни белгилаш (objective setting). Раҳбарият мақсадларга эришишга таъсир кўрсатиши мумкин бўлган воқеаларни аниқлашни бошлашидан олдин мақсадлар белгиланиши лозим. Рискларни бошқариш жараёни корхона раҳбариятида мақсадларни танлаш ва шакллантириш жараёни тўғри ташкил этилганлиги ҳамда улар ташкилот миссияси ва риск-аппетити даражасига мувофиқ эканлигига оқилона қафолат беради;
- воқеаларни аниқлаш (event identification). Корхона мақсадларига эришишга таъсир кўрсатувчи ички ва ташқи воқеалар уларни рисклар ёки имкониятларга ажратишни ҳисобга олган ҳолда аниқланиши керак. Имкониятлар стратегияни шакллантириш ва мақсадларни белгилаш жараёнида раҳбарият томонидан ҳисобга олиниши лозим;
- рискларни баҳолаш (risk assessment). Рисклар уларнинг юзага келиш эҳтимоли ва таъсир даражасини ҳисобга олган ҳолда таҳлил қилинади, бу эса уларга нисбатан қандай чоралар кўриш зарурлигини аниқлаш имконини беради. Рисклар ички ва қолдиқ риск нуқтаи назаридан баҳоланади;
- рискка жавоб бериш (risk response). Раҳбарият рискка жавоб бериш усулини — рискдан қочиш, уни қабул қилиш, камайтириш ёки қайта тақсимлашни танлайди ва аниқланган рискни корхонанинг йўл қўйиладиган риск даражаси ҳамда риск-аппетитига мувофиқлаштиришга имкон берувчи чора-тадбирларни ишлаб чиқади;
- назорат воситалари (control activities). Сиёсатлар ва тартиб-таомиллар юзага келаётган рискка жавоб бериш самарали ва ўз вақтида амалга оширилишини оқилона қафолатлайдиган тарзда ишлаб чиқилади ва ўрнатилади;
- ахборот ва коммуникациялар (information and communication). Зарур ахборот ходимларга ўз функционал вазифаларини бажариш имконини берадиган шаклда ва муддатларда аниқланади, қайд этилади ҳамда етказилади. Шунингдек, ташкилот доирасида юқоридан пастга, пастдан юқорига ва горизонтал йўналишда самарали ахборот алмашинуви таъминланади;
- мониторинг (monitoring). Ташкилотнинг бутун рискларни бошқариш жараёни кузатиб борилади ва зарурат туғилганда тузатилади. Мониторинг раҳбариятнинг жорий фаолияти доирасида ёки даврий баҳолашлар ўтказиш йўли билан амалга оширилади.

Кузатув кенгаши рискларни бошқариш бўлинмасини ҳамда комплаенс-рискни бошқариш учун масъул таркибий бўлинмани (кейинги ўринларда — бўлинма) ташкил этиши ва уларнинг мустақиллигини таъминлаши лозим.

Бўлинманинг мустақиллигини таъминлаш мақсадида кузатув кенгаши,

рискларни бошқариш қўмитаси (агар у ташкил этилган бўлса):

- бўлинманинг кузатув кенгашига ҳисобдорлигини таъминлайди;
- бўлинма раҳбарларини тайинлайди (уларнинг ваколатларини тугатади);
- бўлинма раҳбарлари ва ходимларига ким томонидан бўлмасин босим ўтказилиши ҳолатларининг олдини олади;
- ДИК раҳбариятини хабардор қилмасдан туриб, корхонадаги рисклар ҳолати тўғрисида бўлинма ходимлари билан бевосита муҳокамалар олиб боради.

Рискларни бошқариш тизимини самарали ташкил этиш мақсадида кузатув кенгаши қуйидагиларни ўз ичига олган Рискларни бошқариш сиёсатини тасдиқлаши лозим:

- риск-аппетитни ҳисоблаш;
- янги маҳсулотларни жорий этиш бўйича корхона сиёсати;
- стресс-тест ўтказиш механизми;
- ДИКнинг молиявий ҳолатини тиклаш режаси;
- рискларни бошқаришнинг ташкилий тузилмаси.

Ижроия органи ва бўлинма кузатув кенгаши томонидан тасдиқланадиган рискларни бошқариш сиёсати ҳамда ДИКнинг бошқа ички ҳужжатларига мувофиқ рискларни бошқариш тизимининг самарали фаолият юритишини таъминлайди.

10. Кузатув кенгаши қуйидагиларни ўз ичига олган Ахлоқ кодексини ишлаб чиқиш ва амалга оширишни таъминлайди:

- кузатув кенгаши, раҳбарият, ходимлар ва бошқа манфаатдор томонларнинг ҳуқ-атворига қўйиладиган талаблар, коррупцияга қарши курашиш ва манфаат излаш билан боғлиқ ҳаракатларга қарши чоралар, шунингдек давлат корхоналарида коррупцияга қарши курашиш ва ҳалоллик бўйича раҳбарий тамойилларга мувофиқ бундай ҳаракатлар учун жавобгарлик;
- ижроия органининг фирибгарлик жараёнлари билан боғлиқ масалалар бўйича Кузатув кенгашига ҳисобот тақдим этиш жараёни, шунингдек фирибгарлик фактларини тасдиқловчи қайдларнинг ҳисобдорлиги;
- фирибгарлик ҳолатларининг олдини олиш ва аниқлаш билан боғлиқ масалалар бўйича тренинглар ўтказиш талаблари;
- мазкур ДИКнинг маъмурий мансабдор шахслари томонидан ҳаракатлар ва битимлар амалга оширилишида эҳтимолий манфаатлар тўқнашувининг олдини олиш.

ДИКда манфаатлар тўқнашуви билан боғлиқ низоларнинг олдини олиш ва уларни ҳал этишни таъминлаш мақсадида Манфаатлар тўқнашуви сиёсати бўлиши керак. У қуйидагиларни ўз ичига олади:

- бошқарув аъзолари, бўлинма раҳбарлари ва корхона ходимларининг ДИК манфаатларида ҳаракат қилиш мажбурияти;
- жинси, ирқи, дини, миллати, тили, ижтимоий келиб чиқиши, шахсий ва ижтимоий мавқеидан қатъи назар барча ходимларга тенг муносабатда бўлиш.

11. Масъулиятли ишбилармонлик ҳуқ-атворини таъминлаш мақсадида ДИК:

- ўз фаолиятида тегишли экологик стандартлар, меҳнат хавфсизлиги ва муҳофазаси стандартларини қабул қилиш, ижтимоий масалаларни, шунингдек

ходимлар ва касаба уюшмаларига оид масалаларни ҳал этишга қаратилган чораларни кўради;

- ҳар йили ишбилармонлик амалиёти, тегишли экологик стандартларга риоя қилиниши, барқарорлик, ижтимоий масалалар ва меҳнат хавфсизлиги ҳамда муҳофазаси стандартлари, шунингдек ходимлар ва касаба уюшмалари билан боғлиқ муаммолар тўғрисидаги ахборотни ошкор қилади;
- мазкур ДИК билан боғлиқ ҳар қандай манфаатдорлик, келишув ёки муаммо тўғрисидаги ахборотни (махфий ахборот ва тижорат сири ҳисобланган ахборот бундан мустасно) ошкор қилади;
- уставда кўрсатилган бизнес мақсадлари ва вазифалари билан боғлиқ бўлмаган активларга инвестиция киритмайди;
- сиёсий партиялар фаолиятини қўллаб-қувватлашда ва сиёсий манфаатларга эга ташкилотларда иштирок этмайди.

V. АХБОРОТНИ ОШКОР ҚИЛИШ ВА ШАФФОФЛИК

12. ДИК фаолиятининг шаффофлиги ва очиқлигини таъминлаш мақсадида:

мазкур Қоидалар тавсияларининг «риоя қил ёки тушунтир» тамойили асосида бажарилиши, муҳим фактлар ҳамда қонунчиликда назарда тутилган бошқа ахборотлар (махфий ахборотлар бундан мустасно), шунингдек ҳар қандай муҳим воқеалар ёки муҳим корпоратив ўзгаришлар тўғрисидаги маълумотларни ўз ичига олган чораклик ва йиллик ҳисоботларни ошкор қилади;

молиявий ҳисоботни Халқаро молиявий ҳисобот стандартларига мувофиқ эълон қилади;

корхонанинг мақсади ва унга юклатилган вазифаларнинг бажарилиши тўғрисидаги ахборотни ошкор қилади;

ДИКнинг давлат улуши мавжуд бўлган бошқа хўжалик жамиятлари устав капиталидаги иштироки тўғрисидаги ахборотни эълон қилади;

агар мазкур корхона назорат қилинадиган шўъба хўжалик жамиятлари ва ташкилотларига эга бош компания бўлса, консолидациялашган молиявий ҳисоботни тузади;

ХМҲСга мувофиқ сегментлар бўйича фойда ва (ёки) зарарлар, шунингдек тушум тўғрисидаги ахборотни тузади ва эълон қилади;

аффилиланган шахслар билан тузилган битимлар тўғрисидаги ахборотни ХМҲСга мувофиқ батафсил ошкор қилади;

корхона капитали тузилмаси (20 фоиздан ортиқ эгалик улуши билан), шунингдек давлат номидан иш юритувчи давлат органи — акциядор (иштирокчи) тўғрисидаги ахборотни эълон қилади;

«олтин акция», вето ҳуқуқи ва бошқа махсус ҳуқуқлар ёки келишувлар тўғрисидаги ахборотни ошкор қилади;

ижроия органи ва кузатув кенгаши аъзоларига тўланадиган ҳақ ва бошқа тўловлар тўғрисидаги ахборотни ошкор қилади;

корхона бошқарув тузилмаси, ижроия органи ва кузатув кенгаши аъзолари, уларнинг ёши, малакаси, иш тажрибаси ва вазифалари тўғрисидаги ахборотни корхона

веб-сайтида эълон қилади;

ошкор қилинаётган барча ахборот жамоатчилик учун корхона веб-сайтида осонлик билан фойдаланиш имконига эга бўлиши керак;

амалдаги қонунчиликка мувофиқ ошкор қилиниши лозим бўлган ахборотни расмий веб-сайтда доимий асосда жойлаштиради.

13. ДИК йиллик ҳисобот билан бир қаторда ўз веб-сайтида қуйидагиларни эълон қилади:

а) Бошқарув таҳлили бўйича ҳисобот, унда:

тармоқ тузилмаси, ДИК вазифалари ва самарадорлигига дахлдор бўлган миллий ва халқаро тармоқ ишланмалари;

корхонанинг SWOT таҳлили (кучли ва заиф томонлари ҳамда хавф-хатарлар таҳлили), махфий ахборот бундан мустасно; сегментлар ёки маҳсулотлар бўйича самарадорлик; асосий хавфлар ва муаммолар; ички назорат тизимлари ва уларнинг етарлилиги; ҳисобот йили ва ундан олдинги икки йилдаги операцион кўрсаткичларга нисбатан молиявий кўрсаткичларни муҳокама қилиш;

кадрлар ресурсларидаги муҳим ўзгаришлар; атроф-муҳитни муҳофаза қилиш; технологияларни сақлаш ва ривожлантириш (агар бу корхона фаолияти соҳасига тааллуқли бўлса);

давлат сиёсатида белгиланган вазифаларнинг бажарилиши (мавжуд бўлганда), ушбу мақсадларни амалга ошириш харажатлари ва уларни молиялаштириш манбалари.

б) Хавфларни бошқариш тузилмаси, унда:

хавфларни аниқлаш, бошқариш, назорат қилиш ва улар ҳақида хабар бериш тартиби;

ДИК дуч келадиган хавфларнинг хусусияти ва турлари, шунингдек бундай хавфларни бошқариш учун қўлланиладиган жараён ва тартиб-таомиллар;

ҳодимларнинг фирибгарликнинг олдини олиш ва уни аниқлаш бўйича масъулияти;

назоратни амалга ошириш учун фирибгарлик билан боғлиқ масалалар бўйича ҳисобот тақдим этиш жараёни;

фирибгарликни тасдиқловчи ҳисобот бериш ва қайд қилиш жараёнлари;

фирибгарликнинг олдини олиш ва уни аниқлаш бўйича ўқувлар ўтказиш талаби.

14. Агар ДИК давлат органи билан ўзаро муносабатларга эга бўлса, у қуйидагилар тўғрисидаги ахборотни ошкор қилади:

давлат хизматларини кўрсатиш бўйича мажбуриятлар, давлат ва корхона ўртасидаги ўзаро мажбуриятлар, молиявий ёрдам, олинган грантлар ва субсидиялар, шунингдек ушбу ахборот махфий бўлмаган тақдирда, ДИК фаолиятига нисбатан Ҳукумат томонидан тақдим этилган кафолатлар;

ахборотни ошкор қилишнинг энг яхши амалиётига мувофиқ давлат-хусусий шериклик (ДХШ) тўғрисидаги маълумотлар.

15. ДИК фаолияти устидан тегишли ташқи назоратни амалга ошириш мақсадида: корхона молиявий ҳисоботнинг халқаро аудит стандартларига (ХАС) мувофиқ ҳар йиллик мустақил ташқи аудитини ўтказди;

Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни ва

бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга мувофиқ бухгалтерия ҳисобини юритади;
уставга аудиторлик ташкилотини акциядорлар (иштирокчилар) умумий
йиғилиши томонидан белгилаш тўғрисидаги нормани киритади;
корхонанинг йиллик молиявий ҳисоботи акциядорлар (иштирокчилар) умумий
йиғилиши томонидан тасдиқланади

VI. КУЗАТУВ КЕНГАШИНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

16. Кузатув кенгаши аъзолари ва ижроия органининг мажбуриятлари, жавобгарлиги ва сон таркиби, уларнинг ваколат муддати ҳамда тайинланиш тартиби ДИК уставида белгиланади.

17. Кузатув кенгаши фаолиятининг самарадорлиги корпоратив бошқарув тизимини жорий этиш даражасини баҳолаш асосида аниқланади.

18. ДИКлар:

- кузатув кенгаши аъзолигига номзодлар учун малака талабларини (тижорат, молиявий ва соҳавий тажриба) белгилайди;
- корхона уставида назарда тутилган умумий аъзолар сонидан камида бир нафар мустақил аъзони кузатув кенгаши таркибига киритади;
- корхонада энг юқори малакали бошқарув шакллантирилишини таъминлайди. Ижроия органи аъзоси алмаштирилганда Кузатув кенгаши кенг манбалар доирасидан номзодларнинг малакасини ҳисобга олиши ва хорижий номзодлар учун очик бўлган танлов асосида саралаш жараёнини кўриб чиқиши керак;
- тайинлаш ва рағбатлантириш қўмитаси томонидан ишлаб чиқиладиган, танлов эълон қилиш тартиби ва объектив саралаш мезонлари баён этилган раҳбарлик лавозимларига танлов ўтказиш регламентини тасдиқлайди;
- ДИК фаолияти билан боғлиқ масалалар бўйича семинар ва амалий машғулотлар, шунингдек корпоратив бошқарув бўйича махсус ўқув курслари орқали кузатув кенгаши аъзоларининг малакаси ва кўникмаларини ошириш учун ҳар йили ўқувлар ташкил этади. Янги кузатув кенгаши аъзолари корхона, унинг фаолият муҳити, стратегик мақсадлари ва корхонани бошқаришдаги ҳамда унинг мақсадларига эришишни таъминлашдаги ўз ролини тушунишга ёрдам берувчи кириш ўқувидан ўтишлари шарт;
- кузатув кенгашининг тегишли масалаларни муҳокама қилишини қўллаб-қувватлаш мақсадида фақат кузатув кенгаши аъзоларидан иборат аудит, тайинлаш ва рағбатлантириш, инвестициялар бўйича қўмиталарни ташкил этади.

19. Қуйидаги шахс кузатув кенгашининг мустақил аъзоси бўлиши мумкин эмас:

- сўнгги уч йил давомида жамиятда ва (ёки) жамиятнинг аффилиланган шахсларида ишлаган шахс;
- жамиятнинг овоз берувчи акцияларининг беш фоизи ва ундан ортиғига бевосита ва (ёки) аффилиланган шахслар орқали эгалик қилувчи акциядор;
- жамият ва (ёки) унинг аффилиланган шахсининг йирик мижози ва (ёки) йирик етказиб берувчиси билан фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларга эга шахс. Бунда икки минг базавий ҳисоблаш миқдоридан ортиқ суммада амалдаги шартномаси мавжуд бўлган шахслар йирик мижоз ва йирик етказиб берувчи деб ҳисобланади;

- сўнгги уч йил давомида жамиятга ва (ёки) унинг аффилланган шахсларига аудиторлик хизматлари кўрсатган аудиторлик ташкилоти ходими;
- кетма-кет олти йил давомида жамият кузатув кенгаши таркибида бўлган шахс;
- жамият ва (ёки) унинг аффилланган шахслари билан, кузатув кенгаши аъзосининг вазифа ва функцияларини бажаришни таъминлаш билан боғлиқ келишувлардан ташқари, ҳар қандай келишувларга эга шахс;
- сўнгги уч йил давомида жамият ва (ёки) унинг аффилланган шахсларининг бошқарув ва ички назорат органлари аъзоси бўлган ёки бўлиб турган шахс билан яқин қариндошлик ёки қуда-андачилик муносабатларида бўлган шахс (ота-она, ака-ука, опа-сингил, ўғил-қиз, эр-хотин, шунингдек эр-хотиннинг ота-онаси, ака-укаси, опа-сингилси ва фарзандлари);
- давлат бошқаруви органи ёки давлат корхонаси ходими бўлган шахс;
- жамият уставида ёки акциядорлар умумий йиғилиши қарорлари билан тасдиқланган ҳужжатларда белгиланган талабларга жавоб бермайдиган шахс.

Кузатув кенгаши аъзолари акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилишларида сайланади ёки давлат корхонаси муассисининг қарори билан қонунчилик ва корхона уставида белгиланган муддатга тайинланади.

20. ДИК Кузатув кенгаши:

- ДИК манфаатларида ҳаракат қилади, қарорларни мустақил ва холис қабул қилиш, барча акциядорлар (иштирокчилар) тенглигини таъминлаш мажбуриятини олади;
- кузатув кенгаши, акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилиши, устав ва корхонани ривожлантириш стратегиялари томонидан қўйилган вазифаларни бажариш учун ижроия органлари ўз ваколатига киритилган масалаларни мустақил ҳал этиши ҳақидаги талабларни жорий этади;
- акциядорлар, корхона бошқарув ва назорат органлари аъзолари ўртасида ўзаро ишонч, ҳурмат, ҳисобдорлик ва назорат тамойиллари асосида ҳамкорликни таъминлайди;
- тегишли самарадорлик кўрсаткичларини белгилайди ва асосий хавф-хатарларни аниқлайди;
- кузатув кенгаши раиси кузатув кенгаши аъзолари ва ижроия органи жавобгарлигини суғурталаш таъминланишини назорат қилади;
- объективлик, ҳалоллик ва ДИКка нисбатан қўлланиладиган қонунчилик, қоида ва меъёрларга умумий мувофиқлик каби ички назоратнинг умумэтироф этилган тамойилларига риоя этилишини таъминлаш учун асосли сиёсат, тартиб-таомил ва ўзаро тийиб туриш ҳамда мувозанат тизимини ўз ичига олган оқилона ички назорат тизимини яратади;
- ахборотни ошкор қилиш ва коммуникация жараёнларини назорат қилади, молиявий ҳисоботлар корхона ҳақидаги маълумотларни холис акс эттириши ва назарда тутилган хавф-хатарларни камраб олишини кафолатлайди;
- корхона ижроия органи фаолиятига тааллуқли ҳар қандай ҳужжатларга кириш ва уларни кузатув кенгаши зиммасига юклатилган вазифаларни бажариш учун ижроия органидан олиш ҳуқуқига эга. Олинган ҳужжатлар кузатув кенгаши ва унинг аъзолари томонидан фақат хизмат мақсадларида фойдаланилиши мумкин.

21. Кузатув кенгаши аъзоларига қуйидаги фидуциар мажбуриятлар татбиқ этилади:

- эътиборлилик мажбурияти — бу мажбурият кузатув кенгаши аъзосидан лозим даражада эҳтиёткорлик ва ғамхўрлик билан ҳаракат қилишни талаб қилади;
- содиқлик ва манфаатлар тўқнашувидан қочиш мажбурияти — бу мажбурият кузатув кенгаши аъзосидан биринчи навбатда корхона манфаатларида ҳаракат қилишни талаб қилади;
- лозим даражада эҳтиёткорлик кўрсатиш мажбурияти — бу мажбурият кузатув кенгаши аъзосидан корхонага оид қарорлар қабул қилишда эҳтиёткорлик кўрсатишни талаб қилади;
- мустақил фикр юритиш мажбурияти — бу мажбурият кузатув кенгаши аъзосидан қарорларни шахсий манфаатлари ёки бошқа манфаатларни ҳисобга олмасдан мустақил қабул қилишни талаб қилади.

22. Манфаатлар тўқнашуви билан боғлиқ низоли вазиятларнинг келиб чиқишини олдини олиш ва уларни тартибга солиш мақсадида ДИКлар кузатув кенгаши томонидан тасдиқланадиган манфаатлар тўқнашуви юзага келганда ҳаракат қилиш тартиби тўғрисидаги низомни ишлаб чиқадилар, унда қуйидагилар назарда тутилади:

- корхона мансабдор шахсларининг корхона манфаатларида ҳаракат қилиш мажбуриятлари;
- корхона мансабдор шахслари томонидан ҳаракатлар ва битимлар амалга оширилганда, шунингдек ахборот ошкор қилинганда манфаатлар тўқнашуви юзага келиши мумкин бўлган ҳолатларни аниқлаш;
- манфаатлар тўқнашуви юзага келганлиги тўғрисида корхона мансабдор шахсларининг кузатув кенгашини хабардор қилиш мажбуриятлари;
- манфаатлар тўқнашуви билан боғлиқ низоли вазиятларни тартибга солишнинг батафсил регламенти, жумладан уларни ҳал қилиш учун манфаатдор бўлмаган учинчи шахсни тайинлаш ёки манфаатлар тўқнашувини ҳал қилиш вазифасини кузатув кенгашининг мустақил аъзосига (мустақил аъзоларига) юклаш.

23. ДИКларда самарали ички назорат механизмларини жорий этиш мақсадида контрагентлар билан амалга оширилган операциялар бўйича ҳам ички аудитни амалга ошириш ваколати берилган ички аудит хизматлари ташкил этилади.

Ички аудит хизмати ходимлари кузатув кенгаши томонидан тайинланади ва унга ҳисобдор бўлади.

24. ДИКнинг йиллик молиявий ҳисоботи қонунчиликда белгиланган муддатларда эълон қилинади.

Ташқи аудитни ўтказиш учун аудиторлик ташкилотини танлаш қонунчиликда белгиланган тартибда ҳар йили танлов асосида, Кузатув кенгаши масъулияти остида амалга оширилади ва у ташқи аудиторни акциядорлар (иштирокчилар) умумий йиғилишида тасдиқлаш учун тавсия этади.

ДИКга ташқи аудит хизматларини кўрсатишда иштирок этган аудиторлик гуруҳининг шериклари ёки бошқа аъзолари икки йиллик муддат ўтмагунча Кузатув кенгаши аъзоси ёки корхонанинг асосий раҳбарлари этиб тайинланиши мумкин эмас.

VII. ИЖРОИЯ ОРГАНИНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

25. Самарали фаолиятни таъминлаш мақсадида қонунчиликда белгиланган ҳолатлар бундан мустасно, ДИК бошқаруви таркибига Ҳукумат раҳбари ва аъзолари ёки сиёсий партиялар раҳбарларини сайлашга йўл қўйилмайди.

26. Ижроия органи аъзолари ДИКнинг жорий молиявий-хўжалик фаолияти учун масъул ҳисобланади.

27. Раҳбар ўзининг ва ижроия органи аъзоларининг жавобгарлигини суғурталашни таъминлаш мажбуриятини олади.

28. Корхона уставида бошқарув раҳбарининг (бошқарув раиси) ваколатлари белгиланган бўлиши керак.

29. Ижроия органи фаолиятининг самарадорлиги корхонанинг асосий самарадорлик кўрсаткичларини амалга ошириш натижалари бўйича белгиланади.

30. Ижроия органи аъзоларига нисбатан малака талаблари кузатув кенгаши томонидан белгиланади ва ДИК фаолиятининг ўзига хос хусусиятларига (тармоқ, тижорат, молиявий ва соҳавий тажрибага) мувофиқ қўйилади.

31. Ижроия органига юклатилган вазифаларни бажариш ва корхонанинг корпоратив мақсадларига эришиш учун корхона ходимлари ҳамда ташқи экспертлардан иборат бўлиши мумкин бўлган операцион қўмиталар ёки ишчи гуруҳлар тузиш имкониятини кўриб чиқиш тавсия этилади.

VIII. ҚОИДАЛАРНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШ МОНИТОРИНГИ

32. Қоидаларнинг бажарилишини мониторинг қилиш мақсадида ДИКнинг ижроия органи Кузатув кенгаши назорати остида 3-иловага мувофиқ шакл бўйича Қоидалар тавсияларига риоя этилишини баҳолашни ўтказди.

33. Баҳолаш натижалари ҳар йили Кузатув кенгаши томонидан кўриб чиқилиши лозим.

1-ИЛОВА
«UZGASTRADE» АЖ корпоратив
бошқарув қоидаларига

КОРХОНА ТОМОНИДАН КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ
ҚОИДАЛАРИ ТАВСИЯЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШ
ТЎҒРИСИДАҒИ ХАБАР ШАКЛИ

«_____» (АЖ, МЧЖ, ДУК) шуни маълум қиладики, акциядорлар (иштирокчилар, муассис) умумий йиғилишининг 202_ йил «» _____даги № қарори билан корхона томонидан 202_ йил «» _____дан бошлаб Давлат активларини бошқариш агентлиги томонидан 202_ йил «» _____даги №_ билан тасдиқланган давлат иштирокидаги корхоналар учун корпоратив бошқарув қоидалари тавсияларига риоя қилиш мажбурияти қабул қилинди.

2-ИЛОВА
«UZGASTRADE» АЖ корпоратив
бошқарув қоидаларига

**КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ ҚОИДАЛАРИГА РИОЯ ЭТИЛИШНИ
БАҲОЛАШ НАТИЖАЛАРИ**

т/р	Тавсиялар	Риоя этилган	Риоя этилмаслик сабаблари

*“UZGASTRADE” AJ
yagona aksidorning
2024-yil “8” fevraldagi
1 - sonli qaroriga*

1- ILOVA

“TASDIQLANGAN”

**“UZGASTRADE” AJ
yagona aksiyadorining
2024-yil “8” fevraldagi**

1 - son qarori bilan

**“UZGASTRADE” AKSIYADORLIK JAMIYATI
AKSIYADORLAR UMUMIY YIG‘ILISHI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

Toshkent – 2024-yil

MUNDARIJA:

1. UMUMIY QOIDALAR.....	3
2. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHNING VAKOLATLARI.....	3
3. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG‘ILISHINING QAROR QABUL QILISH TARTIBI.....	5
4. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG‘ILISHIDA QABUL QILGAN QARORLAR IJROSI.....	5
5. YAKUNIY QOIDALAR.....	6

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur tartib “UzGasTrade” aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining huquqiy maqomini, uning faoliyat tartibini, huquq majburiyatlarini va qarorlar qabul qilish tartib-taomilini belgilaydi.

2. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, (bundan buyon mantda - Qonun) “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonunlari va boshqa qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 2 iyuldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 176-sonli qarori hamda Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha Komissiya yig‘ilishining 2015 yil 31 dekabrda 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksiga va “UzGasTrade” AJning (bundan buyon - Jamiyat) Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

3. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi yilda bir marta yillik qaror qabul qiladi.

4. Jamiyat aksiyadorlarining yillik Umumiy yig‘ilishi har yili moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o‘tkaziladi. Qoida tariqasida, aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi har yili iyun oyining ikkinchi yarmida o‘tkaziladi. Yillik qarorda amaldagi qonunchilik va Jamiyat Ustavida belgilangan masalalar bo‘yicha qabul qilinadi.

5. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishidan tashqari o‘tkaziladigan umumiy yig‘ilishlari navbatdan tashqari yig‘ilishlardir.

6. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida Jamiyatning Kuzatuv kengashi va Ijroiya organi rahbari bilan tuzilgan shartnoma muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi masalalar hal qilinadi, shuningdek Jamiyatning yillik hisoboti, Ijroiya organi va Kuzatuv kengashining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasi va biznes rejasi ijrosi yuzasidan ko‘rilayotgan chor-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlar hamda boshqa hujjatlar ko‘rib chiqiladi.

II. AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG‘ILISHNING VAKOLATLARI

7. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishining vakolatiga quyidagilar kiradi:

1) Jamiyat ustaviga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash, Jamiyat ustaviga Jamiyatning ustav fondini ko‘paytirish hamda Jamiyatning e‘lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish bundan mustasno;

2) Jamiyatni qayta tashkil etish;

3) Jamiyatni tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

4) Jamiyat Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a‘zolarini saylash va a‘zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- 5) e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
- 6) Jamiyatning ustav fondini kamaytirish va ko'paytirish;
- 7) o'z aksiyalarini qaytarib sotib olish;
- 8) Jamiyatning ijroiya organini tuzish. Bunda Jamiyat boshqaruv a'zolarini saylash (tayinlash), qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok yetishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jamiyat ijroiya organining faoliyati tartibini belgilab beruvchi Nizomni tasdiqlash;
- 9) Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan so'ng tasdiqlash, ijroiya organini tuzish (saylash, tayinlash, yollash va boshqalar), ularga beriladigan mukofot va kompensatsiya miqdorini belgilash;
- 10) Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdori kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullanganidan so'ng tasdiqlash;
- 11) Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish haqida qaror qabul qilish, auditorlik tashkilotini tayinlash va uning xizmati uchun to'lanadigan pul miqdorining yuqori chegarasini belgilash;
- 12) Jamiyatning yillik hisobotini, buxgalterlik balansini, foyda va zararlar xisobini tasdiqlash;
- 13) Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
- 14) Jamiyat kuzatuv kengashining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan, jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini xulosalarini eshitish;
- 15) Jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 16) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qabul qilish reglamentini tasdiqlash;
- 17) Aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
- 18) Ikki yoki undan ortiq Kuzatuv kengashining a'zosi affillangan shaxs bo'lgan taqdirda affillangan shaxs bilan bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 19) Qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulkni sotib olish yoki sotish xususida yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 20) Yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha jamiyat kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;
- 21) Jamiyat boshqaruv organlari faoliyati tartibini belgilovchi xujjatlarni tasdiqlash;
- 22) jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

23) Aksiyadorlik jamiyatida korporativ boshqaruv asoslarini tartiblovchi ichki nizomlarni tasdiqlash;

24) Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

III. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHINING QAROR QABUL QILISH TARTIBI

8. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan yillik qaror qabul qilinadigan masalalarni dastlab Kuzatuv kengashi ko'rib chiqishni amalga oshiradi.

9. Dastlabki ko'rib chiqish natijasi asosida, Ustavda ko'zda tutilgan aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan yillik qaror qabul qilinishi sanasidan 30 kalendar kunidan kechiktirmay Kuzatuv kengashi tomonidan (yoki uning topshirig'iga ko'ra Jamiyat ijro organi tomonidan) Aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tegishli masalalar yuzasidan qaror qabul qilish bo'yicha yozma, ko'rilayotgan va qaror qabul qilinayotgan masalalar ro'yxatini shuningdek kerakli materiallar ilovasi bilan va kiritilayotgan masalalar bo'yicha Aksiyadorlar umumiy yig'ilish qarori loyixasini o'z ichiga olgan takliflar yuboriladi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi talabiga ko'ra qaror qabul qilish uchun kerakli bo'lgan boshqa materiallar ham taqdim etilishi mumkin.

10. Kuzatuv kengashi yillik qaror qabul qilish uchun kiritgan masalalar bilan birga Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan o'z tashabbusiga ko'ra boshqa qarorlar ham qabul qilinishi mumkin.

11. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolatiga tegishli masalalar yuzasidan navbatdan tashqari qarorlar qabul qilinishi mumkin:

- o'z tashabbusiga ko'ra;
- Kuzatuv kengashining taklifiga ko'ra;
- Jamiyat ijro organining taklifiga ko'ra.

12. Ushbu holatda qaror qabul qilinishining tashabbuskori tomonidan aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga Jamiyat Ustavi va ushbu Nizomda belgilangan materiallar yuboriladi. Ko'rilayotgan masala yuzasidan kerakli materiallar to'plami olingan fursatdan boshlab 5 ish kuni ichida Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan navbatdan tashqari qaror qabul qilinishi yoki asoslantirilgan holda qaytarilishi lozim.

13. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qabul qilayotgan qaror yozma ravishda ikki nusxada qonunda belgilangan muddatda rasmiylashtiriladi va ijro organiga saqlash uchun beriladi.

IV. AKSIYADORLAR UMUMIY YIG'ILISHIDA QABUL QILGAN QARORLAR IJROSI

14. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qabul qilgan qarorlarning nazoratini Kuzatuv kengashi amalga oshiradi, agar qarorda boshqasi ko'zda tutilmagan bo'lsa.

15. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori Jamiyatning barcha boshqaruv organlari uchun ularga taalluqli qismlar bo'yicha bajarish uchun majburiydir.

V. YAKUNIY QOIDALAR

16. Mazkur Nizom, shuningdek unga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

17. Mazkur Nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar Jamiyatning Kuzatuv kengashi va Jamiyatning ijroiya organi rahbari takliflari bo'yicha kiritiladi.

18. Agar O'zbekiston Respublikasi qonunlari va me'yoriy (normativ) hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilishi natijasida mazkur Nizomning ayrim moddalari ularga zid kelsa, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va Jamiyat tomonidan Nizomga taalluqli o'zgartirishlar kiritiladigan paytga qadar O'zbekiston Respublikasi qonunlari va me'yoriy (normativ) hujjatlariga amal qilinadi. Bunda mazkur Nizom istalgan qismlaridan birining haqiqiy emas deb topilishi umuman butun Nizomning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi.

“ТАСДИҚЛАНГАН”

“UzGasTrade” АЖ

Ягона акциядорининг

2025 йил 17 октябрь даги

3 -сонли қарори билан

**“UZGASTRADE” АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТИ
КУЗАТУВ КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИНИ
СУҒУРТАЛАШ ТАРТИБИ ТЎҒРИСИДАГИ
НИЗОМ**

Тошкент – 2025 йил

МУНДАРИЖА

I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР.....	3
II. АТАМАЛАР ВА ТАЪРИФЛАР.....	3
III. КУЗАТУВ КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИНИНГ ЖАВОБГАРЛИНИ СУҒУРТАЛАШ ТАРТИБИ ВА МЕЗОНЛАРИ.....	4
IV. СУҒУРТАЛОВЧИ ТАШКИЛОТГА НИСБАТАН ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР	5
V. КУЗАТУВ КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТАЛАШ МАНБАЛАРИ.....	5
VI. ЯКУНИЙ ҚОИДАЛАР	5

I. УМУМИЙ ҚОИДАЛАР

1.1. Ушбу “UzGasTrade” АЖ Кузатув кенгаши аъзоларининг жавобгарлигини суғурталаш тўғрисида”ги Низом (кейинги ўринларда - Низом) Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси, Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисидаги”ги ва “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги Қонунлари ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат иштирокидаги корхоналар ва тижорат банклари фаолиятининг операцион самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2024 йил 31 июлдаги 464-сон Қарори ва “UzGasTrade” АЖ (кейинги ўринларда - Жамият) Уставига мувофиқ ишлаб чиқилган ва Жамиятнинг Кузатув кенгаши аъзоларининг жавобгарлигини суғурталаш тартибини белгилайди.

1.2. Ушбу Низом Жамият Ягона акциядорининг қарори билан тасдиқланади ва унга киритилган барча ўзгартириш ва қўшимчалар Жамият Ягона акциядорининг қарорлари асосида амалга оширилади.

II. АТАМАЛАР ВА ТАЪРИФЛАР

2. Ушбу қоидада қуйидаги атамалар ва таърифлар қўлланилади:

Кузатув кенгаши – Жамият фаолиятига умумий раҳбарликни амалга оширувчи орган ҳисобланади, “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунида ва Жамият Уставида акциядорларнинг умумий йиғилиши ваколатига кирадиган масалаларни ҳал қилиш бундан мустасно.

Кузатув кенгашининг аъзолари - “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни ва Жамият Уставида назарда тутилган тартибда Акциядорларнинг умумий йиғилиши (ягона акциядор) томонидан уч йил муддатга сайланадиган шахслар.

Кузатув кенгашига давлат улуши бўйича тайинланган (сайланган) аъзолар - “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни ва Жамият Уставида назарда тутилган тартибда Жамият устав капиталидаги давлат улуши бўйича сайланган Ўзбекистон Республикасининг давлат хизматчилари ва давлат иштирокидаги корхоналар вакиллари бўлган шахс.

Кузатув кенгашининг мустақил аъзоси - “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 76¹-моддасида назарда тутилган тартиб ва қоидалар асосида Жамият Кузатув кенгаши таркибига сайланган (тайинланган) шахслар.

Кузатув кенгаши аъзоларининг жавобгарлиги - кузатув кенгаши аъзоларининг кузатув кенгаши таркибидаги фаолияти давомида ҳар қандай даъволар натижасида юзага келиши мумкин бўлган молиявий мажбуриятлар.

Даъво – ёзма равишда кузатув кенгаши аъзоси ёки аъзоларига нисбатан уларнинг ушбу кузатув кенгаши аъзоси сифатидаги фаолияти оқибатида тақдим этиладиган фуқаровий, жиноий, маъмурий, норматив ёки арбитраж иши муносабати билан юзага келган молиявий йўқотишни қоплаш юзасидан тақдим этилган ёзма талаб.

Суғурталовчи – Тегишли турдаги суғуртани амалга ошириш учун лицензияга эга бўлган ва суғурта шартномасига мувофиқ суғурта товони (суғурта тўлови) тўловини амалга ошириш мажбуриятини олувчи тижорат ташкилоти бўлган юридик шахс.

Суғурталанган шахс – Кузатув кенгашининг аъзоси;

Суғурта қилдирувчи – кузатув кенгаши аъзоларининг жавобгарлиги суғурта полисини харид қилувчи корхона (Жамият);

Суғурта полиси лимити – суғурталовчи томонидан барча даъволар бўйича полисининг амал қилиш муддати доирасида тўланиши мумкин бўлган маблағлар миқдори.

III. КУЗАТУВ КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУВУРТАЛАШ ТАРТИБИ ВА МЕЗОНЛАРИ

3.1. Жамият ўз кузатув кенгаши аъзолари томонидан кенгаш аъзоси сифатида амалга оширилган ёки амалга оширилганлиги тахмин қилинган қонунга зид бўлган амалиётлари натижасида юзага келган молиявий мажбуриятларни (харажатларни) қоплаш мақсадида Кузатув кенгаши аъзоларининг жавобгарлигини суғурталашни амалга оширади.

3.2. Суғурталанган Кузатув кенгаши аъзоси томонидан қасддан амалга оширилган фирибгарлик, қонунбузарлик ҳолатлари оқибатида ёки суғурта полиси кучга киргунга қадар юзага келган молиявий мажбуриятлар суғурта полиси билан қопланмайди.

3.3. Жамият Кузатув кенгаши аъзолари учун битта суғурта полиси тузилади ва улар томонидан кенгаш аъзоси сифатида амалга оширилган қонунга зид бўлган ҳаракатлари (амалиётлари) натижасида Жамиятга нисбатан тақдим этиладиган фуқаровий, жиноий, маъмурий, норматив ёки арбитраж иши муносабати билан юзага келган даъволар бўйича молиявий йўқотиш ва мажбуриятларни (харажатларни) қоплашга хизмат қилади.

3.4. Суғурта полисининг амал қилиш муддати уч йил этиб белгиланади ва муддати тугагач суғурта қилдирувчи томонидан янгиланиб борилади.

3.5. Суғурта полисининг амал қилиш даврида Кузатув кенгашига янги сайланган аъзолар автоматик равишда суғуртага қамраб олиниши кўзда тутилиши лозим.

3.6. Кузатув кенгаши таркибидан чиқиб кетган аъзолар учун суғурта полиси уларнинг кузатув кенгаши аъзоси сифатидаги фаолият даври учун ўз кучини сақлаб қолади.

3.7. Суғурта полисининг энг юқори лимити 20 000 000 (йигирма миллион) АҚШ доллари эквивалентига тенг миқдорда белгиланади. Жамият ўз кузатув кенгаши аъзолари жавобгарлигини суғурталашда мазкур лимит доирасидан чиқиб кетмаслиги керак.

3.8. Суғурталанган шахслар суғурталовчи томонидан тақдим этилган ёки суғурталовчи билан келишилган ҳолда бошқа адвокат (юримдик) корхоналар хизматларидан фойдаланишлари зарур.

3.9. Жамият Кузатув кенгаши аъзоларининг жавобгарлигини суғурталашда Жамият Ягона акциядорининг қарори билан қўшимча мезонлар ҳам белгиланиши мумкин.

3.10. Жамият томонидан Кузатув кенгаши аъзоларининг жавобгарлигини суғурталаш учун суғурталовчи ташкилотни жалб қилиш Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилиги талаблари асосида амалга оширилади.

IV. СУҒУРТАЛОВЧИ ТАШКИЛОТГА НИСБАТАН ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

4.1. Суғурталовчи ташкилот суғурта полиси бўйича белгиланган ўз мажбуриятларининг камида 50 фоизини халқаро тан олинган суғурта компанияларда қайта суғурталаши керак.

4.2. Суғурталовчи ташкилот миллий рейтинг шкаласига кўра камида uzA^{++} тўлов қобилияти рейтингига эга бўлиши керак.

V. КУЗАТУВ КЕНГАШИ АЪЗОЛАРИНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТАЛАШ МАНБАЛАРИ

5.1. Кузатув кенгаши аъзоларининг жавобгарлигини суғурталаш манбаалари Жамиятнинг маблағлари ҳисобланади.

5.2. Мазкур Низомга мувофиқ Кузатув кенгаши аъзоларининг жавобгарлигини суғурталашга тўланадиган суғурта мукофоти тўғрисидаги маълумотлар амалдаги қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳолларда Жамият томонидан белгиланган тартибда ошкор қилиниши мумкин.

VI. ЯКУНИЙ ҚОИДАЛАР

6.1. Мазкур Низом Жамият Ягона акциядори тасдиқлаган кундан бошлаб кучга киради ва бекор қилинмагунча амал қилади. Унда қўзда тутилмаган қоидалар амалдаги қонунчилик ҳужжатлари билан тартибга солинади.

6.2. Ушбу Низомнинг айрим қоидалари Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига ва (ёки) Жамият Уставига зид бўлса, улар ўз кучини йўқотади ва мазкур ҳолатларда Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилиги ва (ёки) Жамият Уставига амал қилинади.